

ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

2024

2-son
11-to`plam



<http://zamtadqiqot.uz>

“ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR”

Konferensiya ilmiy tadqiqotchilarni yangilillarini keng ommaga talqin etuvchi yetakchi vosita hisoblanadi hamda 2023-yilda tashkil etilgan .

Ushbu konferensiya ilmiy tadqiqotchilarni yangiliklarini keng ommaga talqin etuvchi yetakchi vosita hisoblanadi.

Konferensiya tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Reserchbib (OAK 14-baza)**, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan konferensiyalar ro'yxatidagi milliy konferensiyalarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos:

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi.
– Toshkent: 2019. – 160 b.

Anjumanni o'tkazishdan maqsad – zamonaviy ta'limning nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha muhokamalar uchun axborot maydonchasini yaratish, shuningdek yosh kadrlarga ta'lim berishda oliy o'quv yurti va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, ustoz-shogird an'analari asosida uzviy tadqiqotlar olib borishdir.

Maqolalar indexi :

1. Google scholar
2. Zenodo
3. Open aire
4. Reserch bib (**OAK 14-baza**)

Onlayn konferensiya quyidagi sho'balar bo'yicha maqolalarni qabul qiladi:

- Aniq fanlar

- Tabiiy fanlar
- Texnika fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy-gumanitar fanlari
- Filologiya fanlari
- Iqtisod fanlari va boshqa sohalar

Tahrir hayatı:

Filologiya fanlari muharrirlari:

- I.Turamuratova** – O‘zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
- R. Turdiqulova** – O‘zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
- Z. Achilova** – O‘zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
- N. Sabirova** – O‘zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o’qituvchisi
- S.Anarboyeva** – O‘zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Fizika-matematika-fanlari muharriri:

Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich - Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

Gumanitar fanlar muharriri :

Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich - Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri:

Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2024-yil Sentyabr

HAR TIKAN BU G'UNCHADEK KO'NGLUMDA PAYKON BOG'LADI...

Barotova Sevinch
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqlada qalb va ruh she'riyati kuychisi, inson ong-u shuurida tafakkur chechaklarini undirgan Hazrat Alisher Navoiyning "Xazoyin ul -maoniy" asarining ilk qismi – "G'aroyib us - sig'ar" devoni tarkibiga kiruvchi "Bog'ladi" radifli g'azali tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar : "Xazoyin ul – maoniy", "G'aroyib us - sig'ar", g'azal, kulliyot, ma'shuqa, yor, g'azal, matla'.

XV asr mumtoz adabiyoti namoyondasi, turkiy til asoschisi Alisher Navoiy asarlari yetib bormagan, kitob javonidan o'rin olmagan biror o'zbek xonadoni yo'qliki, buyuk so'z san'atkorining purhikmat, tarbiyaviy, ma'naviy qarashlari bilan o'z shaxsiyatini, umuman, qalbini, ruhini poklamagan, ong- u shuurini tafakkur mezonlari bilan boyitmagan bo'lsa?! Shoir ijodi shu qadar rang - baranglik kasb etadiki, asarlarida turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ishqiy mavzular o'z aksini topadi. Xususan, biz tahlilga tortgan "G'aroyib us- sig'ar" devonining "Bog'ladi" radifli g'azali ham ishqiy mavzuda, oshiqona ruhda yaratilgan. G'azal matni :

Har tikan bu g'unchadek ko'nglumda paykon bog'ladi,

Ey jigar pargolasi, sensiz ichim qon bog'ladi.

Sendin ayrilmoq ko'ngulga mumkin ermas to abad,

Chun sening birla azaldin ahd-u paymon bog'ladi.

Lablaringning shavqidin har qatra qonkim, to'kti ko'z,

Sovug' ohimdin ham ul dam la'lum marjon bog'ladi.

Dedi aql-u fahm ani ko'rgach, shikebe ko'zlali,

Vahki, tun bog'in yana ul sho'x chaspon bog'ladi.

Sovurib tifli xazon tufrog‘ ila teng qilmag‘an,
Qaysi bir guldasta bu bog‘ ichra dehqon bog‘ladi?
Ishtiyooqingdin Navoiy o‘ldi- yu yetmas sanga,
Go‘yiyo bu nav oyog‘in bandi hijron bog‘ladi.

(“G‘aroyib us - sig‘ar” 602 - g‘azal)

G‘azal 6 baytdan iborat bo‘lib, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan. Taqte’si quyidagicha :

-- V --- / -- V --- / -- V --- / -- V --
-- V --- / -- V --- / -- V --- / -- V --

Afoyli :

foilotun / foilotun / foilotun / foilun
foilotun / foilotun / foilotun / foilun

G‘azalning ohangdorligi, o‘ynoqiliginini ta’minlagan vosita qofiyadosh so‘zlarning qo‘llanilishidir. G‘azalda paykon, qon, ahd - u paymon, marjon, chaspon, dehqon so‘zлari g‘azal qofiyasini hosil qilgan. Jumladan, qofiyadosh so‘zlardan paykon, ahd - u paymon, marjon, chaspon, dehqon so‘zлari forscha, qon so‘zi turkiy (o‘zbekcha) va hijron so‘zi arabchadir.

G‘azal matla’sida oshiqning ma’shuqasiz holi tasviri bayon etiladi, ya’ni ma’shuqasiz oshiqning ichi qon bo‘lib, har bir tikan oshiq ko‘ngliga g‘uncha atrofidagi tikandek bog‘langani aytildi. Bunda tikan – ma’shuqaning oshiqqa bergen ozori, azobi degan ma’noda tushunilsa, bayt tahlili :

Ma’shuqaning oshiq uchun bergen har bir ozori oshiqning ko‘nglini qoplagan tikandir, xuddiki, g‘uncha atrofida bo‘lgan tikandek hamda oshiq ma’shuqaga jigar parchasi deya murojaat qilib, usiz ichining qon bo‘lishini aytadi.

[Har tikan bu ko‘nglimga g‘unchadek tikan bog‘ladi,
Ey jigar parchasi, sensiz ichim qon bo‘ldi]

Matla’da tashbeh (g‘unchadek ko‘nglumda paykon) va nido (ey jigar pargolasi) san’atidan foydalilanilgan.

Lug‘at :

Paykon - 1. Tikon 2. Kiprik 3. Kamon o‘qining uchi, o‘q uchidagi metall boshoq
Pargola - parcha - parcha, bo‘lak

G‘azalning 2 - baytida oshiq ma’shuqadan to abad, umrining so‘nggiga qadar undan ayrilishi mumkin emasligi, sababi, oshiqning ma’shuqa bilan azaldan ahd-u paymon qilinganini aytadi. Ya’niki, oshiq va ma’shuqa azaldan ahd-u paymon qilinganligi sabab, ayrilish mumkin emas. Bunda ikkinchi misrada sabab va birinchi misrada natija yoritib berilgan. Bundan tashqari ushbu bayt orqali o’zbek xalqi urfatlariga xos bo’lgan, “ahd-u paymon qilish” odatini ham kuzatishimiz mumkin.

Lug‘at :

To abad - umrbod

Azaldin - azaldan, avvaldan

3 - bayt :

[Lablaring havasidan, orzusidan ko‘zimning har qatrasidan qon to‘kildi va bu chekkan sovuq ohim bilan qorishib, qizil marjon bo‘ldi.]

Ya’ni ko‘zidagi oqqan qonli yoshi bilan chekkan ohi qorishib qizil toshli marjon bo‘lgan.

O’zbek adabiyotidan bizga ma'lumki, yor, ma’shuqa go’zalligi, asosan, uning sochi, qoshi, ko’zi, labi va xoli hamda nozik qomati bilan tasvirlanadi. Ushbu baytda esa ma’shuqaning labi orqali uning go’zalligi tasvirlanadi va bu yorni batamom ma’shuqa ishqida ipsiz bog’laydi. Baytda shoir ma’shuqa labini shu darajada baholaydiki, aynan shu labi orqali yorning ko’zidan ko’z yoshi emas, balki qon tomgani va bu qonli yoshlar to’kilib, yorning tortgan sovuq ohi haroratidan ko’zidan tomgan qonyoshlar qizil rangli toshga aylanganini ifodalaydi.

Lug‘at :

Shavq - o‘tkir, orzu, istak, havas, kayf 2. O‘rtanish

La'l - 1. Qizil rangli tosh 2. Maj. Qip- qizil lab, sevgilining qizil labi

Buni, ya’niki sevgilining qizil labini ko‘rgan aql- u zehn sabr, chidam bilan ma’shuqani izladi, ammo ul yor ya’ni ma’shuqa tun qo’yniga mahkam o’rnashdi

tunni (tun chamanini) o'ziga bog'ladi, ya'niki tong otmadni. Baytda husni ta'lil san'ati orqali yor va ma'shuqa holati aks ettirilgan, nazarimizda. (4- bayt).

Lug'at :

Shikebe - sabr, chidam

Ko'zlali - izlamoq, qidirmoq

Chaspon bog'lamoq - mahkam (siqib) bog'lamoq

Yor sovirilgan yoshligini xazon tuprog'iga teng qilmadi, bu bog' ichidagi guldastani qaysi dehqon bog'lagani ham ma'lum emas. Ushbu baytda shoir tashbeh san'atidan foydalangan holda, sevgili, ma'shuqaning chiroyini, umuman olganda, yaxlit holda uni guldasta deb ataydi. Boshqacha aytganda esa, qaysi bir dehqon bu bog'da bu guldastani parvarishlab, bog'lagan, guldasta holiga keltirgan. Xazon bo'lgan tuproqqa o'zining sovurilgan yoshligini teng qilmagan. Ya'niki, yoshlikda qilgan mehnati, chekkan zahmatiga achinmagan. Baytda ishqdan masrur oshiq holini kuzatishimiz mumkin. (5- bayt)

Lug'at :

Tifl - yosh bola, chaqaloq, go'dak

Maqta' Navoiyning ma'shuqaning ishtiyoqidan o'lsa ham yetmaganidek, go'yo ma'shuqaning bu yangi hijroni ham uning oyog'ini bandi qilib bog'lagani haqidagi shikoyati, xafagarchiligi aytildi. Ya'niki, yor hijronga toqat qilolmaydi, bu hijron yorni ipsiz bandiga aylantiradi kabi xulosalanadi.

Lug'at :

Nav - yangi

Àlisher Navoiyning ijod yo'li bu ko'ngil yo'lidir. Shoir har bir g'azallarida so'zlardan shu darajada mohirlik bilan foydalanadiki, bu so'zning bari qalbdan chiqib, qalbga jo bo'ladi. Zotan, Navoiy qay mavzuda qalam tebratmasin, har bir mavzu maromiga yetkazib, aniq va tushunarli holda o'z kitobxonlari, o'qiguvchilari qalbi, ong-u shuuriga tez singib boradi. Navoiy asarlari har qanday holatda o'qilib, har qanday vaziyatga yechim sifatida o'qilguvchi asarlardir. Ham xafagarchilikda shod aylaguvchi, tushkun holatda quvonch baxsh etguvchi olovli, she'riy satrlari

mavjudki, o‘qiganing on turli hissiyotlar olamida sayr etasan kishi. Navoiy lirikasi, butun bir ijodi makon tanlamas, zamon bilmas. Har zamonda birdek ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, Aynan Navoiy asarlarining to bugunga qadar sevib o‘qilishining asosiy sabablari ham uning so‘z qo‘llash san’atida desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, tahlil qilingan g‘azalida ham o‘z ma’shuqasini bir o‘rinda ey jigar pargolasi deb, boshqa o‘rinda uni ul sho‘x , deya atab, murojaat qilishi ham yuqoridagi fikrimizning kichik asosi. Bundan tashqari, tahlil qilingan g‘azalda o‘zbek xalqiga xos bo’lgan “ahd-u paymon bog’lash” odatini ham keltirib o’tadi hamda badiiy san’at turlarining saralaridan foydalanadi. Husni ta’lil, tashbeh, nido kabi san’atlar shular jumlasidan. Navoiy lirikasida ham oshiqona, ham orifona, ham rindona g‘azallarga duch kelamiz. “Bog’ladi” radifli g‘azal esa oshiqona ruhda, mavzuda bitilgan ijodiy mahsuldir. Zero, Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an’analari zaminida maydonga kelib, keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta’sir ko’rsatib, turli sohalarda o’z ahamiyatini aks ettirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Фозилов Е. Алишер Навоий асарлари лугати. –Тошкент: «Нисо Полиграф» , 2013.Б – 1007.
2. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: «Фан» , 1989. - 236 б.
3. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 372-380.
4. Rakhmuddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 31-36.
5. Raxmuddinovna S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 21. – №. 2. – С. 113-117.

6. Rakhmuddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.
7. Rakhmuddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
8. Rakhmuddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132.
Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. "Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – C. 20-22.
9. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: «Фан», 1983. – 168 б.
10. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: «ZARQALAM», 2006. – 128 б.
11. D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari - Ташкент: “TA’LIM-MEDIA” nashriyoti, 2019. - 184b

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUDJET HISOBI VA
NAZORATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLAR**

N. Rahmonov

Bank moliya akademiyasi dostenti,

Najmidinov Abbasbek Anasbek o‘g‘li

**Bank-moliya akademiyasi “Davlat moliyaviy nazorati va audit”
mutaxassisligi magistratura tinglovchisi**

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat budgeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotini nazoratini rivojlantirish hamda uni tahlilini tashkil etish zarurligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat budgeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotini nazoratini rivojlantirish va uni yuritish hamda ularni hisobotlarda aks ettirish tartibi bayon qilingan. Shuningdek, davlat bujeti to‘g‘risidagi hisobotning amaldagi holatini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash hamda takomillashtirish yuzasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Budget tashkilotlari, moliyaviy hisobot, asosiy vositalar, Davlat iqtisodiyoti, g‘aznachilik, daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari, davlat moliyasi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish o‘ziga xos murakkab bosqich va jarayon hisoblanadi. Chunki, buxgalteriya hisobi sub’yektining ish hajmidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi ob’yektlarining soni o‘zgarib boradi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi sub’yekti faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari buxgalteriya hisobi ob’yektlarini turlicha xarakterda namoyon bo‘lishiga olib keladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizni Raqamli iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim va dolzarb jihatlaridan biri bu budget tizmida keng qamrovli olib borilayotgan tizimli islohotlar hisoblanadi. Milliy budget tizmini isloh qilish jarayonida bu islohotlarning davlatning iqtisodiy siyosatiga ta'siri nafaqat iqtisodiy siyosatni yanada erkinlashtirish, balki moliya tizimini tubdan o'zgartirish uchun globallashuv yoki dunyoda kechayotgan surunkali moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini hisobga olishdan ham iboratdir.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish jahon iqtisodiyotining turli tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga, raqamli global qiymat zanjirlariga ulanish nuqtai nazaridan yangi biznes imkoniyatlarini yaratishga, yangi bozorlar va bo'shliqlarning paydo bo'lishiga, shuningdek, yangi raqamli tovarlarni jadal joriy etishga yordam beradi. Raqamlashtirish jarayoni dunyoning turli mamlakatlarida bir vaqtning o'zida sodir bo'lmaydi, shuning uchun milliy axborotni raqamlashtirish darajasida ma'lum bir bo'shliq mavjud.

Raqamli O'zbekiston 2030" dasturida raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar va chora-tadbirlar belgilab berilgan. Utog'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy AKT infratuzilmasi sifatini oshirish, shaharlarda "aqli shahar" konsepsiyasini tatbiq etish, raqamli texnologiyalar bilan ishlash sohasida ko'nikma va malakalarni oshirishga qaratilgan. Raqamli innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish 2019-2021 yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekistonda 2021-2022 yillarga mo'ljallangan sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda, bu sur'atni tezlashtirish va navbatdagi ishlab chiqarish inqilobiga poydevor qo'yishga qaratilgan.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot – axborot va raqamli texnologiyalardan optimal foydalanishga asoslangan zamnaviy iqtisodiyotning o'ziga xos usuli bo'lib, hududlarga raqobatbardosh mavqega ega bo'lish, ilmiy, intellektual va

moddiy salohiyatni rivojlantirish imkonini beradi, bu esa raqamli transformatsiya paradigmasini aniqlashtirishni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mintaqadagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yaxshilash, balki ularni tubdan o'zgartirish uchun mo'ljallanganligi isbotlangan. Ma'lum bo'lishicha, axborot va katta ma'lumotlar bilan ishlash zamонавији рақамли технологияларнинг асосига айланаб бормоqда.



Mintaqaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy resurslar turlarini aniqlash uchun hududiy iqtisodiyotning o'sish va rivojlanish jarayonlarini, aholining raqamli mentalitetini tavsiflovchi omillar ta'sirining korrelyatsion-regressiya modelini yaratish zarur.

1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya paradigmasining asosiy yo'nalishlari

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi axborotni yig'ish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish, uni qayta ishlash va saqlash tezligi va hajmini oshirish, shuningdek, foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarning mavjudligi va samaradorligi

uchun shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi, shu bilan birga axborot sifati sezilarli darajada oshadi.

Hozirgi bosqichda buxgalteriya hisobini raqamlashtirish natijalarini ushbu sohada qo'llanilayotgan dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazalari hamda ularni konfiguratsiya va qurish tamoyillarini tahlil qilish orqali o'rganish shuni ko'rsatdiki, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish bir vaqtning o'zida uning ikkita jihatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

- zarur ma'lumotlarni toplash (qabul qilish), saqlash va keyinchalik manfaatdor foydalanuvchilarga berish texnologiyasi - buxgalteriya hisobidagi axborot texnologiyalari;

– axborotni tizimlashtirish metodologiyasi, ya'ni buxgalteriya hisobining o'zi yoki buxgalteriya hisobi metodologiyasining mohiyatini takomillashtirish zarurdir.

Hozirgi bosqichda buxgalteriya hisobini raqamlashtirishning eng samarali va ommabop yo'nalishlaridan birini ko'rib chiqildi. So'nggi o'n yil ichida "blokcheyn" tushunchasi buxgalteriya hisobi sohasida tobora ommalashib bormoqda. Ushbu texnologiya kerakli qoidalarga muvofiq qurilgan bloklarning uzlucksiz ketma-ketligi (ro'yxati)dir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://kun.uz/uz/99444746>.

2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2018 yil 19 fevraldaggi PF-5349 sonli. <https://lex.uz/docs/3564970>.

3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldaggi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.

4. Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.
5. Шамина, Е. В. Перспективы внедрения автоматизированных технологий в бухгалтерский учет / Е. В. Шамина, А. А. Филимонов // Актуальные направления научных исследований XXI века: теория и практика. — 2018. — № 2 (38). — С. 129-132.
6. Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.
7. Shokiraliyevich, G. I. (2021). Role of information and communication technologies in accounting and digital economy. SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH, 11(5), 17-20. 8. Бочкова, С. В. Исследование применимости цифровых информационных технологий в сфере бухгалтерского учета / С. В. Бочкова // Развитие цифровой экономики в условиях деглобализации и рецессии. — 2019. — С. 634-656.

**MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI**

Raximova X.U.

BMA kafedra dotsenti, i.f.n.,

Turdimatova Munira Tulkinovna

**Bank-moliya akademiyasi “Iqtisodiyotni monetar tartibga solish”
mutaxassisligi magistratura tinglovchisi**

Annotatsiya: Mazkur tezisda moliya bozori hamda moliya xizmatlarini tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xususan, davlatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish uchun qaratilgan islohotlar majmui to'g'risida ma'lumotlar va iqtiboslar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: korporativ qimmatli qog'ozlar, investitsiya, bank-moliya akademiyasi, moliya korporatsiyasi, fond birjasi.

Oxirgi besh yillik islohotlarning pirovard natijasida davlatimizda Yangi O'zbekistonni bunyod etishning muhim bo'lgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy hamda ma'rifiy asoslari yaratilmoqda. Nazar tashlaydigan bo'lsak, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini yanada kuchaytirish shuningdek fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalarining ro`li, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini bundanda oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildiva yana oshirilishda davom etmoqda. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini to'liq kuchaytirish va kambag'allikni imkon qadar qisqartirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib qo'yilib, aholini yangi ish o'rnlari va kafolatli daromad manbailari bilan ta'minlash, malakali tibbiy xizmat va ta'lim xizmatlari, munosib turmush yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat nuqtai nazaridan yangi bosqichga ko'tarilishi e'tiborga molik. Iqtisodiyotning real

sektori va moliya bozoridagi buzilishlar va uzilishlar sababli korxonalarga investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga to'siqlarga duch kelinyapti. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi natijasi orqali ularning korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'ini ko'paytirish masalasi o'z yechimini kutayotgan dolzarb va eng muhim muammolardan biri bo'lib turibdi. "Moliya bozori va moliya xizmatlari sohasini yanada rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari: milliy amaliyat va xalqaro tajriba" mavzusi oliy Majlis Senati qo'mitalari va Bank-moliya akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan davra suhbatida shu kabi masalalar muhokama qilindi. Senatorlar, xorijiy va milliy ekspertlar, mutasaddi vazirlik va idoralar, tijorat banklari vakillari ishtirokida mamlakatda moliyaviy boshqaruvning yangi turlarini tatbiq etish orqali yangi ish o'rinalarini yaratish muammosi o'rtaga tashlandi. O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlar bilan bozori hisoblanadi.

Moliya bozori o'z ichiga quyidagi segmentlarni oladi:

- kredit (bank va boshqa kredit tashkilotlari kapitallari,lizing)va depozitlar bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori;
- valyuta bozori;
- oltin va valyutada ifodalangan (unga tenglashtirilgan) avuarlar (qimmatbaho metall va toshlar,kamyob elementlar,sa'nat asarlari va h.k) bozori;
- sug'urta va pensiya fondlari bozori,lotereya o'yinlari instrumentlari bozori. Moliya bozori iqtisodiyotda quyidagilar mavjud bo'lgandagina samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin:
 - effektiv (samarali) mulkchilik tizimi;

- investitsiya uchun mo'ljallangan yetarli jamg'armalar(moliyaviy resurslar,mablag'lar) va iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan moliayviy instrumentlar.

- talab va taklifni obyektiv mutanosibligi;
- moliya bozori infratuzilmasini samarali faoliyati;

O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini boshqarish va bo'sh turgan pul mablag'larni iqtisodiyotiga jalb qilishning samarali vositasi bo'lgan moliya bozorining shakllanishi 90-yillar boshlariga to'g'ri keladi. 1993-yil 2-sentabrda bu bozor faoliyatining huquqiy bazasi bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasи to'g'risida" qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Moliya vazirligi mamlakat moliya bozorini o'rta va uzoq muddatda rivojlantirish konsepsiysi loyihasini ishlab chiqdi. Hujjat normativ huquqiy hujjatlarning muhokamasi portalida e'lon qilindi. O'zbekistonda 2017-2021 yillarda moliya bozorini rivojlantirish konsepsiysi loyihasi ishlab chiqildi. Moliya bozorini rivojlantirish konsepsiysi loyihasi O'zbekiston Moliya vazirligi tomonidan Koreya fond birjasи, BMT Taraqqiyot dasturi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqodlar instituti hamda boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikda ishlab chiqildi. Yuqorida gilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida moliya bozorini rivojlantirish borasida bir qator salmoqli ishlar olib borilmoqda va o'ylaymizku bu albatta o'z samarasini beradi. Yaqin kelajakda ushbu ustuvor yo'naliishlarning samarasini kuzatishimiz mukin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

2. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых
3. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
4. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.
5. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафийметодологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.
6. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346-351.
7. Ali o'g'li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). – 2022. – Т. 10. – №. 6.– С.30-33.

LOYIHA TUZISH VA UNI BOSHQARISH

N. Tursunova

BMA kafedrasи PhD

Bozorova Maftuna Xayot qizi

Bank-moliya akademiyasi “Loyiha boshqaruvi”

mutaxassisligi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda Loyiha tuzish va uni boshqarish xizmatlarining ilmiy-nazariy asoslari o'rganib chiqilib, rivojlangan xorij amaliyotida ularni rivojlantirish amaliyoti o'rganib chiqilgan. Shuningdek, chakana xizmatlarni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining ahamiyatini asoslangan holda, ulardan keng foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Annotation: The article explores the scientific and theoretical foundations of retail banking services, studies the practice of their development in developed foreign practice. Also, based on the importance of information technology in the development of retail services, the possibilities of their widespread use were considered.

Loyiha boshqaruvi - bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun resurslarni samarali tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilishning muhim jarayonidir. Loyihalar turli sohalarda, jumladan, qurilish, muhandislik, sog'liqni saqlash va moliya kabi sektorlarda keng qo'llaniladi. Loyihaning asosiy xususiyati shundaki, u noyob mahsulot, xizmat yoki natijani yaratishga qaratilgan vaqtinchalik sa'y-harakatdir. Loyihalar katta yoki kichik, oddiy yoki murakkab, arzon yoki juda qimmat bo'lishi mumkin, ammo ularning barchasi samarali boshqaruvni talab qiladi. Loyihaning miqyosi va murakkabligidan qat'i nazar, puxta rejalashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash va doimiy nazorat muvaffaqiyatli yakunlash uchun kalit hisoblanadi.

Loyiha Boshqaruvi Instituti (PMI) ta'kidlaganidek, har bir loyihaning aniq boshlanishi va oxiri mavjud. Loyihalar mustaqil ravishda amalga oshirilishi yoki katta dastur yoki portfelning bir qismi sifatida boshqarilishi mumkin. Dastur bir-biriga bog'liq loyihalar to'plamini anglatsa, portfel esa o'zaro bog'liq dasturlar yoki loyihalarni o'z ichiga oladi.

Loyihalarni boshqarishda asosan uchta yondashuv qo'llaniladi: an'anaviy (predictive/waterfall), moslashuvchan (agile) va gibrild (hybrid). An'anaviy yondashuv loyihani bosqichma-bosqich, ketma-ketlikda bajarishni nazarda tutsa, moslashuvchan yondashuv loyihaning o'zgaruvchan talablariga tezkor moslashish va doimiy takomillashtirishga e'tibor qaratadi. Gibrild yondashuv esa an'anaviy va moslashuvchan metodlarning eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassam etadi.

Samarali loyiha boshqaruvi nafaqat belgilangan vaqt, byudjet va sifat maqsadlariga erishishga, balki manfaatdor tomonlarning talablarini qondirishga ham yordam beradi. Loyiha menejerining vazifasi resurslarni oqilona taqsimlash, jamoani boshqarish, risklarni minimallashtirish va doimiy ravishda kommunikatsiyani ta'minlashdan iborat.

Ushbu maqolada biz turli loyiha boshqaruvi metodologiyalarini, jumladan, ushbu sohada keng tanilgan Loyiha Boshqarish Instituti (PMI) tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK (Project Management Body of Knowledge), PRINCE2 (Projects IN Controlled Environments), Agile (edjayl) va Lean Six Sigma kabi yondashuvlarni bat afsil ko'rib chiqamiz. Shuningdek, ushbu metodologiyalarni qo'llashning amaliy jihatlarini va foydali vositalarni tahlil qilamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Loyiha boshqaruvining turli xil metodologiyalari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos yondashuvni taklif qiladi.

PMI PMBOK (Project Management Body of Knowledge) loyiha boshqaruvining keng tarqalgan metodologiyalaridan biridir. U loyiha boshqaruvining beshta asosiy bosqichini qamrab oladi: boshlash, rejalashtirish, ijro etish, monitoring va yakunlash. PMBOK shuningdek, integratsiya, qamrov, vaqt, xarajat, sifat,

resurslar, kommunikatsiya, risklar va xaridlar kabi bilim sohalarini ham o'z ichiga oladi. Loyiha boshqaruvi uchun PMBOK strukturalangan yondashuvni taklif qiladi, ammo ba'zi loyihalar uchun biroz moslashuvchan emas bo'lishi mumkin.

Agile metodologiyasi, ayniqsa dasturiy ta'minot ishlab chiqish loyihalarida keng qo'llaniladi. U moslashuvchanlik, iterativ ishlab chiqish va mijozlar bilan yaqin hamkorlikni ta'kidlaydi. Scrum, Kanban va Extreme Programming (XP) Agile metodologiyasining mashhur usullari hisoblanadi. Agile yordamida loyiha jamoasi tez-tez o'zgaruvchan talablarga moslasha oladi va doimiy takomillashtirishga intiladi.

Lean Olti Sigma DMAIC (Define, Measure, Analyze, Improve, Control) yondashuvi jarayonlarni optimallashtirish va sifatni yaxshilashga qaratilgan. U isrofni kamaytirish, nuqsonlarni bartaraf etish va mijozlar qoniqishini oshirishga yordam beradi. Loyiha boshqaruvida Lean Six Sigma jarayonlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va yechimlarni ishlab chiqish uchun qo'llaniladi.

PRINCE2 (Projects in Controlled Environments) Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan loyiha boshqaruvi metodologiyasıdir. U 7 ta tamoyil, 7 ta mavzu va 7 ta jarayonga asoslangan holda loyihalarni boshqarishning strukturalangan yondashuvini taklif etadi. PRINCE2 aniq rol va majburiyatlarni belgilaydi hamda loyihaning har bir bosqichida qat'iy nazoratni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i PF-5992-sonli "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"gi farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – M.: KnoRus, 2008. – S. 251.
3. Semenova N.N., Ivanova I.A., Vasilkina A.A. Otsenka ustoychivosti razvitiya kommercheskogo banka na osnove metoda analiza iyerarxiy. Finansi:

teoriya i praktika/Finance: Theory and Practice. 2021;25(4):121-135.

<https://doi.org/10.26794/2587-5671-2021-25-4-121-135>

4. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726. .

5. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.

6. Xodjanov , Iskandar, i Farrux Gafurov. 2021. «Орыт примененияvnutrikostnogo osteosinteza pri razryivax svyazok distalnogo mejbersovogo sindesmoza». Obщestvo i innovatsii 2 (4):123-26. <https://doi.org/10.47689/2181-1415- vol2-iss4-pp123-126>.

ЛИДЕРЛИК ФАОЛИЯТИДА ИНСОН ОМИЛИНИНИНГ АҲАМИЯТИ

Ф.Зулхайдарова

Гулистон давлат университети, ўқитувчи

Лидерлик фаолиятидаги амалга ошириладиган ҳар бир фаолият ва қарорлар инсон учун хизмат қилмоғи, унинг фаолияти мазмунидан келиб чиқмоғи лозим. Инсон омили жамиятдаги барча ижтимоий муносабатларнинг инсон манфаатига хизмат қилишидир. Қарор қабул қилиш бошқарувдаги сўнгги босқич бўлиб, унинг натижаси инсон омили билан бевосита боғлиқдир. Ижтимоий жамиятдаги амалга ошириладиган бошқарув тизимида барча омиллар инсон манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилиб, манфаатлар эса шахснинг нима сабабдан бундай вазиятга тушиб қолгани, яъни бунинг сабаб ва оқибатларини аниқ таҳлил қилишга қаратилади. Шарқ халқларининг бошқариш санъатида ана шундай инсоний ёндошувларга асосланилган бошқарув тамойилини кузатамиз.

Бошқаришда қаттиққўллик ҳам ўз ўрнида қўлланилса, яхши самара беради. Аммо «Ўзгаларнинг хатосини тўғридан-тўғри эмас, балки ёрдамчи воситалар билан кўрсатинг», деган қоидага амал қилган ҳолда фаолиятни ташкил қилиниши ўзаро муносабатларга дарз кетишни олдини олади. Раҳбар ходим фаолияти давомида инсон омилини билиши муҳим. Ҳар доим касбий психология ва бошқарув психологиясининг уйғунлиги юзага келиши керак, чунки касбий психология касбнинг раҳбар фаолиятига таъсири ва касбий деформация ҳакида фикр юритишга мажбур қиласи. Касбий деформация деганда, ҳар бир касбнинг шахс ижтимоий турмушига таъсири тушунилади. Хўш, булар қайси хатти-ҳаракатларда кўзга ташланади. Масалан, жиноий жазони ижро этиш тизимида ишлаган ходимнинг дунёқараси ва психологиясида ўзгариш юз бергани учун ҳам касбий бузилиш вужудга келади. Бундан ташқари, раҳбар доимо қўл остидаги ходимнинг хатти-

ҳаракатига эътибор бериши, ишидаги самарага, ишга, топшириққа муносабати қандайлигини инобатга олиши лозим. Раҳбар томонидан берилаётган эътибор ва мотивациялар ходимни оптимиист кайфиятда, ишчанлик билан ишлашига ва саломатлигига, ўзаро муносабатларини ижобий мазмун касб этишига таъсир қилади. Бунинг учун раҳбар қўл остидаги ходимларини характеристи, темпераменти ва фикрлаш тарзини тушуниши ва ҳисобга одиши лозим.

Инсоният руҳиятининг қонуниятларини ўрганувчи психология фанининг «даҳли бўлмаган» соҳанинг ўзи йўқ. Инсоният тафаккурининг тараққиёти психология фани билан боғлиқ. Психология фанига бугун ҳар қачонгидан кўра кўпроқ эътибор берилмоқда. Юртбошимиз таъкидлаганларидек, кишиларнинг онгини, ҳаёт ва турмуш тарзини шакллантирадиган, ижтимоий психологик муносабатлар бугунги кунда бутунлай янгича маъно-мазмунга эга бўлиб бормоқда. Бугунги кунда янги тарих саҳифасини очиб дадил одимлаётган бизнинг давлатимизда раҳбар кадрлар тайёрлаш сиёсати биринчи ўринга чиқди.

Бугун мамлакатимизга ишchan, шижаоткор ва янгича фикрлайдиган раҳбарларга эхтиёж борлиги аниқ бўлди. Бу фикрлар кенг қамровли бўлиб амалда раҳбар кадрлар тайёрлашга йўналтирилган таълим муассасалари билан жамият ва шахс манфаатлари мослигини ифода этади. Шунинг учун кучли демократик фуқаролик жамиятини шакллантиришдан иборат стратегик йўл давлат ва жамият қурилишининг барча соҳаларида фаолият кўрсатувчи, янгича фикрлайдиган малакали раҳбарларни тайёрлашни назарда тутади. Бу тезкор дунёда яшаётган ёшлар гуруҳи борки, уларнинг ҳар бирида ўзига хос иқтидор ва салоҳиятни кўриш мумкин. Бу хусусиятлар орқали инсоннинг жамиятдаги ўрни ва мавқеи белгиланади. Лекин хамма ҳам жамиятда ўз иқтидорини намойиш этолмайди. Демак, ана шундай, шижаотли ёшларни топиб, уларни тўғри йўлга йўналтириш, ўз қобилиятларини намоён эта олишларига имконият яратиб бериш муҳим масалалар сирасига киради.

Бугун ҳайрихоҳликка, кўмакка мухтоҷ ёшларимиз эртага давлатимизнинг асосий суянчи ва раҳбар сифатида таянчи бўлолади. Бунда раҳбарнинг вазифаси эса бошқарувнинг ижтимоий фаоли сифатида, жамиятнинг, умуманжаҳон цивилизацияси ютуқларини ўзлаштириш учун қулай шароит яратади. Бу шароитлар раҳбар бошқараётган барча таълим тизимига, уни ташкил этиш, бошқариш фаолиятига ва айникса таълимнинг давлат стандартлари, уқув режалари ва дастурлари, дарслеклар, ўқув-услубий адабиётлар мазмунига уйғун равишда сингиб кетиши, узлуксиз таълимнинг ҳар бир босқичида Миллий дастурда қўрсатилган натижаларга эришишни таъминлаши билан боғлиқ бўлади. Шу сабабли ҳам Олий ва ўрта маҳсус таълим, ўрта мактаб ва ўрта маҳсус касб-хунар таълими муассасалари учун раҳбарлик муаммоси азалдан долзарблиги билан бошка инсоншунослик категорияларидан кескин ажралиб турган ва бундан кейин ҳам жамиятнинг ижтимоий-тарихий тараққиётида худди шундай юксак нуфузга эга бўлиб қолаверади.

Жамият мавжуд экан, унинг қудратли ҳаракатлантирувчи кучи, моддий ва маънавий маҳсулот яратувчиси бўлмиш инсоннинг ахлоқи, ақл-идроқи, юксак ҳис-туйғуси, иродавий фазилати, қобилияти ва салоҳияти юзасидан янги маълумотларга эга бўлиш масаласи ўз мавқеини асло йўқотмайди. Худди шу боисдан инсон шахси, унинг камолоти, унга таъсирэтувчи ички ва ташқи психологик омиллар таъсири, тажриба ва интилишнииг роли масаласи XXI асрда ҳам тадқиқ этишга мухтождир. Раҳбар шахсини ўрганиш масаласи билан нафақат психология, педагогика, социология, сиёsatшунослик, тарих каби ижтимоий гуманитар фанлар шуғулланади. Ҳозирги даврда раҳбар муаммоси аниқ, гуманитар ижтимоий фанларнинг умумий тадқиқод объектига айланиб бормоқда ва бу жараён кейинги асрда янада жадаллашади. Шунинг учун ҳам жаҳон психологияси, тўплаган назарий ва амалий маълумотларга кўра, ҳақиқий инсонийлик фазилатларини ўзида мужассамлаштирган, фуқаролик бурчини, Ватан туйғусини чуқур ҳис этадиган, юксак ахлоқий салоҳиятларга

эга бўлган қобилиятли раҳбар шахсини тарбиялаш замон талабига айланмоқда. Миллий мафкура билан қуролланган, янги типдаги юқори малакали

раҳбар ходимлар авлодини тарбиялашда педагогика-психология фани масъулиятини ошириш, уларнинг руҳий оламида сиёсий, маънавий-маърифий ташкилотчилик, ташаббускорлик фаолиятларини ўзаро мувофиқлаштириш, раҳбарликнинг мукаммал тизимини вужудга келтириш вазифалари мухим аҳамият касб этмоқда.

Раҳбар маънавий етуклигининг ўзигина таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини белгилай олмайди. Бу ишлар раҳбарнинг шахсий намунаси, ўзи раҳбарлик қилаётган турли таълим тизимини талаб даражасида йўлга кўя билиши, педагогик ходимлар меҳнатини қадрлаши ва чуқур англаши, уларни ўз вақтида маънавий ва моддий рағбатлантириб бориши, бир сўз билан айтганда, инсоннинг руҳий психологик оламига муттасил равишда эътибор бериши билан мустаҳкамланади. Мазкур омиллар нафақат таълимий самара беради, балки таълим муассасаларида соғлом маънавий, психологик мухит ҳам яратади. Шу ўринда раҳбарнинг ташкилотчилик қобилияти, маънавий маданиятининг моҳияти ва психологик хусусиятлари ҳакида ҳам кенгрок фикр юритиш ўринли бўлади. “Раҳбарнинг маънавий маданияти - раҳбарда шаклланган (ички) руҳий қувватдир”.¹

Раҳбарда шаклланган маънавий-психологик маданият аждодлардан ўзлаштирилган, шунингдек катта авлод томонидан эришилган барча фазилатлар тўплами билан характерланади. Раҳбардаги маданият - унинг раҳбарлик фаолият усули ва ривожланиш мезонидир. Маънавий, психологик жиҳатдан шаклланган раҳбар бўлиш бу ҳар қандай ижтимоий психологик

¹ Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. Олий таълим, халқ таълими соғлиқни сақлаш, ўрта маҳсус касб-хунар

таълими бошқармаларининг маъмурий ходимлари учун қўлланма..- Т.: Янги аср авлоди, 2007.- Б. 9.

муҳитда ўзини тута билиш, ўзи раҳбарлик қилаётган жамоада ва кенг жамоатчиликда соғлом меҳнат муҳитини яратишдан ва инсонларга самимий муносабатда бўлишдан қониқиб яшайдир. Маънавияти шаклланган раҳбар ўзи яшаётган ижтимоий ҳаётда ёмонликка, адолатсизликка, қонун бузилишларига, ватан хоинларига қарши фаол курашишда ирода ва шижоат топа олади. Раҳбарлик фаолиятини самарали ташкиллаштиришда раҳбар ўз кўл остидаги инсонларнинг индивидуал ва психологик хусусиятларини, қизиқишиларини, кўникма, малака ва қобилияtlарини билиши аҳамиятга эга. У кишиларнинг умумий ва хусусий қобилияtlарини, темперамент типларини, характер хислатларини усталик билан ҳисобга олган ҳолда иш тутмоғи керак. Масалан, айрим кишилар тезкор ҳаракатларга таянсалар, бошқаларда эса мантикий фикр юритиш устун бўлиши мумкин . Шу каби шахсий сифатларни ҳисобга олган ҳолда маълум вазифаларни тавсия қилиши ва бошқарув занжирида уни ўз ўрнига қўя билиши, психологик имкониятларидан келиб чиқиб ижрочилик вазифасини унумли тарзда кўра билмоғи керак.

Адабиётлар

1. Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. Олий таълим, халқ таълими соглиқни сақлаш, ўрта маҳсус қасб-хунар таълими бошқармаларининг маъмурий ходимлари учун қўлланма..- Т.: Янги аср авлоди, 2007.- Б. 9.
2. Н.Н. Шомуротова, И. Махмудов Бошқарув. Ўқув қўлланма. Т.:2019

AXLOQIY MUNOSABATLARDA TARBIYANING AHAMIYATI

Kurbanova Go'zal Saydaxmatovna

Toshkent davlat pedagogika universteti tayanch doktoranti

O'zbekiston tarixi ixtisosligi

Annotatsiya: Oilaviy munosabatlarning shakillanishida axloq va tarbiyaning o'rni juda muhim omil sanaladi. Yosh avlodga tarbiya misolida ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan yetuk olimlarimizni tanitish, ularning ilm yo'li, oiladagi axloqiy munosabatlari va o'zbek ilm-fani rivojiga qo'shgan hissalarini tadqiq etish orqali jamiyatdagi yoshlarni tarbiyalash maqsad qilingan

Kalit suzlar: Oila, axloq, ilm fan, tarbiya, farzandlar, an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatning yetuk olimlari, davlat arbobi.

Oila jamiyatning barcha institutlarini qamrab olgan kollektivistik tamoyilning namoyon bo'lishining birinchi va tabiiy sohasidir. Aynan oila shaxsning huquq va majburiyatları, ota-onalar va bolalar huquqlari, erkaklar va ayollar, barcha oila a'zolari huquqlarining o'zaro shartliligini ta'minlaydi. Oilaning o'ziga xos mohiyati shundan iboratki, unda Har bir inson o'z-o'zini anglashni o'z-o'zidan amalga oshiradi, bu boshqalarga qaratilgan. XX-asr davomida. o'z-o'zini anglash istagi globallashayotgan madaniyatning asosiy tendensiyasiga aylandi. Yo'qotilgan narsa oila va haqiqiy individual rivojlanish (shaxslararo kompetensiya, o'ziga ishonch, o'zini o'zi qadrlash va o'z hayotini qanday boyitishni bilish) mustahkam, sog'lom oilasiz mumkin emasligi. Bu oila haqidagi (ham diniy, ham dunyoviy) ijtimoiy-falsafiy qarashlarning asosiy g'oyasidir.

Faqat shaxsiy huquqlar madaniyatini o'zlashtirgan va mas'uliyat haqida hech narsa bilmaydigan odam o'zini insoniylikdan mahrum qilish, uni shaxs qiladigan narsani yo'qotish xavfini tug'diradi. Buning oldini olish uchun oila madaniyatda sevgi, huquq va majburiyatlar maktabi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan oilaviy hayot tajribasi orqali shaxs huquq va majburiyatlar o'rtasidagi muvozanat, hayot

uchun zarur bo‘lgan muvozanat, erkinlik va baxtga erishish muhimligini anglay boshlaydi va tushuna boshlaydi. Shunday ekan axloqiy munosabatlarning shakillanishida yosh avlodga tarbiya misolida ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo‘sghan yetuk olimlarimizni tanitish, ularning ilm yo‘li, oiladagi axloqiy munosabatlari va o‘zbek ilm-fani rivojiga qo‘sghan hissalari haqida davra suhbatlar uyishtirish maqsadga muvofiqdir. Bunday fidokor olim, olimlarimiz soni juda ko‘pchilikni tashkil qilib ulardan H.Abdullayev, X.Sulaymonova kabi yetuk olimlar va davlat arboblarining shaxsiy va oilaviy fazilatlarini alohida takidlash lozim.

Ma’lumki, har insonning shaxs sifatida ulg‘ayishida avvalo oilaning o‘rni beqiyosdir. Davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, xalqning koriga yaraydigan farzandlarni tarbiyalash, ilm-fan sohasining yetuk vakillarini kamolga yetkazish, ularning axloqiy munosabatlarini shakllantirishda hamisha oilalar mustahkam asos vazifasini o‘tab kelmoqda. Filologiya fanlari doktori Naim Karimov shunday yozadi: “Habib Muhamedovich Abdullayev XX asrda ijod etgan o‘zbek yozuvchilari, olimlari va san’atkorlari orasida alohida mavqeni egallaydi. U vafot etgan 1962-yildan beri qariyb ellik besh yil o‘tganiga va uning o‘zbek fani ravnaqiga qo‘sghan hissasini ilg‘ash imkoniyati bo‘lganiga qaramay, Habib Abdullayev hali o‘zining tarixiy o‘rnini to‘la-to‘kis topganicha yo‘q. Buning uchun u bilan avlodlar o‘rtasidagi masofa qisqarishi, olimning butun bo‘y-basti ular qarshisida yaqqol gavdalanishi lozim².

Asadulla aka uch-to‘rt kun davomida menga Habib Muhamedovichni aqlli, talantli, sof vijdonli, maqsadi aniq deb ta’riflab, shu yigit bilan turmush qursam eng baxtli qizlardan bo‘lishimni ta’kidlashdan erinmadni. Rost aytgan ekan, men Habib Abdullayevga turmushga chiqib baxtimni topdim – tom ma’noda baxtli ayolga aylandim... 1940-yil yanvar oyining 9- yoki 10-kunlari bo‘lsa kerak, Asadulla Ikromovich menga bilet ko‘rsatib, ertaga uchalamiz teatrga boramiz dedi. Ko‘p tortishuvdan so‘ng rozi bo‘ldim. Ertasiga Asadulla Ikromovich, Habib

² Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo‘l. Toshkent “Akademnashr” 2017. –B.15.

Muhamedovich va men Gorkiy nomidagi rus drama teatrida “Sobaka na sene” spektaklini ko‘rdik. Men oyimdan hech nimani bekitmasdim. Shuning uchun ertalab ishga ketayotib oyim xavotir olmasin deb ishdan so‘ng teatrqa borishimni va hamrohlarim kim ekanini aytdim. Bu bizning Habib Muhamedovich bilan birinchi uchrashuvimiz bo‘lib, keying uchrashuvlar birovning ishtirokisiz o‘tadigan bo‘ldi³.

Abdullayevning yoshlik va o‘siprinlik davri XX asrning birinchi choragida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar girdobida kechgan. Habib Abdullayevning 1941-yilda yozgan tarjimayi holida 1912-yil 31-avgustda Farg‘ona oblasti O‘sh uyezdida o‘rtahol oilada tug‘ilgani va 1924-yilda otasi vafotidan so‘ng 1928-yilgacha hammollik, batraklik qilib kun kechirgani qayd etilgan⁴. U dastlab o‘ziga to‘q dehqon oilasida koranda, so‘ngra pilla qurti tayyorlovchi zavodda ishchi bo‘lib ishlab hamkasblari e’tiboriga tushgan⁵. 1929-yilda , o‘sha davr yoshlar g‘oyaviy-mafkuraviy tashkiloti-komsomol tashkilotining O‘sh-Aravon kengashi a’zoligiga saylanadi⁶. 1930-yilda O‘sh viloyati komsomol komiteti yo‘llanmasi bilan Habib Abdullayev O‘rta Osiyo Davlat universiteti(hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) tayyorlov kursiga yuborilgan. Tayyorlov kursini muvoffaqiyatli tamomlagan Habib Abdullayev O‘rta Osiy geologiya-razvedka institutining (keyinchalik, O‘rta Osiyo Industrial instituti “Geologiya qidiruv, yershunos-kon qidirish va uni chamalash”) fakultetiga o‘qishga kirgan⁷.

Akam vafotidan uch oyu uch kun o‘tgach, 1940-yilning 31-avgustida nikohdan o‘tdik. To‘y biznikida, hovlida o‘tdi. To‘yimizga akam ishlagan teatr direktoridan tortib butun gruppa ikkiga bo‘linib qatnashdi. Bir qismi kech soat yettida – to‘y boshlanishiga ulgurgan bo‘lsa ikkinchi qismi spektakl tugagandan so‘ng tongacha

³ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo‘l. Toshkent “AKADEMNASHR” 2017. –B.4.

⁴ O‘zR PAA,58-fond, 226-ruyxat,18-ish,11-47-varaqlar.

⁵ O‘zR PAA,58-fond, 226-ruyxat,18-ish,12-varaqlar.

⁶ O‘zR MDA,2575-fond, 1-ruyxat,160-ish,2-varaqlar. O‘zR PAA,58-fond, 226-ruyxat,18-ish,12-47-varaqlar.

⁷ O‘zR PAA,58-fond, 226-ruyxat,18-ish,12-47-varaqlar. O‘zR MDA,2575-fond, 1-ruyxat,160-ish, 4-varaqlar.

bazm qilib, to‘yimizga fayz bag‘ishladi. Dugonalarim, qarindoshu qo‘schnilar va yaqinlarimiz, Habib Muhamedovichning o‘rtoqlari, onalari, singlisi Inoyatxon va yana ikki-uchta qarindoshlari ishtirok etib, quvnab o‘tirishdi⁸.

Habib Muhamedovich turmushimizning boshidanoq xo‘jalikni men yuritishimni istadi va qancha maosh olmasin hammasini menga topshirishini aytди. Ayol kishi oilaning vaziri bo‘ladi, tadbirli, oqila vazir esa oilaning gullab-yashnashini ta’minlaydi deb maslahat berdi. Shu kundan boshlab men oiladagi o‘z o‘rnimni angladim. Habib Muhamedovich zimmamga katta mas’uliyat yukladi. Umr bo‘yi zimmamdagи mas’ulyatini unutmaslikka, qimmatli o‘gitlarni sidqidildan bajarishga harakat qildim. O‘ylashimcha, Habib Muhamedovich zimmamga oson bo‘lмаган vazifa yuklab yutqazmadи, xato qilmadi. Chunki kimdir senga ishonsa, uning ishonchini ortig‘i bilan oqlashga harakat qilasan. Men har qanday vaziyatda ham burchimga, ayollik vazifamga xiyonat qilmadim, o‘zaro munosabatlarimizga yolg‘on aralashtirmadim, yumushlarimni vijdonan ado etdim⁹.

1935-yili Habib Muhamedovich 24 yoshida Moskva konchilik institutining aspiranturasiga qabul qilinadi. 1936 yil 13-iyunda institut tomonidan Butun ittifoq nodir metallar qidiruvi ekspeditsiyasiga rahbar etib tayinlanadi. Aspiranturada o‘qigan kezlari – 1937-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi Fanlar qo‘mitasi tomonidan aspirant Habib Abdullayevga mas’ulyatliz vazifa topshiriladi. U fanlar qo‘mitasining qaroriga muvofiq Moskvadagi oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan o‘zbekistonlik aspiratnlarga boshliq etib tayinlanadi. Ushbu buyruqqa asosan Habib Abdullayev Moskvada o‘qiyotgan barcha o‘zbekistonlik aspirantlar holidan xabar olib, iste’dodlilariga alohida e’tibor qaratib, olingan mavzuni vaqtida himoya qilishlari uchun bor imkonini ayamaydi¹⁰.

⁸ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo‘l. Toshkent “AKADEMNASHR” 2017. –B.18.

⁹ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo‘l. Toshkent “AKADEMNASHR” 2017. –B19-20.

¹⁰ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo‘l. Toshkent “AKADEMNASHR” 2017.–B.22.

1939-yili aspiranturani tugatib, nomzodlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qilgach, Habib Muhamedovichni institutda assistant va aspirantura mudiri sifatida qoldirishadi. Bunday yuksak ishonch va imkoniyat hammaga ham nasib etavermaydi. Shunga qaramay, Habib Abdullayevda O'zbekistonga qaytib ishlash, o'z xalqi, ilm-fanga xizmat qilish ishtiyoqli ustunlik qilib, O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Geologiya instituti direktori nomiga xat bilan murojaat etadi¹¹.

Habib Muhamedovich otasiz o'sib, bolaligidan qiyinchilik ko'rib, mehnatda pishib ulg'aygan. Bunga dalillar ko'p. Institutni tugatib, aspiranturaga kirguniga qadar yetti yil kon injeneri vazifasida ishlagan. Talabalik davridayoq institut, texnikum va ishchi fakultetlarida dars bergen¹².

1948-yil 3-iyunda Habib Muhamedovichning orzusi ro'yobga chiqib, hukumatdagi vazifasidan ozod qilinib, O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti lavozimida ish boshlandi. Nihoyatda xursand edi. Chunki endi ilm bilan shug'ullanish mumkin, o'ylab yurgan va yig'ilgan materiallari asosida ilmiy asarlar yozishga imkon topilgan edi¹³.

Habib Muhamedovichning fe'li kengligi, yuragi ochiq, mehribonligi oilasiga sadoqati, jonkuyarligi, zarur paytda jonini ham ayamasligi meni dardni va har qanday og'irchilikni yengishga toqatli bo'lishga o'rgatgan. Aslida, u kishi biz bilan barobar, balki bizdanda ortiqroq dard tortdi, azoblandi. Lekin domlaning irodasi, daldasi, mehr-toqati hammamizga yetdi va kuch bag'ishladi. Habib Muhamedovich bir zumni behuda o'tkazmas, kunduzi akademiyada, kechasi uyda ishlardi. U kishida hammaning ham qo'lidan kelavermaydigan bir xususiyat bor ediki, uydami,

¹¹ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo'l. Toshkent "AKADEMNASHR" 2017. –B.22-23.

¹² Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo'l. Toshkent "AKADEMNASHR" 2017. –B.24.

¹³ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo'l. Toshkent "AKADEMNASHR" 2017. –B.45.

ishdami, biror ko'ngilsiz holat yuz bersa sezdirmas, uning ta'sirini ish bilan yengardi¹⁴.

“Habib Muhamedovich o‘z zamonasining Beruniy, Ulug‘bek, Ibn Sino singari yetuk olimi edi, — dedi. – U juda yosh ketdi. Hali ellikka ham to‘lmagan edi.

Habib Muhamedovich davlat arbobi sifatida keng qamrovli, odamlar bilan ishlash va ishlatishni bilardi. U katta va murakkab masalalarni osonlik bilan hal qilish qobilyatiga ega, muhimni nomuhimdan ajratishdek, vaqtning qadriga yetishdek fazilatlar sohibi edi... Habib Abdullayev ilm-fan sohasida orzu qilgan rejalarining aksaryati bugungi kunda O‘zbekistonda mustaqillik tufayli ro‘yobga chiqmoqda. Mustaqillik yillarida respublikamizda yuqori malakali fan xodimlarini tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Olimning ezgu niyatları tobora amalga oshib bormoqda.

Yana bir ilm fan fidoyisi andijonlik oddiy bir xizmatchining qizi – davlat arbobi, akademik... Xadicha Sulaymonova sud-huquq sohasini tanlashiga bolalik qiziqishlari sabab bo‘lgan.

Sulaymon Kelginboyev 1913-yil 3-iyul jaziramasida dunyoga kelgan o‘z qizi Xadichaning yaqin kelajakda Sovetlar mamlakatining ajralmas qismi O‘zbekiston Sotsialistik Respublikasining yirik olimasi, ministri, oliy sudyasi bo‘lib yetishganini ko‘rganda edi qanchalar quvonar, faxrlanardi . Xadichaning bolalik va yoshlik yillari Andijonda o‘tadi. 1931-yilda to‘qqiz yillik rus maktabini tamomlaydi. U maqsadi sari dadil intiladi. Yurist bo‘lish haqidagi orzusi uni Sovet qurilishi va huquq ilmiytadqiqot institutining tayyorlov kursiga olib keldi. Kursda bir yil o‘qigach, Toshkentda endigma tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq instituti huquq fakultetining ikkinchi kursiga kiradi. O‘zbekiston oliy yuridik ta’limni rivojlantirishda katta rol o‘ynagan bu institutga huquq fanidan dars berish hamda ilmiytadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun Moskva va Leningraddan

¹⁴ Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo‘l. Toshkent “AKADEMNASHR” 2017. –B47.

professorlardan I. I. Krilsov, I. N. Trepitsin va boshqalar taklif qilingan edi. Sovet qurilishi va huquq institutida hozirda taniqli bo‘lgan olimlar va pedagoglar – professorlardan B. L. Manelis, M. D. Lutskiy, K. D. Tyurin, dotsentlardan S. E. Avrux, M. Mo‘minov, K. Sarimsoqov, G. M. Arenberg, B. A. Usatenko-Chervoniy va boshqalar o‘z mehnat faoliyatlarini boshlagan edilar. O‘quv yillari mashaqqatli va juda qiziqarli bo‘lgan edi, Studentlarning vazifasi ilgari O‘rta Osiyoda hech kimning tasavvurida ham bo‘lmagan yuridik fani egallashdan iborat edi. Revolyutsiyaga qadar Sovet Sharqi territoriyasidagi “rus” sudi deb atalmish sudlar ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy masalalarning deyarli hamasini islom hamda shariat dogmalari asosida hal etardi. Haqiqat, qonunchilik, adliya xonlik va amirlik doktorinasi hamda huquq qurilishi tajribasiga mutlaqo yot bo‘lib, boshqa davlat idoralari singari hokim din bo‘lgan islom dinigina amal qilinardi.

Xadicha Sulaymonova institutni tamomlagandan keyin xalq sudyasi bo‘lib ishlay boshladi. O‘sha 1935-yilning oxirida u respublika Oliy sudi a’zolariga saylanadi. Yigirma ikki yoshida shunchalik yuksak ishonchga sazovor bo‘lish ham ayollar ham erkaklar orasida birinchi bo‘lsa ajab emas. Xadicha Sulaymonova bu ishonchni oqladi. U og‘ir uchastkani – jinoyat sudi yuritish ishlarini boshladi. Uni uyulib yotgan ishlar cho‘chitmadi, u hamma hujjatlarni sinchikovlik bilan o‘rganishga berilib ketdi. Xadicha Sulaymonova hech qachon vaqt bilan hisoblashmay, ba’zan esa dam olish kunlari va tunlari jinoiy ishlar delolarini ipidan-ignasigacha o‘rganardi. U oliv sudda to‘rt yil xizmat qildi. Sulaymonova ana shu vaqtida o‘z ish tajribasini boyitish bilan birga, nazariy bilimini ham oshirib bordi. Unda fan cho‘qqisi sari intilish zo‘r edi. U 1938-yilning sentyabrida Moskva yuridik instituti sovet jinoyat huquqi kofedrasiga asperant bo‘lib kirdi. O‘qishning ikkinchi yili o‘rtalarigacha dissertatsiyaga kerakli materillari to‘plandi. Shu orada Ikkinchi jahon urushi boshlanib qolib, Xadicha dissertatsiyasini nihoyasiga yetkazolmaydi. U Toshkentga, yuridik institutga yuborildi. U institutda ikki yil assistant bo‘lib ishlagandan keyin, 1945-yilning avgustiga qadar jinoyat huquqi kafedrasi dotsenti vazifasini bajardi. Xadicha kun bo‘yi institutda bo‘lib, leksiya o‘qir, seminar

o'tkazardida, charchagan bo'lishiga qaramay kechalari dissertatsiyasi ustida ishlardi. Nihoyat, urush tamom bo'lgandan keyin, 1945-yilning 20-iyulda SSSR adliya komissarligi huzuridagi Butunittifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy sovet "Harbiy intervensiya va grajdanlar urushi davrida O'zbekiston SSR jinoyat qonunchiligi" temasidagi dissertatsiyani yakdillik bilan ma'qulladi. Hadicha Sulaymonova Toshkentga yuridik fanlar kandidati sifatida qaytib keldi. U yurisprudensiya sohasida ilmiy daraja olishga sazovor bo'lgan birinchi o'zbek ayoli edi¹⁵.

Sulaymonova 1945-yilning sentyabrida Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasiga mudir qilib tayinlanadi. SSSR Oliy ta'lif ministrligi oliy attestatsiya komissiyasi Sulaymonovaga berilgan dotsentlik unvonini tasdiqlaydi. Xadicha Sulaymonova Adliya ministiri, Yuridik komissiya raisasi, respublika Oliy sudining raisasi lavozimlarida ishlab yurgan chog'larida ilmiy va tashkiliy ishlarni juda katta aktivlik hamda g'ayrat bilan olib borardi. Toshkent davlat universiteti jinoyat huquqi kafedrasining professori bo'lib ishlaganida sud organlari, prokuratura va boshqa davlat tashkilotlari uchun malakali yurist kadrlar tayyorlash borasida barakali ilmiy-pedagogik ish olib boradi. Xadicha Sulaymonova sovet jinoiy huquqi bo'yicha birinchi marta o'zbek tilida chiqarilgan darslikning yetakchi avtorlaridan va redaktorlaridan biri bo'lgan edi.

Xadicha Sulaymonova akademik I.M.Mominov bilan birgalikda O'zSSR Fanlar akademiyasi huzuridagi Falsafa va huquq insituti falsafa va huquq bo'limini qayta tashkil etish sohasida juda ko'p ish qiladi. 1958-yilning aprelida fanlar akademiyasi Prezidimi I.M.Mominov va X.S.Sulaymonova tomonidan tayyorlangan institut strukturasi va uning asosiy ilmiy faoliyatini yo'naltirishga doir hujjatni tasdiqladi. O'sha yilning mayidan boshlab institut falsafa bo'limi va huquq bo'limi sostavida ish boshladi. Dastlab huquq bo'limiga uch sektor-davlat va huquq nazariyasi hamda tarixi, davlat huquqi va sovet qurilishi, jinoyat va grajdan huquqi

¹⁵ M.Hakimov. Akademik Xadicha "O'zbekiston" nashriyoti Toshkent-1974. B.-23.

protsessi sektorlari qarardi. X.S.Sulaymonova jinoiy, grajdan huquqi va protsessi sektoriga boshchilik qilish bilan birga huquq bo'limining hammasiga rahbarlik qildi.

X.S.Sulaymonova yuridik fanlar doktori, professor O.E. Eshonov bilan katta kollektivni birlashtirib, O'zbekiston sovet davlat va huquqi tarixining uch tomligini yaratishga safarbar etdi. Avtorlar kollektivi orasida X.A.Rahmonqulov T.A.Ayubov, I.D.Jalolov, G.M.Tansiqboyeva, X.N.Yoqubova kabi yosh olimlar bor edi.

1958-yilda "O'zbekiston sovet davlat va huquqi tarixi materiallari" nomi bilan uch tomlikning birinchi tomi nashr etildi. Unda revolyutsiyagacha bo'lgan Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi ijtimoiy hamda ijtimoiy hamda davlat qurilishi huquqining belgilari asosan ko'rsatilgan Turkistonda Sovet davlat va huquqi tarixining birinchi tomi (ikkinchi kitob) nashr etildi. Bunda 1917-yilning oktyabridan 1924-yilning oktiyabrigacha bo'lgan davr ichida Turkiston ASSR, Xorazm va Buxoro xalq sovet respublikalari ijtimoiy hamda davlat qurilishi va huquqining asosiy belgilari tahlil qilishgan.

1963-yilda sotsializm qurilishi davrida (1924-1937) O'zbekistonda ijtimoiy va davlat qurilishi, sovet sudi va huquqi ba'zi sohalarning yanada rivojlanishi problemalariga bag'ishlangan kitobning ikkinchi tomi (uchunchi kitob) chiqdi. 1965-yilda X.S.Sulaymonova hayotlik vaqtida O'zbekiston sovetdavlat va huquqi tarixining (1938-1959-yillar) uchunchi tomi (to'rtinchchi kitob) ustida olib borilgan ish asosan nihoyasiga yetkazilgan edi.

Uning rahbarligida o'n olti kishi yuridik fanlar kandidati ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yozadi va yoqladi.

Ilmiy ishlari jinoyat huquqi, xususan, O'zbekistonda huquqshunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, xotin-qizlar huquqi masalalariga bag'ishlangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutini (1958), respublika Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutini (1959)tashkil

etish tashabbuskorlaridandir¹⁶.

Xadicha Sulaymonova 1965-yilning 26-noyabrida og‘ir va uzoq kasallik oqibatida olamdan erta vafot etdi. U kuch va talantga to‘lgan vaqtida hayot bilan vidolashdi, qisqa umr ko‘rishiga qaramasdan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yaratilishiga mintaqada adolatli huquqiy muhit vujudga kelishiga, huquqshunoslik fanining rivojlanishiga va jamiyat farovonligini ta’minlashga g‘oyat katta katta hissa qo‘sib ketdi. Xalqimiz xotirasida esa birinchi huquqshunos olima, davlat arbobi va buyuk murabbiy sifatida muxirlanib qoldi¹⁷. Iste’dodli olima, chuqur bilim sohibasi Xadicha Sulaymonovna respublikada huquqshunoslik va sovet qonunchilik fanini rivojlantirishga katta hissa qo‘sib ketdi.

Uning Kamunistik partiya va sovet xalqi oldidagi xizmatlari Vatanimizning oliy mukofotlari – ikkita “Hurmat Belgisi” ordeni, “Ulug‘ vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun” medali, O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi. U hayotining so‘ngi daqiqasigacha

o‘z xalqiga sadoqat bilan xizmat qildi. Xalq ham o‘z sadoqatli qizini hech qachon yoddan chiqarmaydi.

Talantli olimaning nomi yozilgan kitoblarni mutolaa qilganlar ham, uning nomi bilan yuritiladigan ko‘chadan o‘tganlar ham , X.S.Sulaymonova nomidagi sud ekspertizasi institutida ishlayotganlar ham o‘z hayotini huquq fanini rivojlantirishga bahsh etgan o‘zbek xalqining ajoyib qizini chuqur minnatdorchilik va hurmat bilan hamisha eslaydilar¹⁸ .O‘zbekiston yurisprudensiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘sigan sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol, yetuk shaxs, o‘zbekning olimasi Akademik Xadicha Sulaymonovaning hatyot

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlanadi.”O‘zbekiston ma’rifatparvar ayollar 1jild O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi Toshkent

– 2021 B-73.

¹⁷ M.K.Tulagonova Xadicha Sulaymonova- Birinchi o‘zbek huquqshunos olima: O‘zbekiston xalqiga qoldirgan merosi va huquqiy tizimiga qo‘sigan ulkan hissasi. XX1asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari 2023.

¹⁸ M.Hakimov. Akademik Xadicha “O‘zbekiston” nashriyoti Toshkent-1974. B-80.

yo'llari haqidagi qiziqarli manbalarni siz Milliy kutubxonamiz bisotida saqlanayotgan manbalardan ham ko'plab ma'lumotlar olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. –Toshkent “O'zbekiston”-2016.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat, 2008.3. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlanadi.”O'zbekiston ma'rifatparvar ayollari 1jild O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi Toshkent– 2021
- 4.M.K.Tulagonova Xadicha Sulaymonova- Birinchi o'zbek huquqshunos olma: O'zbekiston xalqiga qoldirgan merosi va huquqiy tizimiga qo'shgan ulkan hissasi. XX1asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari 2023.
- 5.M.Hakimov. Akademik Xadicha “O'zbekiston” nashriyoti Toshkent-1974.
- 6.Abdullayeva Fotima. Buyuklikka yo'l. Toshkent “AKADEMNASHR” 2017

TURIZMNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Karshiyev A.A.

SamISI tayanch doktaranti

Turizmning iqtisodiy ahamiyatini baholash murakkab vazifa hisoblanadi. Ammo Jahon savdo tashkilotining taklifiga ko‘ra turizmning iqtisodiy ta’sirini baholash maqsadida maxsus turizm hisobi yuritila boshlandi. Maxsus turizm hisobini yuritgan holda har xil sanoat turlari misolida turizmning milliy iqtisodiyotga ta’sirini baholash mumkin.

Jahon savdo tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan turizm rivojlanishini baholash usuli hali hamon ishlab chiqilishda davom etmoqda va rivojlanayotgan davlatlarga joriy etilgani yo‘q. Turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobjiy ta’sir qilib, ayniqsa kichik va o‘rta hajmli korxonalar uchun ish bilan bandlik, iqtisodiy diversifikatsiya, iqtisodiy o‘sish, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasida resurslar taqsimotida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, turizmning rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishga bilvosita ta’sir qiladi, masalan, restoran va mehmonxonalarini ta’minlovchi mahalliy fermer xo‘jaliklari kengayishi, yangi turistik obyektlarning qurilishi orqali qurilish sohasining rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasining muhim qismlari sifatida quyidagilar keltiriladi:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm sohasi bilan bog‘liq ish o‘rinlarining ko‘payishi. Masalan, restoranlar, kechki klublar, turagentlar va boshqa turizm korxonalarida yangi ish o‘rinlarini keltirib o‘tish mumkin;

bilvosita turizm bilan bog‘liq bo‘lgan, masalan, suvenir sotish, oziq-ovqat mahsulotlari savdosi va boshqa turizm talabiga bog‘liq sohalar.

Umuman olganda, turistik biznes tomonidan qilingan daromadlar ham oddiy iste’mol xarajatlari sifatida mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflanadi.

O‘zbekistonda 2016-2023 yillarda turizm xizmatlari eksporti¹⁹

Asosiy ko'rsatkichi		O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	Yillik o'zgarish foizda
Turizm xizmatlar eksporti	reja	mln AQSh dollarri			1 041,0	1 180,0	1 360,0	400	900	2000	222,2%
	amalda	mln AQSh dollarri	430,7	531	1 041,1	1 313,0	260,9	422,1	1610,1	2143,5	133,1%
	bajarilishi	foiz			100	111,3	19,2	105,5	179	107,1	59,8%

Yuqorida jadvaldan 2023-yil davomida turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. AQSh dollar (yillik reja-2,0 mlrd dollar)ni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

2018-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida o‘rtacha bir turistga to‘g‘ri keladigan turizm xizmatlari eksporti hajmining o‘zgarish dinamikasi²⁰

AQSh dollarida

¹⁹ Ekologiya vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

²⁰ O‘sha joydan

№	Hududlar va davlatlar	2018-yil	2022-yil	O'sish sur'atlari, %
I.	qo'shni davlatlardan:			
1	Qozog'iston	158,3	256,6	162,1%
2	Qirg'iziston	99,3	153,8	154,9%
3	Tojikiston	60,4	186,7	309,1%
4	Turkmaniston	104,6	104,6	100,0%
5	Afg'oniston	709,4	1066	150,3%
II.	qolgan MDH davlatlardan:	635,6	742,8	116,9%
III.	boshqa davlatlardan:	709,4	1066	150,3%

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) tomonidan tayyorlangan “Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar (2008-yil)” va “Turizm yordamchi hisobi bo'yicha tavsiya etiladigan uslubiy asos” tavsiyalariga ko'ra 2022-yilning may-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish va chiqishga oid turizm bo'yicha navbatdagi tanlanma kuzatuvlar o'tkazilgan.

Kuzatuv davrida jami 12707 nafar respondentlar, shundan 5897 nafari xorij fuqarolari (eksport xizmatlari) hamda 6810 nafari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (import xizmatlari) tashkil etgan.

Kuzatuv natijalari umumlashtirilib, davlatlar kesimida har bir tashrif buyurgan xorijiy turistlar (eksport xizmatlari) qilgan o'rtacha xarajatlari hisoblandi.

Boshqa sohalar kabi turizmni rivojlantirishda strategik rejorashtirish keng qo'llaniladi. Strategik rejorashtirish jarayonida bugungi kunda ayniqsa ekologik barqaror rivojlanishga urg'u berilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan turizmni barqaror rivojlantirishning uchta asosiy tamoyili ishlab chiqilgan:

ekologik barqarorlik bazaviy ekologik jarayonlar, biologik xilma-xillik va biologik resurslar yo'q bo'lib ketmasligini ta'minlaydi;

ijtimoiy-madaniy barqarorlik mahalliy aholining hayotiy qadriyatlari, madaniyatining turizm rivojlanishi bilan mos kelishini ta'minlaydi;

iqtisodiy barqarorlik turizmni rivojlantirishda shunday samaradorlikka erishishni ta'minlaydiki, samarali resurslarni boshqarish jarayoni orqali kelajak avlodlar ham ushbu resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINI
YARATISH VA MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Karshiyev A.A.

SamISI tayanch doktaranti

Infratuzilmani rivojlantirish turizmni rivojlantirishda eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Turizm sohasi asosiy turistik marshrut atrofidagi infratuzilma holatiga kuchli bog‘langandir. Muhim turizm yo‘nalishlari atrofida infratuzilmani yaratish va modernizatsiya qilish strategiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi. Masalan, 17-maqсад - Turizmga ta’sir vositalarini kuchaytirish va global hamkorlikni jonlantirish: turizm o‘zining tarmoqlararo tabiatи tufayli xususiy va davlat sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashi va umumiyl maqsadlarga erishish uchun turli sohalardan ko‘plab manfaatdor tomonlarni birlashtirishi mumkin.

BAA va Singapur kabi turizm rivojlanayotgan davlatlar jahon darajasidagi havo transporti markazlarini yaratdilar. Dunyo bo‘ylab turistik sayohatlarning keskin ko‘payishi aynan havo transportining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Turistik infratuzilma juda keng ma’noga ega. Infratuzilmaga turar joy obyektlari ham kiradi. Masalan, turistik infratuzilmaga shahar infratuzilmasini rivojlantirish va universal foydalinish imkoniyatlari, hududlarni tiklash hamda tabiiy merosni saqlashga ko‘maklashish obyektlarini kiritishi mumkin.

Davlatimiz tomonidan turli sohalardagi loyihalarni boshqarish uchun infratuzilmaviy missiya shakllantirilgan. 2027-yilgacha umumiyl investitsiya talabi 1 milliard AQSH dollarini tashkil etgan holda, 2023-yilda hukumat infratuzilma kapital xarajatlarining qariyb 9 foizini turizm uchun ajratdi. Turizmni rivojlantirish va targ‘ib qilish Samarqand viloyati infratuzilma missiyasidagi asosiy vazifalardan biridir.

Ayni paytda Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlatimiz tomonidan quyidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

1. "Ipak yo'li" turistik markazi;
2. "Imom al-Buxoriy" ziyorat markazi;
3. shahar transporti;
4. sog'liqni saqlash;
5. sport infratuzilmasi;
6. tematik parklar;
7. Konferensiya markazlari.

Mamlakatimiz hukumati hududiy infratuzilmani rejalshtirishda Samarqand viloyatida 2023-2025 yillarda taklif qilgan quyidagi turizmni rivojlantirish dasturiga e'tibor qaratilishi lozim:

**Samarqand viloyatida 2024-2026 yillarda turizmni rivojlantirish dasturi
yo'nalishlari**

№	Yirik turistik loyihalar	Loyiha mazmuni
1	Turizm sohasida yirik loyihalarni va belgilangan vazifalarni amalga oshirish.	Bunda: a) Imam Al-Buxoriy majmuasini qayta qurish; b) «Abadiy shahar» tarixiy majmuasini o‘z ichiga olgan 212 hektar maydonda «Samarqand turizm markazi»ni tashkil etish; v) turizm xizmatlari hajmini 10 barobarga oshirish.
2	Viloyatdagi madaniyat va san’at ta’lim muassasalari faoliyatini yaxshilash, ularni malakali mutaxassislar bilan ta’minlash.	Samarqandda aviatsiya akademiyasining ochilishi.
3	Viloyatda madaniy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish va saqlash ishlarini amalga oshirish.	Samarqand shahridagi «Registon», «Ruxobod», «Shohi-Zinda», «Dari Zanjir», «Nodir Devon Begi», «Sobiq avliyo Nikolay Cherkovi» va «Chor-Su savdo-gumbazi» majmualari, «Amir Temur», «Oq Saroy», «Xo‘ja Doniyor», «Saroy Mulk Xonim» va «Ashrat-Xona» maqbaralari, «Mahdumi Xorazmiy» majmuasini, «Bibi-Xonim», «Qo‘s-h-xovuz» masjidlari va «Ulug‘bek Rasadxonasi»ni restavratsiya qilish.
4	Samarqand xalqaro aeroportini modernizatsiya qilish	«Samarqand xalqaro aeroporti» rekonstruksiya qilinishi natijasida reyslar sonini 3 723 taga va yo‘lovchilar oqimini 1,5 mln nafarga oshirish. Ziyorat turizmini rivojlantirish va turistlar sonini maqsadli ko‘rsatkichlarda belgilangan miqdorlarga yetkazish uchun Indoneziya, Malayziya, Yaponiya, Bangladesh mamlakatlaridan kelayotgan turistlarni jalb etish maqsadida xorijiy va uchinchi davlat aviakampaniyalari tomonidan xalqaro aeroportlarda joriy etilgan «Ochiq osmon» rejimi doirasida aviaparvozlarni amalga oshirish
5	Turistik transport logistikasini takomillashtirish	Tadbirkorlik subyektlari va investorlarni jalb qilgan holda shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda avtobus (mikroavtobus) qatnovlarini axborot texnologiyalari orqali yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tizimni yaratish
6	«Samarqand turizm markazi»da turistik obyektlarni qurish	Samarqand turistik markazi hududida muzeylar, galereyalar, madaniy-tomosha hamda madaniy-ma’rifiy tashkilotlar hamda turistlarni jalb qiladigan boshqa ko‘ngilochar va sport maskanlarini tashkil etish.
7	Turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish	1. Viloyatda 2 ta madaniyat markaziga yangi bino barpo etish. 2. Samarqand viloyat Filarmoniya bo‘limini bino bilan ta’minlash.

Transport infratuzilmasining asosiy bo‘g‘inlari sifatida aeroport, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari infraturizlmasini rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozim. Hozirda Samarqand viloyatida faqat bitta “Samarqand xalqaro aeroporti” turistlarga xizmat qilmoqda. Aeroportni modernizatsiya qilish, xorijiy havo yo‘llari kampaniyalarini mintaqada xizmat ko‘rsatishga ko‘ndirish murakkab vazifa bo‘lib, turizm tarmog‘ining rivojlanishi va kengayishini ta’minlash uchun joylashtirish vositalari hamda ko‘ngilochar infratuzilmani rivojlantirishni talab qiladi.

QON VA NON LEKSEMALARINING RAMZIY MA'NOLARI

Shaxzoda Muxammadaliyeva

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

shahzodaxon532@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada qon va non leksemalarining ramziy ma’noalari tahlil qilingan. Ular badiiy asarlardan olingan misollar va o‘zbek xalq maqollari orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qon, avlod, ramz, non, tirikchilik, nasiba.

Symbolic meanings of blood and bread lexemes

Shakhzoda Mukhammadaliyeva

supporting doctoral student

Tashkent state named after Alisher Navoi

University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

shahzodakhon532@gmail.com

Annotation

This article analyzes the symbolic meanings of blood and bread lexemes. They are explained through examples taken from works of art and Uzbek folk proverbs.

Key words: blood, generation, symbol, bread, livelihood, fate.

O'zbek tilida faol qo'llaniluvchi va o'ziga xos ramziy ma'nolarga ega bo'lgan leksemalardan biri qon so'zi hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida qon leksemasi quyidagicha izohlanadi:

QON 1 Organizmning yurak va qon tomirlardan iborat yopiq sistema ichida to'xtovsiz harakatlanib turuvchi suyuq to'qimasi (a'zo va hujayralarni oziqlantiradigan, modda almashinishini ta'minlaydigan qizil suyuqlik). Arteriya qoni. Vena qoni. Qon aylanishi. Qon bosimi. Qon ketishi (oqishi). Qon tomirlari. mm Yara ko'krakda, yurakka yaqin: undan quyuq qon hali ham siljib turar edi. Oybek, Tanlangan asarlar.

2 ko'chma Tug'ishganlik, qarindosh-avlodlik ramzi sifatida. *Ota-bobosi san'atkor o'tgan-da, qonida bor.* "Yoshlik" Ular "O'zimning qonim, qo'ynidan to'kilsa qo'njiga, begona bo'lmasin" qabilida ish tutadilar. Gazetadan.

3 ko'chma Narsalarning yashash, harakatlanish ramzi sifatida; "joni", "yuragi"; qon tomiri. *Neft motorlarning qonidir, Neft mamlakatning shonidir.* Y. Mirzo. *Nutq insoniy madaniyatning qon tomiri, asosi va o'zagidir.* "Saodat".

4 ko'chma Shaxsga xos hissiyot, his-tuyg'u. *Qandaydir bir parivashning olovli jozibasi, husn-malohati uning erkaklik qoniga cho'g' tashlab yuborgan edi.* K. Yashin, Hamza. *Jayronning shamoldek yengil irg'ishlab qochishi beixtiyor ko'zni o'ynatib, odamda ovchilik qonini ko'pirtiradi.* M. Mansurov, Yombi. [O'TIL, 2006: 328-329].

Ma'lumki, o'zbek xalqi uchun azal-azaldan qon-qarindoshlik, nasl-nasab juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham qiz berish, kelin qilishdan oldin ularning

kim ekanligi, qanday insonlar ekanligi yaxshilab surishtiriladi. Qoni tortdi, qoni toza, qonida bor kabi birikmalar faol ishlatiladi. Aynan shuning uchun ham qon leksemasi tug‘ishganlik, qarindosh-avlodlik ramzi sifatida ishlatiladi. Insonga xos bo‘lgan xususiyatlar unga, avvalo, qon orqali o‘tadi. Buni “Yulduzlar mangu yonadi” asaridagi quyidagi misollarda ham ko‘rishimiz mumkin²¹:

Bir polvon yiqilsa, origa oshnasi yo og’aynisi davraga chiqdi. Qoni tortdi...

Polvonlik bizga otameros. Pushtdan-pushtgta, qondan qonga o‘tib kelyapti.

Polvonlikning ko‘zga ko‘rinmas, til bilan tushuntirib bo‘lmas shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlargina biladi.

Mergan jo ‘ra, deyishidan bilib edim-a... Asli qonida bor ekan-da...

Shuningdek, Tohir Malik ham o‘zining “Talvasa” asarida Bo‘ron Qamariddinga nisbatan: “ Bu bilan bemalol ishlasa bo‘ladi. Tomirida o‘zimizning qon oqadi²² ”, - deya ta’rif beradi.

O‘zbek xalq maqollarida ham qon leksemasining qarindoshlik, nasl-nasab ma’nolarida ishlatilishini bir qancha o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin²³:

Tuqqan elga jon tortmasa ham, qon tortar.

Qon bilan kirgan jon bilan chiqar.

Jon tortmasa, qon tortar.

Non leksemasi forscha so‘zdan olingan bo‘lib, oziq-ovqat ma’nosini anglatadi. U ham tilimizda azaldan qo‘llanib kelayotgan so‘zlardan biri hisoblanib, ikki xil ma’noda ishlatiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida non leksemasi quyidagicha izohlanadi:

²¹ Тоғай Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. -Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 6, 24, 29.

²² Тохир Малик. Талваса. -Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 142.

²³ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – Б. 11, 159, 264.

NON 1 Xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova va sh.k. da pishiriladigan yegulik. *Bug‘doy non. Zog‘ora non. Shirmoy non. Bo‘lka non. [Kampir] Non yasab bo‘lguncha, tandir qizidi. Keyin bir chekkadan yopdim.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 Umuman, yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa. - *Matqovul aka, men non toparmikanman, deb qorin g‘amida maktab ochganim yo‘q, — dedi u [G‘ulomjon] bosig‘i bilan.* M. Ismoiliy, Farg‘ona t. o. . [O‘TIL, 2007: 57].

Non leksemasi qadimgi davrlardan buyon qo‘llanib keladi. Birgina “Devoni lug‘otit turk” asarining 1-jildida non leksemasiga doir 10 ta so‘z mavjud:

- 1) ywysh ётмäк – ushatilgan non, burdalangan non
- 2) ёбмäк – non
- 3) ётмäк – non
- 4) ўсбипи – issiq qo“lda pishirilib, yoqqa to‘g‘rab, ustiga shakar sepib yeylimadigan non
- 5) чоп – tutmoch (non) parchasi, burdasi
- 6) бир кёс ётмäк – bir bo‘lak non
- 7) кёмäч – ko‘moch, o‘choqda cho‘qqa qo‘yib pishiriladigan non
- 8) қатма – yog‘da pishiriladigan qat-qat non (qatlama)
- 9) бускäч – yupqa non
- 10) кўйввак – yaxshi xamirdan bo‘lgan non²⁴.

Non leksemasi xalqimizda tirikchilik qilish, pul topish kabi ramziy ma’nolarda ishlataladi. Buni quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

²⁴ Xongeldiyeva S. DEVONI LUG‘ATIT TURK” ASARIDAGI LEKSIK BIRLIKALAR TALQINI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. – P. 267.

Chunki bola-chaqamga non topay deb erkakning umri ko 'chada o 'tadi²⁵.

O'z kuching orqasidan non topib yegil, tekinxo 'rlikka o 'rganma, oljanob, mard odamlar bilan suhbatdosh bo 'lsang, yaxshilik bilan nom chiqarasan²⁶.

Sizga o 'xshaganlar ko 'paysa, mendaqalarga non qolmaydi²⁷.

Yaxshi, katta adabiyotimiz borligini, rivojlanayotganini, do 'stlarimizgina emas, kasb-kori bizni yomonlashdan iborat bo 'lgan, bizni yomonlab non topadigan dushmanlarimiz ham tan oladi²⁸.

Shuningdek, u ayrim hollarda rizq-nasiba ma'nosini ham anglatib keladi. Buni Tohir Malikning "Shaytanat" asaridan quyidagi misollarda ham ko'ramiz:

Chechenlarga non berganlarga qo 'l ko 'tarsam, Zeli og 'amning ruhi chirqiraydi, shuni aytmoqchimisiz²⁹?

Sen non berganlarga xiyonat qiluvding. Endi haqini to 'la³⁰.

Bunaqa xashakilarga u yoqda non yo 'q³¹.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglashimiz mumkinki, xalqimiz so'zlardan foydalanishda juda mahsuldor. So'zlarning ramziy ma'no anglatishida u anglatgan asosiy ma'no muhim ahamiyat kasb etadi va hosila ma'no asosida yuzaga keladi. U mavhum tushunchaga ko'chib, xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkurini aks ettiradi.

²⁵ Туроб Мақсуд. Қайтмас тўлқинлар. - Тошкент: О'zbekiston, 2014.- Б. 22.

²⁶ Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. – Тошкент: Истиқлол, 2005. – Б. 11.

²⁷ Тоҳир Малик. Шайтанат (4-китоб). – Тошкент, 2008. – Б. 89.

²⁸ Абдулла Қаҳҳор. Қиссалар. - Тошкент: Faфур Ғулом, 1971. – Б. 414.

²⁹ Тоҳир Малик. Шайтанат (4-китоб). – Тошкент, 2008.- Б. 34.

³⁰ Тоҳир Малик. Шайтанат (4-китоб). – Тошкент, 2008. – Б. 247.

³¹ Тоҳир Малик. Талваса – Тошкент: Sharq, 2012.- Б. 351.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдулла Қаҳҳор. Қиссалар. - Тошкент: Faфур Ғулом, 1971.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
3. Тогай Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. -Тошкент: Шарқ, 1994.
4. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. – Тошкент: Истиқлол, 2005.
5. Тоҳир Малик. Таъваса. -Тошкент: Sharq, 2012.
6. Тоҳир Малик. Шайтанат (4-китоб). – Тошкент, 2008.
7. Туроб Мақсуд. Қайтмас тўлқинлар. - Тошкент: O‘zbekiston, 2014.
8. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
9. Xongeldiyeva S. DEVONI LUG‘ATIT TURK” ASARIDAGI LEKSIK BIRLIKALAR TALQINI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference.

MONETAR SIYOSATNING SAVDO BALANSIGA TA'SIRINI TAHLILI

Davletov Sirojiddin Narimanovich

**Bank-moliya akademiyasi “Iqtisodiyotni monetar tartibga solish”
mutaxassisligi magistratura tinglovchisi**

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekistonda so‘nggi yillarda monetar va fiskal siyosat ikki - butunlay qarama-qarshi yo‘nalish bo‘ylab harakatlanmoqda. Xususan, Markaziy bank tomonidan yuqori infliyatsiyani jilovlash maqsadida yuritilayotgan nisbatan qattiq monetar siyosatga qarama-qarshi ravishda hukumat yalpi talabni rag‘batlantirish maqsadida rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat yuritmoqda. Quyida ana shu ikki yo‘nalishda olib borilayotgan siyosatlarning tashqi savdoga va tashqi savdo defitsitiga ta’sirini baholash hamda takomillashtirish yuzasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Monetar siyosat, byudjet tashkilotlari, byudjet xarajatlari, asosiy vositalar, Davlat iqtisodiyoti, g‘aznachilik, daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari.

So‘nggi besh yil davomida mamlakatning hududlar bo‘yicha olib borayotgan siyosati doirasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq masalalarni hal etishda e’tiborni viloyat darajasidan shahar, tuman va mahallalarga, xususan, ularning mavjud salohiyati, istiqboli va o’sish nuqtalarini baholashga qaratish bu davrdagi siyosatning o’ziga xos xususiyati bo‘ldi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda monetar va fiskal siyosat ikki - butunlay qarama-qarshi yo‘nalish bo‘ylab harakatlanmoqda. Xususan, Markaziy bank tomonidan yuqori infliyatsiyani jilovlash maqsadida yuritilayotgan nisbatan qattiq monetar siyosatga qarama-qarshi ravishda hukumat yalpi talabni rag‘batlantirish maqsadida rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat yuritmoqda. Quyida ana shu ikki

yo‘nalishda olib borilayotgan siyosatlarning tashqi savdoga va tashqi savdo defitsitiga ta’sirini baholashga urinib ko‘ramiz.

Hozirgi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim va dolzarb jihatlaridanbiri bu byudjet tizmida keng qamrovli olib borilayotgan tizimli islohotlar hisoblanadi Hozirgi paytda jahon iqtisodiy adabiyotida monetar siyosatning nazariy va amaliy masalalari to’g’risida turli nazariyalar mavjud bo’lib, ular o’z mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi turli oqimlarga birlashib ketgan.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan xolda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Monetar siyosatini mintaqaviy darajada asosiy nazariy yondashuvlarining mohiyatini o‘rganish;
- O‘zbekistonning monetar siyosatini tahlil etish hamda ulardagi muammolarni aniqlash;
- Markaziy bankning monetar siyosatini takomillashtirishni amalga oshirishning asosiy mexanizmlarini o‘rganish, tahlil qilish va asoslash;
- Monetar siyosatning strategik va uslubiy maqsadlarini aniq belgilash va uning barqarorligini ta’minalash;
- O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi ekonometrik modelini yaratish
- Respublika Markaziy bankining monetar siyosatini takomillashtirish yo‘llari va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirishga qaratatilgan ilmiy taklif va chora-tadbirlar hamda amaliy tavsiyalar taklif qilish zarur.

Xususan, 2022-yilda davlat byudjeti xarajatlari 2021 yilning mos davriga nisbatan qariyb 60 foizga yoki 29,5 trln. so‘m. Qo’shimcha daromadlar, asosan, ish haqini oshirish, aholi uchun arzon uy-joy qurilishini moliyalashtirish, toza ichimlik suvi bilan ta’minalash, yangi ish o’rinlari yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish va ta’mirlashga yo’naltirilganligi iste’mol va ta’lim muassasalarini qurish va ta’mirlashga olib keldi.

Xususan, 2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida jami kreditlar hajmi iqtisodiyot 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,8 barobarga yoki 34,1 trln. so'mgacha 69,9 trln. so'mni, ularning YaIMga nisbatan ulushi 19,3% dan 28,6% gacha o'zgardi.

Bu yil raqobatbardoshlik darajasida biroz yaxshilanish kuzatildiki, ichki bozordagi, xususan, oziq-ovqat bozoridagi muhit, bu esa import tufayli ayrim tovarlarning mavsumiy tanqisligi natijasida yuzaga keladigan narxlar oshishining oldini olishga imkon berdi.

Xususan, 2021-yilda shakar, kartoshka, o'simlik yog'i, shaxsiy parvarishlash vositalari, yuvish vositalari va maishiy texnika kabi turdag'i tovarlar narxlari o'tgan yillarga nisbatan barqaror bo'lib qoldi.


2021-yilning yanvar-may oylarida xizmat ko'rsatish sohasida inflyatsiya birinchi navbatda kommunal xizmatlar tariflarining oshishi fonida ortib borayotgan tendentsiyadir.

Xususan, aprel oyida xizmat ko'rsatish inflyatsiyasining sakrashi kuzatildi, bu asosan elektr energiyasi va tarmoq tabiiy gaziga tariflarning oshishi hisobiga kuzatildi.

May oyida energiya narxining ko'tarilishidan so'ng, suv ta'minoti va isitish uchun tariflar oshirildi. 2021-yilning iyun-avgust oylarida yillik xizmatlar inflyatsiyasi sekinlasha boshladi.

Hozirgi vaqtda energiyaning ichki narxlari mintaqaviy o'rtacha qiymatdan past, bu esa ushbu resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi va ularni ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvolini yomonlashtiradi.

Bunda energiya narxining boshqa narxlarga nisbatan tez o'sishi, ya'ni nisbiy narxlarning moslashuvi ularga signalizatsiya funktsiyasini bajarish va energiya resurslarining mavjudligi va cheklanganligi bilan bog'liq real vaziyatni aks ettirish imkonini beradi.



1-rasm. Savdo balansi hajmining o'zgarishi, hisoblash usuli bo'yicha (%) da

Kelgusi yillarda pul-kredit siyosatini institutsional rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur:

- Keying yildan boshlab asosiy stavkaning shartli prognozini e'lon qilish va uni bozor ishtirokchilari bilan muhokama qilish masalasi ko'rib chiqish;
- turli muddatlarga ega bo'lgan pul narxlari asosida daromadlilik egri chizig'ini shakllantirish;
- bir kecha-kunduzda foiz stavkasi bo'yicha operatsiyalari joriy etish hamda ular asosida daromadlilik egri chizig'i shakllantirish.
- inflyatsiya kutilmalari, iste'molchi va ishbilarmonlikni o'rganish usullari tahlil qilish va ularni takomillash;
- maqsadli auditoriyaning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan aloqa vositalari joriy etish bilan bog'liqdir.

Vaziyat taqozo etgan taqdirda, Markaziy bank tegishli vazirlik va idoralar bilan birlgilikda monetar bo'lмаган inflyatsiya omillarini pasaytirish, shu jumladan

yetkazib berish zanjiridagi uzilishlarni bartaraf etish va zarur tovarlar yetkazib berilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'radi. Xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilganligi sababli, mamlakat daromadining oshishi mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, shuningdek chet elda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talabni oshiradi va bu mamlakat importining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://kun.uz/uz/99444746>.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2018 yil 19 fevraldaggi PF-5349 sonli.
<https://lex.uz/docs/3564970>.
3. Raximova G.M. MHXS globallashuvi: standartlashtirishning jahon tajribasini tahlil qilish (birinchi turkum). "Moliya va bank ishi" elektron jurnali № 5, 2020-yil, 39-bet.
4. A.Karimov, I. Qo'ziyev, M. Rahimov. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish: muammo va istiqbol "Xalqaro ilmiy moliya va hisob" jurnali. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.
5. Avloqulov A.Z. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida molivaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.:2020. 243-bet.

РЕБЕНОК ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ЕГО ПСИХОЛОГИЯ

Абдукадирова Махлиё,

студентка Ташкентского международного университета Кимё

abdukodirovamakhliyo@gmail.com

Аннотация: В статье мы познакомимся с образованием, воспитанием и психологией детей школьного возраста. Даны информация об обстоятельствах раннего детства и обстоятельствах, складывающихся в возрасте и психологии ребенка. Родителей также информируют о том, как реагировать в это время и на что следует обратить больше внимания.

Ключевые слова: Психология, раннее детство, дошкольное образование, возрастной кризис, познавательный процесс, интенсивная память.

Abstract: In the article, we will get acquainted with the education, upbringing and psychology of school-aged children. Information is given about the circumstances of early childhood and the circumstances that develop in the child's age and psychology. Parents are also informed about how to react at this time and what they should pay more attention to.

Key words: Psychology, early childhood, preschool education, age crisis, cognitive process, intensive memory.

С каких пор психология развила на таком уровне не только для детей школьного возраста, но и для всех вообще, внимание, уделяемое ей, стремительно возросло, и сегодня таких вопросов значительно возросло. С годами независимости стало меняться внимание к людям, ценилась их ценность, росли надежды на будущее. (Е. Г. Гозиев) Образование не только взрослых, но и детей вышло на важный уровень. Одна из основных целей – повысить внимание к ним с детства, обучить их первым этапам обучения до

достижения ими школьного возраста, уделить особое внимание психологии каждого ребенка. Эти дети – будущее Задача взрослых – создать для них достаточно возможностей сегодня. (Салаева Л.Ш.) Каждый ребенок начинает свое образование в семье, затем, достигнув определенного возраста, идет в дошкольное образовательное учреждение, затем в начальную школу и так далее. Конечно, развивается и его психология. вместе с этим.

Психологи определяют дошкольный возраст как от трех до семи лет. Потому что периоды кризиса, которые случаются в каждую эпоху, начинаются именно в детстве, с трех лет. Ребенок, достигший трехлетнего возраста, начинает переживать первый возрастной кризис. При этом семь лет еще называют таким кризисным периодом. Причиной тому, конечно, является школьный возраст, который является периодом жизни каждого ребенка от первого возрастного кризиса до второго возрастного кризиса, а также очень важным периодом для педагогов и психологов. После того, как трехлетний ребенок приступает к дошкольному обучению, в нем начинают наблюдаться совсем другие изменения, то есть теперь он начинает помогать, думать сам, принимать решения и даже вести себя как взрослый. Это период быстрого роста и развития ребенка, чтобы понять, что происходит вокруг него. (Хайитбоева Н.) Приступая к дошкольному образованию, родители дают ему основную поддержку, навыки и квалификации, которые у него есть, потому что начинается процесс перехода от игр к подготовке уроков. Ребенок, который растет, играя в различные ролевые игры и подражая им, к 5 годам уже не подражает им. Его психология теперь начинает отдавать приоритет образованию.

По мнению психологов, ребенку очень хорошо расти, играя в разные игры, потому что, играя в игры, он создает событие или сказку, ищет в ней имена героев, а игра в процессе игры, они организуют беседу друг с другом, конечно, это значительно увеличивает процесс общения у ребенка. Ребенок, достигший 6-летнего возраста, теперь хочет активнее общаться с детьми того

же возраста. Трое-четверо детей вместе дружат, у них возрастает интерес к рисованию и слушанию сказок. Конечно, у ребенка, которому интересно все делать, есть капризы и мужественность, но из такой ситуации легче выйти, попытавшись понять его, а не просто оставить в покое. Именно так мы можем ответить на вопрос, как меняется психология ребенка дошкольного возраста. У ребенка этого возраста очень хорошая память, но ребенок не может представить себе что-либо, не увидев и не потрогав это. То есть его воображение будет ограничено. Чтобы его развивать, родителям следует больше гулять со своими детьми, водить их в музеи и подобные места, терпеливо и внимательно все показывать и объяснять. Он должен поговорить с ребенком об увиденном, задавать вопросы и отвечать на все вопросы ребенка. Конечно, при этом интенсивно развивается память, повышается внимание ребенка. Очень важно укреплять и развивать память у детей школьного возраста. (Хайитбоева Н. Рахимова У.)

Быстрое психическое развитие в возрасте дошкольника, то есть чрезмерная любознательность ребенка и задавание большого количества вопросов, встречается и в его психологии. В результате у ребенка развиваются познавательные процессы: память, внимание, мышление, речь, эмоции, воображение и творческие способности. Родитель, который видит умственное развитие ребенка и неравнодушен, уделяет ему много внимания и помогает сделать первые шаги в его будущее. Когда ребенок приходит в мир, он подобен белому листу бумаги, и когда в нем формируются те чувства, которые мы считаем взрослыми, постепенно его жизнь развивается умственно и духовно. Дети школьного возраста начинают раскрашивать эту белую бумагу из-за интереса к разным вещам, и самую большую роль здесь играют родители. То есть помогают ребенку раскрасить эту белую бумагу подходящими цветами. Чтобы знать и понимать все это, прежде всего, они должны уметь понять психологию ребенка и указать правильный путь. Рождение ребенка не означает, что все хорошо, самое главное – суметь дать ему соответствующее

образование. Поскольку этот ребенок считается личностью в обществе, человек, не получивший надлежащего образования, не считается важным ни для какого общества.

Ссылки:

1. Газиев Э.Г. «Общая психология» Ташкент. 2002. 1-2 книги.
2. Вахидов М. «Психология дошкольного образования» Ташкент 1970г.
3. Каримова В.М. Суннатова Р. «Независимое мышление» Ташкент «Шарқ» 2000г.
4. Выготский Л.С. «Мышление и речь», «Педагогика», 1982 г.
5. Шумаров Г. «Семейная психология» Ташкент 2000г.
6. Каримова В. «Социальная психология» Ташкент 1994.
7. Нишонова З.Т. «Независимое творческое мышление» Ташкент «Фан» 2004г.
8. Газиев Э. «Психология мышления» Ташкент «Учитель» 1990г.
9. Салаева Л.Ш. «Детская психология и ее изучение» Ташкент 2022.
10. Хайтбоева Н. Рахимова У. «Особенности детской психологии» Ташкент 2023.

**ОЦЕНКА ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ
МУЛЬТИПАРАМЕТРИЧЕСКОГО МРТ ПРЕДСТАТЕЛЬНОЙ
ЖЕЛЕЗЫ**

М.Ф. Максудов, У.О. Хайдаров

M.Fedorovich klinik sanatoriysi, Ташкент, Узбекистан

Введение: Мультипараметрическое МРТ является золотым стандартом в диагностике рака простаты, благодаря своей способности обеспечивать детальную визуализацию опухоли и оценку инвазии в окружающие ткани. Настоящее исследование направлено на оценку диагностической эффективности мпМРТ с использованием контрастного усиления и специализированных последовательностей, таких как диффузионно-взвешенные и спектроскопические.

Цель: Оценка диагностической эффективности мультипараметрического МРТ предстательной железы на этапе диагностики рака.

Материалы и методы: В исследовании участвовали 114 пациентов клиники Федорович, прошедших мпМРТ с категориями PIRADS 3, 4 и 5. Возраст участников варьировался от 40 до 87 лет, все пациенты обратились с жалобами на нарушения мочеиспускания или были направлены на обследование по подозрению на рак простаты.

Результаты: Использование мультипараметрического МРТ позволило выявить различные характеристики опухолей. Деформация предстательной железы наблюдалась у 82,5% пациентов с подтвержденным наличием опухоли ($p=0,021$).

Гипоинтенсивные структуры выявлены у 28,1% участников, что показало значимую корреляцию с наличием опухоли ($p<0,001$). Локализация опухоли в базальной области была установлена у 26,3% пациентов ($p=0,011$), что также является значительным показателем. Вероятность метастазирования составила 26,3% у пациентов с опухолями ($p=0,014$).

Заключение: Мультипараметрическое МРТ является высокоэффективным инструментом для диагностики рака простаты, позволяя точно определить уровень инвазии, характер опухоли и ее локализацию. Метод способствует улучшению диагностики и дальнейшей стратегии лечения пациентов. Результаты исследований подлежат обсуждению с профильными специалистами для определения оптимальной тактики ведения и возможной динамической оценки.

THE ROLE OF PARENTS IN SUPPORTING YOUNG CHILDREN'S BILINGUALISM

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

**The teacher of “Foreign language practice” department is
Kosimov Anvar**

Annotation:

This article examines the critical role that parents play in the bilingual development of young children, focusing on strategies like the OPOL approach and the challenges they face in maintaining bilingualism. Based on interviews and surveys, the article highlights the importance of consistency, cultural reinforcement, and creating a linguistically rich environment to support balanced language acquisition. The findings also emphasize the potential obstacles posed by dominant language environments and parental proficiency in both languages, while underscoring the long-term benefits of parental involvement in fostering bilingualism and bicultural identity.

Keywords:

Parental involvement, bilingualism, language acquisition, early childhood, language development, home environment, heritage language

Introduction

Bilingualism in early childhood offers numerous cognitive, social, and cultural benefits, but the process of raising a bilingual child requires significant effort, especially from parents. Parental involvement is one of the most critical factors in successfully raising a bilingual child, as the home is often the first place where language is learned. This article explores the role of parents in supporting their young children's bilingualism, focusing on the strategies they use, the challenges they face, and the long-term impact on language proficiency and cultural identity.

Methodology

The study involved qualitative and quantitative research methods, including interviews with 30 parents raising bilingual children and surveys conducted with 200 parents across different linguistic and cultural backgrounds. The participants were from households where two languages were spoken, with children aged 1 to 7. The study also analyzed parental strategies, such as the "one-parent-one-language" (OPOL) approach and mixed-language households, to identify which factors contributed most to successful bilingual language acquisition.

Results

1. Parental Strategies:

- **One-Parent-One-Language (OPOL):** In families where each parent consistently spoke a different language, children showed higher proficiency in both languages compared to families where one language dominated.
- **Mixed-Language Approach:** In households where parents used both languages interchangeably, children showed varying levels of proficiency, often stronger in one language and weaker in the other, depending on the level of exposure.
- **Supportive Environment:** Parents who actively supported both languages through books, media, and interactive play helped their children develop balanced bilingualism.

2. Challenges Faced by Parents:

- **Consistency:** Many parents reported struggling to maintain consistency, particularly in environments where one language was dominant (e.g., the community language being different from the home language).
- **External Influence:** Schools, peer groups, and media in the dominant language posed challenges, as children often became more comfortable in the language used outside the home.
- **Parental Language Proficiency:** Some parents reported feeling insecure about their own proficiency in one of the languages, which affected their ability to model that language effectively for their children.

3. **Cultural Impact:** Parents who emphasized cultural traditions alongside language learning found that children developed a stronger connection to their heritage language. Cultural practices such as storytelling, holidays, and songs in the minority language contributed to children's positive attitudes toward bilingualism.

Discussion

Parental involvement plays a pivotal role in early bilingual language acquisition, especially in the formative years when children are highly receptive to language learning. The study found that the strategies used by parents, particularly the OPOL approach, significantly influence how proficient children become in both languages. Consistency is key, as children require regular exposure to both languages to develop fluency.

Parents who create a rich linguistic environment at home—by reading, singing, and conversing in both languages—help reinforce the minority language, which is often at risk of being overshadowed by the dominant language spoken outside the home. Additionally, parental attitudes toward bilingualism, such as expressing pride in both languages and cultures, strongly affect children's motivation to speak both languages.

However, challenges such as maintaining language consistency, the influence of societal norms, and parents' own language abilities can hinder progress. It is particularly difficult for parents to sustain bilingualism if one language lacks institutional support in schools or the community. In such cases, children may develop a preference for the dominant language used in their social interactions outside the home.

The cultural dimension is also crucial. Parents who integrate cultural activities, traditions, and values alongside language instruction tend to foster not only bilingualism but also a bicultural identity in their children. These practices help children see both languages as valuable and relevant to their personal and social lives.

Conclusion

Parents play an essential role in the bilingual development of their young children, particularly in the early stages of language acquisition. Strategies such as the one-parent-one-language approach and creating a linguistically rich home environment contribute significantly to children's bilingual proficiency. However, challenges such as external societal pressures and consistency in language use can affect the process. Parents who actively engage with both languages and cultures, while also navigating these challenges, are more likely to raise children who are not only proficient in two languages but also confident in their bicultural identity. Continued parental support, even beyond early childhood, remains crucial for maintaining bilingualism as children grow older and face new linguistic environments.

References

1. De Houwer, A. (2009). *Bilingual First Language Acquisition*. Cambridge University Press.
2. Pearson, B. Z. (2008). *Raising a Bilingual Child*. Random House.
3. King, K., & Fogle, L. (2006). "Raising Bilingual Children: Common Parental Concerns and Current Research." *Linguistic Society of America*, 34(2), 120-134.
4. Barron-Hauwaert, S. (2004). *Language Strategies for Bilingual Families: The One-Parent-One-Language Approach*. Multilingual Matters.
5. Grosjean, F. (2010). *Bilingual: Life and Reality*. Harvard University Press.

**БУХОРО АМИРИ САЙИД АБДУЛАҲАДХОН АДАБИЙ
КЕЧАЛАРИНИНГ НАДИМЛАРИ**

Шерхон ҚОРАЕВ,

**Қарши шаҳридаги Ҳалқаро инновацион университети
доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори**

АННОТАЦИЯ

Ушбу илмий мақола Бухоро амири ва ҳукмдорлар шоири Абдулаҳадхон ижоди, сарой адабиёти ҳамда амир ҳузурида ўтказилган адабий кечалар тарихига бағишлиланади.

Ҳукмдор шоир Абдулаҳадхон атрофида шоирлар тўпланиб, адабий кечалар ўтказганлар. Бу эса хонликда адабиёт ва санъатни ривожланишига хизмат қилган.

Калит сўзлар: Сарой шоирлар, адабий мухит, тазкиралар, сохибdevon шоир, мушоиралар.

Кириш. Маълумки, XIX – XX аср бошида Хива, Қўқон ва Бухоро хонлари саройларида ўзига хос адабий мухит шаклланган эди. Жумладан, Бухоро амирлари атрофида ҳам адабий мухит намояндалари - қўплаб истеъдодли шоирлар бўлган ва назм ахли иштирокида амир Абдулаҳаддинг Бухоро, Кармана ва Шахрисабздаги саройларида муентазам мушоира кечалари ташкил этилган.

Бухоро амири Абдулаҳадхон жуда ўқимишли ва зиёли инсон бўлган. Ўзбек тилидан ташқари форс ва рус тилларини мукаммал билган. Француз тилида ҳам гапира олган. Араб тилида Қуръонни қироат билан ўқиган. Амир Сайид Абдулаҳад фиқҳ, мантиқ, фалсафа илмларини замон устозларидан ўрганиб, адабиёт соҳасида ҳам чукур билимга эга бўлган. Амир Абдулаҳадхоннинг маданиятли, маърифатли ва одил хукмдор бўлганлиги Садриддин Айнийнинг “Эсадаликлар” китоби ва Афзал Пирмастийнинг “Тазкират уш-шуаро” асарларида ҳам зикр этилган [<https://m.facebook.com/726997644080431>].

Асосий матн. Бухоро амири Музаффархоннинг ўғли 1885 – 1910 йилларда хукмронлик қилган, зуллисонайн мушоирасевар шоир Абдулаҳадхон (1859-1911) “Ожиз” тахаллуси билан форсча-тожикча ҳамда ўзбекча шеърлар ёзган бўлиб, ўз шеърларини адабий мажлисларида ўқиган. Хукмдорлар шоири девон тузган. Аммо, тарихчи X. Тўраев манғитлар сулоласининг еттинчи хукмдори Абдулаҳадхон девон тузмаган, деган, фикр билдирган.

Қил мурувват ҳолима эй хўбларнинг сарвари,

Токи бўлгай меҳнату андуҳ ҳижрондин нари,

Ожизи бечорага кўрсат юзингнинг ахтари,

Чехра кўрсат қилма истигно Амирга эй пари,

Кўрмаса бир дам қачон сабру қарори бор экан.

Амир Абдулаҳадхон (юқорида келтирилган) Қўқон хони Умархон Амирийнинг қатор ғазалларига мухаммаслар боғлаган[1, Б. 460].

Ожиз амир Абдулаҳад сарой шоири ва надими **Мулло Шариф Анбарнинг** форсча – тожикча ғазалига ҳам жавоб айтган:

Ҳалли мушкилҳо, зи лутфи ҳайийи акбар ёфтам,

Ҳосили мақсуд аз роҳи паёмбар ёфтам.

Ўзи рўйи осмон гуфто – вумо таҳти фалак,

Соли таърихаи чунун аз машқи Анбар ёфтам.

(Мазмуни: Мушкуллар ҳаллини Ҳудо лутфидан топдим, Мақсадларим ҳосилини пайғамбар йўлидан топдим. У осмон юзидан айтдию, биз фалак остида, Таърих ийлини Анбар машқидан топдим.)

Афтидан, шоир Анбарнинг шеърида абжад усулида бирор бир сана берилганки, амир зийраклик ва дид билан буни назмда ифода этган, кўринади [<https://m.facebook.com/726997644080431>].

Амир Абдулаҳадхон ўз замонининг таникли шоирларидан бўлганини тарихчи Муҳаммад Али Балжувоний “Тарихи нофей” асарида “султони замон, шоири оғоқ ва даврон, булбули бўстон [2, Б. 44]” деб эътироф этган. Бинобарин, манбаларда қайд этилишича, ““Фазилат ва сухан гулистонининг булбули” бўлган мазкур амир ўз замонасининг баландпоя, баландпарвоз шоири бўлиб, у яхши шеър ёзган, кўнгилга яқин гаплар айта олган, воқеанависликда ўз даврининг ягонаси бўлган. Унинг мисра ва рубоийлари ажойиб. Чунончи, Ҳожи Нематилло Муҳтарам томонидан мазкур амир топшириги билан тузилган “Тазкират уш-шуаро”да унинг шеърларидан намуналар келтирилган [3, Б. 110]”.

Амирнинг Бухоро, Кармана ва Шахрисабз шаҳарларидағи саройларидағи мушоиралар икки тилда олиб борилган. “Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти” китобида ёзилишича, “Бухоро адабий муҳитида анъанавий икки тиллилик бу даврда ҳам давом этган. Амир Абдулаҳадхон (1859-1910) сиёсий ҳаётнинггина эмас, адабий ҳаётнинг ҳам энг эътиборли вакили эди. Айниқса бу унинг амирлик даври (1885-1910)да яққол намоён

бўлди. Соҳибдевон ҳукмдор шоирнинг адабиётга яқинлиги шу даражада эдикӣ, айрим туман ҳокимлари, масалан, Ҳисор ҳокими Авлиёқулибек “Хусайний” тахаллуси билан девон тартиб қилган эди. Бошқа ҳокимлар ҳам амирга яхии кўриниши учун ҳам шеърлар ёзишган [5, Б.13]. Амирнинг атрофидаги барча – барча амалдорлар унга эргашиб шеърлар ёзган. Ҳатто қозилар ҳам қўлларига қалам олганлар. Шоир “Комил бу улуғ қози **Комили Ҳисорийнинг** тахаллуси бўлиб, у киши Амир Абдулаҳадхоннинг хос моҳир шоирларидан ва мажлис надимларидан бири бўлган. Карманадаги саройида хизмат қилган.

(Таржимаси:)

Қадаҳим сафолигининг масти (сархуши), ишқимнинг равшан қилувчиси,

Каминалан, Комилман, Ожизман, менинг кўзгум дуогўйдир. [12, Б.76].

Ҳукмдор Абдулаҳадхоннинг саройи фозиллар, шоирлар, ёзувчилар билан доим тўла бўлган [4, Б.68]. Чунки у ҳукмронлиги даврида зиёли, илм – фан ва адабиёт намояндадарини ўз атрофига тўплаган. Шоир **Журъат** амирнинг Карманадаги саройида хизмат қилган ва унга бағишлиб қасидалар ёзган [11,Б.16]. Қори Раҳматуллоҳ Возеҳнинг ёзишича, шоир “**Ажиз** – амирнинг надимларидан бўлиб, “биринчи маротаба даставвал амир Абдулаҳадга бир қасида ёзиб, манзур бўлмиш. Амирдан кўп инъом олмиш [11, Б.38]”. **Возеҳ** амирнинг хос сухбатдошларидан бири бўлиб, адабий кечаларида Абдулаҳадга бағишлиланган қасидаларини ўқиган [11,Б.53]. **Рожий Шаҳрисабзий** ҳам сарой шоирларидан бўлиб, амир Абдулаҳаднинг ғазалларига мухаммаслар боғлаган [11, Б.54]. **Шоир Жойб** ҳам амирга бағишлиб шеърлар ёзиб, мажлисларда ўқиган [11.Б.55]. Бухоролик шоир **Фасиҳий** амир саройи маддоҳларидан бўлган [11, Б.59]. **Масрурий** ҳам сарой шоири бўлиб, қасидаларида амир Абдулаҳадни мадҳ этган.

Хусрави одил шаҳе воло амир Абдураҳад,

Лутфи эҳсонаш дили соҳибдилон менарварад. [11, Б.61.]

“Малик уш-шуаро” “Шамсиддин Махдум Шоҳин амир Абдулаҳадхоннинг хос надими бўлган, бинобарин фазлу камол ғурури ва фозиллар илми самарасининг натижасидан умидворлиги қўп бўлган. Карманадаги Кари чорбоғидаги адабий базмлар Шоҳинсиз ўтмаган [12, Б.65]. Афлокий ҳам Карманадаги саройда хизматда бўлган. Амирга бағишлиб, қасидалар ва таърихлар тўқиган [12, Б.67].

Амир адабиёт ва санъат ихлосмандларидан моддий ва маънавий кўмагини дариғ тутмаган. Адабиётшунос Шухрат Халиловнинг ёзишича, Афзал Пирмастий, Мулло Шариф Анбар, Мирза Шамсиддин Дойи, Муҳаммад Аминхўжа Эшон каби кўплаб шоирлар амир саройида ва ҳомийлигига ижод қилган ва мушоира кечаларида шеърлар айтганлар. Уларнинг ижодида Оллоҳ таолога илтижо, маъшуқани тасвирлаш, хукмдорни мадҳ этиш яққол кўзга ташланади. “*Абдулаҳадхоннинг разбати ва ҳиммати билан Афзал Пирмастий (1915 й. в.э.), Нематулла Муҳтарам (1920 й. в.э.), Мирсиодиқ Ҳашмат (Амирнинг укаси), Абди каби шоирлар тазкиралар тузиб, анъанавий тазкирачиликни янги-янги асарлар билан бойитганлар*[5, Б.14]”. Маълумотларга кўра, Афзал Махдум Пирмастий тузган “Афзали ут тазкор фи зикриш шуаро вал ашъор” (“Шоирлар ва шеърлар ҳақида Афзал тазкираси”) деб номланган тазкирада XIX аср охири ва XX аср бошида яшаб, ижод қилган 135 нафар шоир ҳақидаги маълумотлар жамланган. Бу даврда яна қатор тазкиралар тузилиб, анъанавий тазкиранавислик янги асарлар билан бойитилган. Хусусан, Бухоро шаҳзодаси Сайд Мир Муҳаммад Сиддиқ Ҳашмат тузган “Тазкират уш – шуаро” номли тазкирада амирликда яшаб ижод қилган 60 дан ортиқ шоир, уларнинг таҳаллуси, таржимаи ҳоли, машҳур шеърлари ҳақида сўз борган. Ҳожи Абдулазим Шаръий тузган “Тазкираи

шуарои Абдулазим Шаръий” номли тазкирада XIX аср охирида Бухоро, Самарқанд ва Тошкентда яшаб ижод қилган шоирлар ва олимлар хусусида сўз юритилган. Неъматулла Муҳтарамнинг насрий матнда форс тилда ёзган “Тазкираи Ҳожи Неъматуллоҳ Муҳтарам” номли тазкирасида XIX аср ва XX аср бошида Бухорода яшаб ижод қилган шоирларнинг тахаллуси, исми, насаби, ёзган асарлари тўғрисида маълумотлар келтирилган. Абдий Мирабдуллахўжанинг “Тазкираи Абдий” (Ёки “Тазкират уш-шуарои мутааххирини Бухоро”) ҳамда “Тазкират уш-шуаро” (1904) номли тазкираларида Амир Абдулаҳад даврида яшаб ижод қилган 118 нафар шоир ҳакида маълумотлар жамланган [<https://www.bukhara.uz/?p=12632>].

Нақл қилинишича, сарой шоири ва тарихчи **Мирзо Сомий** “кексайган чоғида Абдулаҳадхон саройида қувилади. У саройга қайтиши ва олдинги мавқеини тиклашга анча ҳаракат қилган. Саёҳат қилишини хуш қўрадиган ва саёҳатлари ҳақида китоблар ёзган Амир Абдулаҳад назарига тушиши учун араб ёзувчиси Ҳусайн ат-Тавиронийнинг саёҳатга бағишланган асарини ўгириб, таржимасини Абдулаҳадга бағишилайди. Бундан ташқари, ўзининг “Миъром ал-хаёл” асари билан ҳам худди шундай йўл тутади. Асарининг бошида, охирида ва маҳсус бобларда Амир Абдулаҳадни мақтайди:

Вале маҳдуми ман шахсест доно,

Суханро назди у қадрест воло.

Дилаш аз гармийи маъни ба чўши аст,

Рауф асту ҳалиму айбпўши аст. [<https://www.bukhari.uz/?p=15879>].

Маълумотларга қараганда, Абдулаҳадхон саройида Мирзо Сомий каби юзлаб шоирлар ижод қилиб, ҳукмдорлар шоири билан мушоираларга киришишган..

Хулоса қилиб айтганда, Бухоро амири Абдулаҳадхон саройидаги адабий мұхит ҳамда унинг ҳузурида ўтказилған адабий кечалар мумтоз адабиётимиз ва санъатимиз ривожига хизмат қилған.

Фойдаланилған адабиётлар.

- 1.Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Т.: Қўлёзмалар институти, 1999.-Б.460-463.
 - 2.Мұхаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейи. Т.: Академия, 2001.-Б.44.
 - 3.Бухорода битилған байтлар, Т.:1962. –Б.110.
 - 3.<https://m.facebook.com/726997644080431/photos/a.729005473879648/1532782686835252/?type=3>
 - 4.Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистан бешиги. Бухоро, 2004.-Б.68.
 - 5.Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004.-Б.14-15.
 - 6.Амир Абдулаҳадхон. Фетирбург сафари. Т.: “Академнашр”,2023.-Б.128.
 - 7.<https://www.bukhara.uz/?p=12632>
 8. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ismoilbek-gasprinskiy/ismoilbek-asprali-turkiston-sajo-atlari/>
 9. Қораев Ш. Бухоро Амири Абдулаҳадхон саройи адабий мұхити ва шеърият кечалари тарихи./ “Фан, инновацион техника ва технологияларнинг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий – амалий анжумани мақолалари түплами. Қарши, ҚИАИ, 2023. –Б.645-648.
-

10. Қораев Ш. Жадидчилик ҳаракати асосчиси Исмоил Гаспрали ва Бухоро амири Абдулаҳадхон ижоди. /“Жадидларни илмий-педагогик мероси: тарих ва замонавийлик” номли мавзудаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. 29-30 ноябр. – Самарқанд. 2023. – Б. 136-141.
 11. Қори Раҳматуллоҳ Бухорий. Туҳфат ул аҳбоб фи тазкират ул асҳоб.- Бухоро: Бухоро, 2001.-Б.64.
 12. Садри Зиё. Наводири Зиёя. Тожик тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Б.Аминов. –Тошкент: Баёз, 2019.-Б.184.
-

**МУҲАММАД РАҲИМХОН ФЕРУЗ АДАБИЙ
МАЖЛИСЛАРИНИНГ НАДИМЛАРИ
(ХИВА АДАБИЙ МУҲИТИ НАМОЁНДАЛАРИ)**

**Шерхон ҚОРАЕВ,
Қарши шаҳридаги Ҳалқаро инновацион университети
доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори**

Манбаларда келтирилишича, Чор Россияси босқинидан сўнг тобеъ ҳукмдорга айланган Ферузшоҳ тушкунликка тушиб, “хонанишин” бўлиб қолади. Ана шундай пайтда шоир ва бастакор Комил Хоразмий ва бошқа амалдорлар ҳукмдорга шеърият ва мусиқа кечалари ўтказиб, овунишни – қўнгил ёзишни маслаҳат берадилар: “*Муҳаммад Раҳимхон соний Хоразм ўлкасида ўзидан бошқа кучли ва ёт бир қувватни кўргач, бир хили замонлар муттаъсир бўлиб юрди. Ўзини тасалли қиласжак ҳеч бир машғулот топмоқдин ожиз эди. Бироқ онинг атрофидаги одамлар, хусусан мусиқашунос Паҳлавонниёз Мирзабоши (Комил Хоразмий) хоннинг бу ҳолини англаб, они мажлислар тузмакка қизиқтироди.*³²” Шундан сўнг Муҳаммад Раҳимхон ҳар бир иқтидорли, илмли шоир кишиларга ғамхўрлик қилиб, саройда мушоира базмлари уюштира бошлади.³³ Шундай қилиб, узоқ-яқиндан келган шоирлар ва хонандаю созандалар хон мажлисларини безай бошладилар: “(Феруз)
*Матмурод девонбегига: - Кечаликка (кечга) зиёфат (адабий мажлис) қиласмиз.
Бу зиёфатга созанда Ёқуб доиначини, амалдорлардан Раҳматулло ясавулбошини, Муҳаммад Ризо Оғаҳийни, Меҳтар бобони, Худоёр қушибегини чақир, ўзинг ҳам иштирок этасан, - деб буйруқ берган. Бу зиёфатнинг бошлиги
Матмурод девонбеги бўлғон....*

³² Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси. Т.: Ёзувчи, 1998.-Б.12.

³³ Эркинов А. Полвонов Н. Аминов X. Муҳаммад Раҳимхон II-Феруз кутубхонаси феҳристи. Т.: 2009.-Б.8.

*Муҳаммад Раҳимхон иккинчи Матмурод девонбегига тагин: -
Мадрасадаги ўқиб юрган муллаларда соз биладургони бўлса топиб кел, - деб
айтган. Матмурод девонбеги Полвон Мирзабошини топиб келган. Полвон
Мирзабоши зиёфатга иштирок эта бошлигач, зиёфат ривожланиб кетган.*

*Полвон Мирзабоши шоир бўлиб, шу зиёфатларда Навоийнинг дилнавоз
газалларидан ўқилган, зиёфатда ичкилик ҳам авж олғон".³⁴ Пировардида,
мусиқа ва шеърият кечаларини ўтказиш Ферузнинг доимий одатига айланди.
Бола бахшининг ҳикоя қилинишича, Хива хонлиги музофотида 32 та созанда
кўш (гуруҳи) фаолият кўрсатган. Уларнинг ҳар бири ўз дастур ва маҳоратини
намойиш этиб, шахсан Хон назаридан ва мажлисларидан ўтгандан сўнг, тўй –
ҳашамлар, базму зиёфатларда юришга ижозат берилган.³⁵ Феруз адабий
мажлисларида кўплаб санъаткорлар, хонандалар, созандалар иштирок этган.
Бобоҷон Тарроҳнинг ёзишича, “Муҳаммад Раҳимхон ўн саккиз ёшинда Хоразм
подшолиги таҳтига ўтуруб, арзи дод вақтинда халқнинг арзини сўраб,
оқшомлиқда зиёфат қилишига бошлиғон. Бу зиёфатларнинг бошлиғи
Матмурод Девонбеги бўлғон. Муҳаммад Раҳимхон иккинчи бутун
харажатларни қилиши ҳақида Девонбегига буйруқ берган. Шунингдек, Хон
Матмурод Девонбегига мадраса аҳли ичидаги хушовоз муллалар ва ҳофизлар
бўлса, топиб келишини топширган. Матмурод Девонбеги буйруқ бўйича
ахтариб, ҳофизлардан Толиб Маҳзум, Авазберди Эшон ўғли, Ҳудойберди
Маҳзум, Саъдулла Ҳатибларни топиб келган.*

*Муҳаммад Раҳимхон иккинчи Матмурод Девонбегига, “яна тон”, деб
буйруқ берган. Матмурод Девонбеги Комил Хоразмий, Қози Муҳаммад Карим
ўғлини топиб олиб боргон. Комил Хоразмий ҳам шоир, ҳам мусиқашунос
бўлғон. У Муҳаммад Раҳимхон иккинчига Навоийнинг газаллари хонга таъсир қилиб, Атойини
эса ўзига устоз билиб, шоирлик қилмоққа қараб, йигирма ёшларида шеър ёза*

³⁴ Бобоҷон Тарроҳ Азизов – Ҳодим. Хоразм навозандалари. Т.: F.Фулом номидаги АСН, 1994.-Б.29-30.

³⁵ Матёкубов О. Макомот. Т.: Мусиқа, 2004.-Б.70-71.

бошлаган. Шоирлик қилмоғига сабаб шу зиёфат бўлғон”.³⁶ Бинобарин, Лаффасийнинг ёзишича, Ферузнинг ҳузурида (мажлисларида) доимий етти – саккиз нафар гўяндалар соз, тамбур, гижжак, буламон машқ этиб ўлтурадурлар. Масалан, Мұхаммад Ёқуб хоррат – девон ва Мұхаммад Ёқуб позачи, Аваз дорчи кабилар хизматда бўлган”.³⁷ Мажлис аҳли бўлган санъаткорлардан 53.Мұхаммад Ёқуб Хоррат; 54. Мұхаммад Ёқуб позачи; 55. Аваз дорчи; 56.Қаландар дўнмас; 57. Полвон уста; 58; Қанбар бобо; 59. Худойберган мухркан; 60. Ризо бахши; 61; Суяв бахши; 62. Абдураҳмонбек; 63. Абдулла Межана; 64. Ёқуб дорчи; 65. Усмонжон; 66. Абдужаббор маҳзум; 67.Худойберди Махдум; 68.Ёқуб буломончи; 69. Бува буломончи; 70.Сарик Мехтар; 71. Эрнафас бахши; 72; Аваз бола; 73. Нурилло бахши; 74. Ризо бахшилар³⁸ номларини келтириш мумкин.

Ферузнинг шеърхонлик базмлари, адабиёт ва санъатга берилишида Огаҳий, Комил ва Табибий каби атоқли олим ва шоирлар кучли таъсир кўрсатгандар.³⁹ Аҳмад Табибий тазкирасида 30 нафар шоир ижодидан намуналар келтирилган. “Хоразм мусиқий тарихчasi” китобида адабий мажлис аҳли сони 30 шоир ва 40-50 чамаси мұхаррир – котиблардан иборат бўлганини ёзган; “Феруз замонасида ўттиз чамасида шоир, 40-50 чамасида мұхаррир (котиб, хаттот)лар етушган бўлса ҳам иқтидорлилари Аҳмаджон Табибий, Юсуфбек Баёний, Мұхаммад Расул Мирзо, Аваз Ўтар Ўғли, Мұхаммад Ризо Огаҳий, Паҳлавон Ниёз Мирзобоши Комил, Юсуф Махдум Рожийлар саналган. Хон ўйин – кулгуга мойил бўлиб, ҳар қачон ёнида Хиванинг муқаллид, масҳарабозлари, хонандалари ва созандалари, шоирлари бўлар эди”.⁴⁰ Аниқроқ қилиб айтганда, атрофидаги шоирлар ва санъаткорлар

³⁶ Бобоҷон Тарроҳ Азизов – Ҳодим. Хоразм навозандалари. Т.: Ғ.Фулом номидаги АСН, 1994.-Б.17-18.

³⁷ Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч: Хоразм, 1992.-Б.25.

³⁸ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Мұхаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчasi. Т.: Ёзувчи, 1998.-Б.34-40.

³⁹ Ўзбек адабиёти. Тўрт томлик. Тўртингчи том. Биринчи китоб.Т.: ЎзССР Бадиий адабиёт нашриёти, 1960.-Б.143.

⁴⁰ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Мұхаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчasi. Т.: Ёзувчи, 1998.-Б.34.

таъсирида “Хон ҳазратлари (Феруз) шеърга кўп завқ пайдо қилиб эрдилар. Ўзлари ҳам бурундан Феруз тахаллуси била мутахаллис бўлуб, шеър айтур эрдилар. Сўнгроқ шеърга кўпроқ ҳарис бўлдилар. Ҳар кимнинг шеър айтмоқга саҳл қобилияти бўлса, навъи шеърларни айтиб даргоҳи олийга олиб бора бердилар. Шоирларнинг ададлари кам-беш қирқга ёвуқ борди”.⁴¹ Манбаларга асосланиб, Ферузнинг адабий кечаларида қуйидаги надим – шоирлар иштирок этган Назм ахлидан 1.Мұхаммад Ризо Оғажий, 2, Исо тўра Хусравий, 3. Мұхаммад Юсуф Рожий, 4.Равнақий, 5. Музаффар Ҳожай, 6. Нишотий, 7. Ғозий, 8. Зийракий, 9.Комил Мирзабоши, 10. Тўрамурод тўра Муродий, 11.Сайид Ҳомид тўра Комёб, 12. Исфандиёрхон Фаррух, 13.Сайид Носир тўра Султоний, 14.Раҳмонқули тўра Содик, 15. Саъдулла тўра Саъдий, 16.Отабек тўра Оқил, 17.Мұхаммад Юсуф Баёний, 18. Мұхаммад Ёқуб хожа Ҳолис, 19. Сайид Асад тўра Асадий, 20.Сайид Ғозий тўра Ғозий, 21.Мұхаммад Расул Мирзо, 22.Ҳусайн Мұхаммад Нозирий, 23. Шайхназарбой Шиносий, 24. Давлатмурод маҳрам Ғуломий; 25. Отаназар Мутавалли Камолий; 26. Абдурасул Пур Комил; 27. Аҳмаджон Табибий; 28. Аваз Ўтар ўғли; 29. Мұхаммад Комил Девоний; 30.Мұхаммад Ниёз девон Умидий; 31.Мұхаммадназар махсум Ҳаёлий; 32. Иноятулла Иноятий; 33. Бобожон тарроҳ девон Ҳодим; 34. Болта девон Надимий; 35. Мұхаммад Юсуф девон Чокар; 36. Мұхаммад Ҳусайн девон Мутриб; 37. Нуржон Ботир Баҳодирий; 38. Худойберган Охунд муфти Ожизий; 39. Юсуф Ҳожи Охунд муфти Доий; 40.Мұхаммад Шариф Ҳақирий; 41. Юсуф Даррозд Охунд Юсуфий; 42. Ибодулла Охунд Ҳокий; 43.Отаниёз Қора Охунд Ниёзий; 44. Ҳабиулла Охунд Ҳабибий; 45.Мұхаммад Раҳим Роғиб; 46. Исо Охунд Қонеъ; 47. Мұхаммадниёз Махсум Музниб; 48. Абдураззоқ Махсум Ҳақирий;⁴² 49. Илёс Мулла Мұхаммад Юсуф ўғли Сўфи; 50. Мутриб Ҳонахаробий; 51. Сафо

⁴¹ Мұхаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. Т.: Мерос, 1991.-Б. 256

⁴² Лаффасий. Тазкирай шуаро. Урганч: Хоразм, 1992.120-б.

Муғаний; 52. Отажон тўра Комронлар Муҳаммад Раҳимхон Феруз шеърият кечаларида қатнашиб, мушоиралар олиб боришган.

Мухтасар айтганда, Муҳаммад Раҳимхон Феруз адабий мажлислари ҳамда Хива адабий муҳити мумтоз адабиётимиз ва санъатимиз ривожига хизмат қилган.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Laffasiy. Tazkirai shuaro. Urganch: Xorazm, 1992.-B.27.
 - 2.Feruz gulshani. T.: Mumtoz so‘z, 2016.-B.17-18.
 - 3.Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1994.-B.93.
 - 4.Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. T.:Kamalak, 1991.-B.255.
 - 5.Guseynov G. Sharqdan ko‘tarilgan to‘fon. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: L.Abdrimova.Toshkent, 2020.-B.5.
 - 6.Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehristi. Toshkent, 2009.-B.153.
 - 9.Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1994.-B.33-34.
 - 10.Qorayev Sh. Xonga taskin bergen adabiy majlis yohud Muhammad Rahimxon Feruz she’riyat kechalarining siri// “Sanduvoch”, Qarshi. 2021 yil 15 iyul. №13(446).-B.6.
 - 11.Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari (Muhammad Rizo Ogahiy asarlari ma’lumotlari asosida)./ Zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojida Usmon Nosir ijodiy merosining ahamiyati mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. NamDU, Namangan.2022 yil.-B.210-216.
 - 12.Qorayev Sh. Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari va Muhammad Rizo Ogahiy / Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. II-Qism. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent. 2021 yil.-B.31-37.
-

- 13.Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari tarixi (Muhammad Rizo Ogahiy asarlari ma'lumotlari asosida). “Anvori ilm” jurnali. Tojikiston, Panjakent. 2022 yil. -№ 3-son. –B.225-229.
14. Karayev Sh. The History of Literary Evenings of Khiva Khan Muhammad Rahim Khan Feruz//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences.[2023 yil fevral.-P.64-67.](#)
- 15.Karayev Sh. The History of Literary Evenings of Khiva Khan Muhammad Rahim Khan Feruz// Suv resurslari va gidrotexnika inshootlaridagi muammolar va ularning yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. Qarshi. QIAI, 2023 yil, 15-16 mart. -B.769-772.
16. Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari va Ogahiy/ Xorazm, Xiva. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2023 yil.-№ 6/4 son.-B.156-159.
- 17.Qorayev Sh. Majlisi humoyun: tarix va tadqiq.// Toshkent, Tafakkur. № 01/2023. – B. 121-123.
- 18.Qorayev Sh. Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodirxon va uning farzandlari ijodi hamda saroy adabiy majlislarining o‘ziga xos xususiyatlari.//Ta’lim va rivojlanish tahlili, Jild 4, nashr 3. Toshkent, mart – 2024.-B.91-106.
19. Karayev Sh. Khiva Khan Muhammad Rahimkhan Feruz palase literary environment and literary evenings/ «Geodeziya va geoinformatika sohasini rivojlanish istiqbollari: muammolar va yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari to‘plami.-Qarshi, QarIA: 2024.-P.678-680.
20. Qorayev Sh. Tushkunlikdagi tasalli.// Toshkent, Sharq yulduzi, 2022 yil.-№11.-B.131-133.
21. Qorayev Sh. Xorazmlik xonlar sulolasi (Xiva hukmdori Sayyid Muhammad Bahodirxonning 12 nafar shoir surriyodi ijodi misolida).//Sohibqiron yulduzi, Qarshi. 2024.-№2 (54)-son.-B.180-189.

АМИР ҲАЙДАРНИНГ ДАРВИШЛАР ЙИҒИНЛАРИ

Шерхон ҚОРАЕВ,

Қарши шаҳридаги Ҳалқаро инновацион университети
доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Бухоро амири Ҳайдар (1800 – 1826) шоир ва олим ҳукмдор бўлган.⁴³ Муҳаммадҳакимхон Тўра “Мунтаҳаб ат-таворих”да ёзишича, “ўзбек подшоҳлари ичида амир Ҳайдар подшоҳ каби хафсалали олим ва бирорнинг ҳаққидан ҳазар қилгувчи ўтмаган. Бир неча пири комилдан иршодлик хати олиб, сулук қоидаларини мукаммал ўзлаштирган эди”.⁴⁴ Амир Ҳайдар “Сайийд” ва “Сайийдий” тахаллуслари билан шеърлар машқ қилган.⁴⁵ Манбаларга кўра, “отаси (Амир Шоҳмурод)нинг асрида Қарши волийси эканда, Мулло Миракхон Ан-Насафийдин таълими илм қилиб, Бухорода мулло Фахриддин бин Иброҳимдин ахзи қироат қилиб, ҳофизи Куръон бўлғон эди, деб ҳалқ орасида машҳур эди. Гарчанд нитоқи мулки давлати зайниту қосир ва қуввати тасаллут ва иқтидори заиф ва фотир бўлса ҳам умури мамлакатни халифаи бани аббосия услубида, хусусан, Хорун ар-Рашидга тақлид қилур эди. Турк сultonларидин сulton Ал-Маҳмуд бин Абдулҳамидхонни халифа деб изҳори итоат қилур эди. Хотинлар бирла мушиораси гоят даражада кўп эди. Аҳли илм ва талабага муҳаббат ва сұҳбат айлаб, оларга закот бериб, ихтилот айлаб, дарс этмакга разбат қилиб, ўз арки ўрдасида вақти муайянларда толиби илмларга дарс этмак ва олар бирла мажсолисат ва китобхонлик қилмак бирла машғул бўлур эди”.⁴⁶ Мир Садр Шарифжон Маҳдумнинг ёзишича, “Замон тақозосича Фарғона мулкида салтанат соҳиби

⁴³ Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004.-Б.14-15.

⁴⁴ Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтаҳаб ат-таворих. (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар). Форс-тожик тилидан таржима, муқаддима ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. Т.: Янги аср авлоди, 2010.-Б.70.

⁴⁵ Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004.-Б.14-15.

⁴⁶ Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши, Насаф, 1992.-Б.114.

Амир Умархон илм – фан, шеър ва бадиҳагўйлик соҳасида замона мумтози бўлса, унга замондоши Амир Ҳайдар ҳам ана шу каби хислатлар билан Бухоро салтанати таҳтини безаётган эди. Улар орасида низо қўпган пайтида, бу икки подшоҳ ўз шеърлари орқали даҳанаки жангга киришардилар”.⁴⁷ Тарихчи Тоҳир Хўжандийнинг “Ғаройиб сипоҳ” асарида Бухоро амири Ҳайдар, Қўқон хони Умархон, Хоразм хони Муҳаммад Раҳимхон ўртасидаги шеърий жанглар хусусида шундай келтирилган: “Бухоройи шариф дорулмулкида замона хонининг ҳамасри Амир саййид – амир Ҳайдар подшоҳ эди. Вақти – вақти билан уларнинг ўртасида элчилар бориб келар, бир – бирлари билан мутойиба қилиб турадилар. Бир сафар жаноб Амири Саййид ўзини катта ҳисоблаб, жаннатмакон Умархонни итоаткор бўлиши мазмунида хат ёзиб эдилар. Элчи келиб хат мазмuni маълум бўлгач, шоирларни чақиртириб, унинг маъносини изҳор қилдилар. Шоирлар хатнинг жавобига қуидаги мазмундаги маънони топдилар. Байтнинг мазмуни:

Бухоро амири мени мутеъ қилишига лойик бўлоладими,

Умар ҳалофат таҳтида Ҳайдардан олдин бўлса.

Элчи қайтиб боргач, Амири Саййид хат жавобини кўриб кулдилар. Бухоройи шарифнинг фозиллари (хоннинг ҳозиржавоблигига) таҳсин ва оғарин айтдилар.

Ўша вақтда Урганчда Муҳаммад Раҳимхон ўз даврининг волийси эди, бу муборак таъсирли хабарни эшитиб, Амири Саййид ҳузурига элчи юбориб, хатнинг мазмунини (туркийда) шундай етказдилар. Байт:

Муҳаммад Раҳим олдида топса жой,

Умар тобеъ ўлурми, Ҳайдар мутеъ.

Муҳаммад Раҳимхон ушбу ҳаққоний мазмун билан гапнинг додини берди”.⁴⁸ (*Уибӯ байтда Муҳаммад Раҳимхон қўшини ҳукмдорлар – амир*

⁴⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/zoyo-sadr-sharifjon-mahdumning-shaxsiy-kutubxonasi-01.html>

⁴⁸ Замонов А., Эгамбердиев А. Бухоро амирлиги тарихи (XVIII аср ўрталари – XIX аср ўрталари). Т.: Тамаддун, 2022.-Б.60-61.

Ҳайдар ва Умархондан ўзини юқори тутгани англашилади. Байт мазмунидан Муҳаммад (С.А.В.) – пайғамбар, Раҳим – Аллоҳнинг 99 исмидан бири, икки халифа Умар ибн Ҳаттоб ва “Ҳайдар” лақаби билан машҳур Али ибн Абу Толиб - Муҳаммад (С.А.В.) пайғамбарга қулоқ солгани ва уни Раҳим (Аллоҳ) олдида турса, халифаларнинг унга эргашиши гояси маълум бўлади.)

Албатта, Ҳайдар “ёшлик давридаёқ дин илмини чуқур ўрганиш, Қуръон ёд олиш, кунора рўза тутишини аҳд қилган бўлиб, бу уч мажбуриятни ўз аҳдига мувофиқ адo этарди. Аксар вақтини уламолар сухбати билан ўтказарди”.⁴⁹ Қуръонни ёд олганлиги учун манбаларда Ҳофизи Қуръон подшоҳ сифатида тилга олинади.⁵⁰ Мулла Олим Маҳдум Ҳожининг ёзишича, Амир Ҳайдарнинг иккинчи муҳрида қуйидаги байт ёзилган:

**Шаҳид бўлғон Абулфайзхон,
Шоҳлик таҳтига ўтириди Ҳайдархон.**⁵¹

Мирза Абдулазим Сомий ўзининг “Мангит сultonлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инқирози” китобида ёзишича, *Амир Ҳайдар саховатпеша, олим ва одил подшо эди. Барча илмлардан етарлича хабардор бўлиб, илм ила шугулланган пайтларда, кори давлат ва бандлигига қарамай, илм илоҳиётни ўрганмоқда бўлган толиб-ул илмларга сабоқ берар ва шогирдларининг давраси минг кишидан кам бўлмасди.*⁵² Аҳмад Донишга кўра эса, “тинч ва осойишта кунларда амир пойтахтда эканида уламолар гурухи унинг хузурида тўпланар ва ўз сухбатлари билан кўнглини хушнуд қиласи эди. Бухоро маҳдумларининг машҳур ва иззатли фарзандлари гуруҳ-гуруҳ бўлиб, аркка чиқар ва амир қошида таълим олишар ва илмий баҳслар юритар эди. Ҳеч ким бир даврда бундай ҳукмронлик тартиботи ҳақида сўз юритмайди. Унинг овозаси барча мусулмон ўлкаларига тарқалди ва заминнинг турли ерлари ва

⁴⁹ Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” ДИН, 2014.-Б.29-30.

⁵⁰ Замонов А. Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айrim номаълум саҳифалари. Т.: Баёз, 2020.-Б.144.

⁵¹ Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши, Насаф, 1992.-Б.113.

⁵² Мирза Абдулазим Сомий. Мангит сultonлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инқирози// Тошкент. Шарқ юлдузи. 1993.-№3.-Б.15.

юртларидан мардумлар Бухорога таълим олиш учун кела бошлади”.⁵³ Илм ва шариат қонунлари шу қадар равнақ топдики, исломиятда илгари ўтган биронта ҳукмдор даврида уламолар, тариқат намояндалари бу қаби иззат ва шуҳратга эришган эмаслар”.⁵⁴

Муҳаммад Носириддин тўра ўзининг “Тухфат уз-зоирин” китобида ёзишича, амир дарвишлар билан сұхбатлар ўтказишни хуш кўрган. Махдум ул-машойих Соҳибзода Калоннинг муриди бўлган Амир Ҳайдар устози ва тариқат аҳлининг сұхбатларида иштирок этган ва ўзи ҳам дарвишлар ийғинларини ташкил этган.⁵⁵

“Тарихи салтанати хонадони мангития”да ёзишича, Амир Ҳайдар ҳукмронлик қилган даврда Бухорода илм – фан, хусусан, тарих ва ислом, тариқат илмлари гуллаб яшнаган. Амир Ҳайдар Истанбул, Кобул ва бошқа шаҳарлардан мадрасаларда дарс беришда фойдаланиладиган кўплаб қўлёзма китобларни олдирган ва улардан нусха кўчиртирган. Унинг ўзи мунтазам равища 400 – 500 талабага сабоқ берган. Амир Сайийд Ҳайдар ислом фикҳининг ҳанафия мазҳабига оид “Ал-фавоид ал-алфиийа” номли асар ёзган. Амир Ҳайдар давлат ҳужжатларини системалаштиришга алоҳида эътибор қаратган мангитлар сулоласининг дастлабки ҳукмдорларидан бири эканлиги билан ҳам диққатга сазовордир.⁵⁶

Ўзбекистон Фанлар академияси Шарқшунослик институтининг бой қўлёзма хазинасида “Сайийд Амир Ҳайдар Баҳодирхон мактуботи” номли бир нодир қўлёзма сақланади. Унда Бухоройи шариф таҳтини 1799-1800 дан то 1826 йилга қадар бошқарган Амир Ҳайдарнинг турли хил расмий мактуб ва ҳужжатларининг нусхалари (жами 963 та) жамланган...Амир Ҳайдар ўз

⁵³ Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Таржима, изохлар ва кириш сўз муаллифи Қ.Йўлдошев.Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси ДИН, 2014.-Б.23-31.

⁵⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tohir-muhamedov-savod-tarixga-oid-hujjat/>

⁵⁵ Муҳаммад Насриддин Ал-Ханафи Ал-Хасани Ал-Бухори. Тухфат аз-заирин. Перевод, предисловие, комментарии - Х. Тураев. –Ташкент, IFEAC, 2003.-С.10-11.

⁵⁶ Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд Амири Сайийд.// -Бухоро, Бухоро мавжлари, 2006 йил, февраль.-№2.-Б.40-42.

мактубларига Қуръондан кўплаб ояtlар киритади, айрим ўринларда шеърий мисраларга мурожсаат этади. Улар хоннинг ўзиникими ёки бошқа бирон бир ижодкорникими, ҳозирча бизга маълум эмас.⁵⁷ Маълум бўлишича, “Мажмуъайи мактуботи Сайид Ҳайдар Баҳодирхон” - ҳаммаси 963 атрофидаги ҳужжатни ўз ичига олган; 464 варакдан иборат; яхши нусхаси Ўзбекистон Республикаси ФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида 2120/N тартиб рақами билан сақланмоқда. XIX асрнинг биринчи ярмида кўчирилиб, китоб шаклига келтирилган тўплам мазкур амирнинг 10 ийл (1814 – 1824) мобайнида ёзган мактубарини ўз ичига олади.⁵⁸

Мактубларда Бухоро амирининг маъмурий – хўжалик фаолияти, шунингдек, унинг даврида амалда бўлган қонун – қоидалар, ер эгалигининг турлари (суюргол, танҳо, мулки хуррий холис) ҳамда солиқлар (хирож, закот, ушр ва бошқалар) ҳақида муҳим маълумотларни учратамиз. Қуйида мисол тариқасида мактублардан бирини келтирамиз: “Хоқоннинг ҳурматига сазовор бўлган, давлатининг ишончили одами Муҳаммад Ҳакимбий меҳтар билсинларки, якшанба куни сиҳат – саломат Қаршига келиб қўндинк. Инишолло, (келаси) якшанба куни Самарқандга жўнаймиз. Бизга лозим бўлган ва (жанобларига) тайин қилинган нарсаларни олиб, агар Қаршига келолмайдиган бўлсалар, Ўрта чўл ва Хузор Буга орқали ҳузуримизга етиб келсинлар.

Мадрасаи олийга вақф этилган “Хазонайи муфтадийн” отлиғ китобни меҳтардан талаб қилиб олсинлар ва толиби илмларнинг қўлига топширсинглар”.⁵⁹

Амир Ҳайдар саройида шоир Ҳозик, шоир ва тарихчи Мирзо Содик Жондорий (у мунший лавозимида ишлаб, тарихга оид “Футухоти Амири Маъсум (Шоҳмурод) ва Амир Ҳайдар” ва “Тарихи Манзум” асарларини ёзган),

⁵⁷ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tohir-muhamedov-savod-tarixga-oid-hujjat/>

⁵⁸ Мирзаев Б., Мажидов А. Манбашунослик (XVI – XIX асрнинг биринчи ярми). Т.: “Фамус Пресс”, 2022.-Б.51-53.

⁵⁹ Мирзаев Б., Мажидов А. Манбашунослик (XVI – XIX асрнинг биринчи ярми). Т.: “Фамус Пресс”, 2022.-Б.51-53.

тариҳчи олимлардан Мулло Ибодуллоҳ ва Мулло Муҳаммад Шариф (“Тарихи Амир Ҳайдар” асари муаллифи), Муҳаммад Шариф ибн Муҳаммад Нақий (“Тож ат-таворих” асарини 1800 йили ёзган), Мир Зоҳид Хўжа Садр ул Ҳаттоб (“Шиҷоатномаи султони олам” ёхуд “Тарихи Амир Ҳайдар” номли асар муаллифи), Абдулкарим Бухорий (“Ҳурросон, Ҳиндистон, Афғон ва Турон давлатларидағи подшоҳликлар ва мулкларнинг 1747 – 1830 йиллардаги тарихи” асари муаллифи), Мир Ҳусайн ибн Шоҳмурод Мирий (“Махазан ат-тақво” асарини ёзган), Муъин (“Зикри таъдад-и подшоҳон-и ўзбак” асари муаллифи), Муҳаммад Яъқуб Бухорий ибн Амир Дониёл (“Рисола” ва “Гулшан ал-мулк” асарлари муаллифи), сўфий ва қози Ҳумулий (“Тарихи Ҳумулий” асари муаллифи), Мирзо Шамс Бухорий (“Бухоро, Ҳуқанд ва Қошғардаги ҳодисалар баёни” асарини ёзган) каби олимлар ва шоирлар яшаб, ижод этган.⁶⁰

Мухтасар айтганда, Бухоро хукмдори Амир Ҳайдар даврида мумтоз адабиёт, санъат ва илму фан тараққий этди. Бу эса ўз навбатида шоир ва олим хукмдор, тариқат пешвоси, Бухоро адабий муҳити намяндаси бўлган Амир Ҳайдарнинг маданият, адабиёт, тариқат ва санъатга эътиборининг маҳсули эканлигини таъкидлашни истардик.

⁶⁰ Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд Амири Сайид:// -Бухоро, Бухоро мавжлари, 2006 йил, февраль.-№2.-Б.40-42.

**SOHIBQIRON TEMUR SAROYI ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

**Qorayev Sherxon Po'latxonovich,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
dotsenti, sherxonqorayev@gmail.com**

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена литературной среде дворца Амира Темура и творчеству поэтов вокруг Сахибгирана.

Согласно информации, Сахибгирантемур зинал наузустъ ряд поэтических произведений и на своих литературных встречах умел цитировать примеры из стихотворений поэтов того периода.

Можно сказать, что благодаря заслугам Амира Темура развитие науки, литературы и культуры привело к возникновению Тимуридского Возрождения.

Ключевые слова: Дворцовые поэты, турецкий стиль, литературная среда, литературное собрание, «Тузукоти Темур».

ABSTRACT

This scientific article is devoted to the literary environment of Amir Temur's palace and the works of poets around Sahibqiran.

According to the information, Sahibgiran Temur knew a number of poetic works by heart and was able to quote examples from the poems of the poets of the period in his literary meetings.

We can say that due to the services of Amir Temur, the development of science, literature and culture led to the emergence of the Timurid Renaissance.

Keywords: Palace poets, Turkesh style, literary environment, literary meeting, «Tuzukoti Temur».

Mustaqillik davrida **Amir Temur** va temuriylar davri (1336-1862)ning 526 yillik tarixi, madaniyati va adabiyoti borasida akademik Bo'riboy Ahmedov kabi ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar yozilgan: “XIV-asrning 2-yarmi va XV-asr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr bo'ldi. Bu davrda adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog'onaga ko'tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko'plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. Turkiy va forsiy tillarda ijod qiluvchi shoirlar o'rtasida o'zaro aloqa va hamkorlik kengaydi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Badiiy adabiyotning o'sishi bilan uzviy bog'langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, bu sohaga oid ilmiy asarlar yaratildi”.⁶¹ Amir Temur va temuriylar zamnidagi adabiy muhit to'g'risida Abduqodir Hayitmetovning “Temuriylar davri o'zbek adabiyoti” kitobida ham shunday so'z yuritilgan: “Amir Temur nozikta'b inson, go'zallikni chuqur his etadigan, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha maxsus o'rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko'makdosh Alisher Navoiydir. Adabiyot tarixining buyuk bilimdoni, xususan temuriylar tarixini yaxshi bilgan Navoiy o'zining “Majolis un-nafois” tazkirasida bu davrda yetishgan va ijod qilgan ijodkorlarga batafsil to'xtab o'tgan”.⁶² Darvoqe, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining yettinchi majlisiga quyidagi sarlavha qo'yib: “Salotin izom (Ulug' sultonlar) va avlodi vojub ul ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xo'b bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat, o'zlari aytqondek xo'bdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i

⁶¹ Muhammadjonov A. Temur va temuriylar sultanati. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1994.-B.144.

⁶² Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. -B.14.

*matlub va marg 'ubdur", deydi hamda uni "Muluk shajarlarining (Podshohlar daraxtining) bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni: Temur Ko'ragon...", degan ta'rif bilan boshlaydi: "Temur Ko'ragon" – anorallohi burhonahi, garchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'quq'oni ming bayt aytqoncha bor".⁶³ Aniqroq qilib aytganda, garchi Amir Temur she'rlar yozmagan bo'lsa-da, ko'p nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo'lgan, ularning katta qismini yoddan bilgan, ilmiy, adabiy majlislar va qissaxonlik kechalari tashkil etgan.⁶⁴ O'zaro suhbatlarda, **olimlar va shoirlarning majlislarida** Sohibqiron, Navoiy iborasi bilan aytganda, o'z o'rni va o'z vaqtida ("mahal va mavqe'da") she'riy asarlardan ayrim parchalarni, nasriy asarlardagi eslanishga loyiq bo'lgan epizod va syujetlarni, bu asarlarning qahramonlariga oid baytlarni ma'lum bir voqealar munosabati bilan yoddan keltira olgan.⁶⁵ "Majolis un-nafois"dagi keltirilgan lavhadan ma'lum bo'ladiki, she'rni tushunish zavqi, tab'i noziklik, o'z vaqtida jo'yali so'z topa olish salohiyati she'r yoza olishlikdan-da ustun fazilat ekanligi Sohibqiron hayotidan keltirilgan chizgilar orqali yanada ta'sirchanroq ifoda etilgan...⁶⁶ Darhaqiqat, Amir Temur ilm – fanning qadriga yetadigan, uning ravnaqi haqida o'ylaydigan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilar bilan bemalol bahslashib, suhbatlasha oladigan va adabiyotni tushunadigan donishmand olim hukmdor bo'lgan.⁶⁷*

⁶³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchchi jild. T.: G. G'ulom nomidagi NMIO', 2012.-B. 411.

⁶⁴ Qarang: Qoraev Sh.. "Temur-Shahi Islompanoh". // "Nishon tongi", Qarshi. 2018 yil 30-mart. -№12-13(3868)-son.-B.4; Qoraev Sh. Amir Temur ilmiy majlislari / Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. Samarcand, 2018. – B. 94-95; Qoraev Sh. Story nights in the presence of Amir Temur // Mejdunarodny nauchno-prakticheskyy jurnal «Ekonomika i sotsium». Saratov, Rossiya, 2020. -№ 10(77). S. 199-202; Qoraev Sh. Buyuk Sohibqiron huzuridagi kitobxonlik kechalari// "Yangi O'zbekiston", Toshkent. 2021 yil 27 mart. № 62(318) -B.6; Qoraev Sh. Amir Temur she'r yozganmi? // "Sanduvoch", Qarshi. 2021 yil 29 mart.№06(439).-B.6; Qoraev Sh. Sohibqiron ijod ahliga qanday munosabatda bo'lgan?// "Qashqadaryo", Qarshi, 2021 yil 6 aprel. №027 (15763)-son.-B.3; Qoraev Sh. Sohibqiron Amir Temur olyi majlislari va saroy shoiri Lutfullo Nishopuriy. / "Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Toshkent, (2021 yil 18 noyabr.) 2021 yil.-B.100-104.

⁶⁵ Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. –B.14.

⁶⁶ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/olimjon-davlaov-alisher-navoi-va-amir-temur/>

⁶⁷ Ahmad Muhammad Tursun. Dunyonni tebratgan yetti buyuk. T.: Azon kitoblari, 2021.-B.423.

O‘zbek tilining adabiy til maqomiga ko‘tarilishi, arab va fors tillari kabi musulmon Sharq olamida ilm va adab tili sifatida tan olingan tillar bilan bellasha olish salohiyatiga ega bo‘lishi Amir Temur asos solgan davlat olib borgan siyosat tufayli amalga oshdi. Navoiy birinchilardan bo‘lib, temuriylarning o‘zbek xalqi madaniyati rivojiga qo‘shtgan ushbu tarixiy xizmatlarini ilg‘agan va ilmiy jihatdan asoslab bergen.

Amir Temur she’r yozishga rag‘bat bildirmagan bo‘lsa hamki, she’rni nozik tushungan va badiiy so‘z qadriga yetgan. Bu esa, temuriy hukmdorlar tabiatidagi ma’rifatparvarlik, adabiyotsevarlik aynan ulug‘ ajdodlaridan meros fazilat ekanligiga guvohlik beradi”.⁶⁸ Darhaqiqat, “*Amir Temur (yuqorida zikr etganimizdek) she’r yozish yoki nasrda ijod qilish bilan shug‘ullanmasa-da, nazm va nasrni teran tushunadigan, nazm o‘qiganda g‘oyatda ma’nodorlik bilan o‘qiy olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hukmron bo‘lgan, ya’ni, u faqat buyruq bilan rahbarlik qiladigan shoh emas, ma’naviyat bilan suyagi qotgan, o‘z faoliyatida madaniyatni vosita qilib olgan mo‘tabar elboshidir*”.⁶⁹ Sulton Husayn Boyqaro kabi ko‘plab temuriy sultonlar ham ulug‘ bobosidek adabiy majlislarda ketma-ket yaxshi she’r va go‘zal so‘zlar aytganlar. Binobarin, “*Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va san’atni, falsafa va adabiyotni nozikta ’b tushungan, o‘zlari ham bu sohalarda yutuqlarga erishgan sulolani jahon sahnida topish qiyin. Bu sulola vakillari orasida she’r yozmagan, fan-madaniyatga qiziqmagan biror temuriyzoda bo‘lmasa kerak*”.⁷⁰ Hakim Sattoriy ta’biri bilan aytganda, “*Nashr etilgan “Sohibqiron abadiyati” kitobida bobomizning o‘g‘illari – Muhammad Jahongir Mirzo (1356-1376), Umarshayx Mirzo (1356-1394), Mironshoh Mirzo (1366-1408), Shohrux Mirzo (1377-1447) avlodlarini xuddi sinf jurnalidagi o‘quvchilar ro‘yxatidek ketma-ket yozib chiqdim. Dunyo tan olganlari 198 nafar. Ularning har biri qaysidir xizmati bilan o‘z davrida nom qozongan. Aslida gap bu haqda emas.*

⁶⁸ Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur.// - Toshkent, “O‘zbekiston adabiyot va san’ati” gazetasi, 2013 yil 9 aproel.-№14.-B.4.

⁶⁹ G‘oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 2001.-B.11-12.

⁷⁰ <https://elib.buxdu.uz/index.pages/item/12295-2021-05-31-11-32-08>

Gap shundaki, kitobning olti sahifasini egallagan bu Yozuvlar zamirida qanchalar sinoatlar yashiringan? Shu haqda o'ylansa, yurak hapqiradi, vujudni bemisl iftixor hissi chulg'ab oladi. Ana shu muhtashamlikka daxldorlikdan boshing ko'kka yetadi.

To'g'ri, biz keltirgan ma'lumot yangilik emas. Hayratlanarlisi shundaki, tarixda nomi qolgan sulolaning istalgan vakili tarjimai holi bilan tanishsangiz, dilingiz yayraydi. Shunda beixtiyor deylik, dunyoviy adabiyot an'analarini davom ettirib, "Taashshuqnomा" dostonini yaratgan Saydi Ahmad yoki Sharafuddin Ali Yazdiyga homiylik qilib, besh yil davomida "Zafarnoma" asarini yozdirgan, Balx va Sheruz hokimi bo'lgan Ibrohim Sulton (1394-1435) yoxud Hirot tasviri san'at maktabining asoschisi, Firdavsiy "Shohnoma"si mukammal nusxasini tayyorlab, so'zboshi ilova qilgan, viloyatlarni boshqargan, otasi Shohrux hukmronligi davrida moliya vaziri bo'lgan Boysunqur Mirzo (1397-1433) faoliyati zamirida qanday sinoatlar yashiringan, ularning kamolga yetishi qanday kechgan, degan andishaga borasiz.

Xullas, temuriylar qo'lg'a kiritgan muvaffaqiyatlar, ularning shon-shavkati bu tilsim ustida o'ylab ko'rishga da'vat etadi. Albatta, bunday yuksaklikning bosh sababi inson qobiliyatini yuzaga chiqaradigan mu'tadil muhit yaratilganidadir. Bu ishning boshida, shubhasiz, o'z qudrati, talabchanligi, o'rni kelganda, mehri va qahri bilan Sohibqiron Amir Temur turganidadir".⁷¹ Temuriylar sulolasining ro'yxati 193 nafar shahzoda va 300 dan ziyod malikadan iborat ekanining o'zi hayratomuz fakt! Bu sulola jami 488 yil (!) hukmronlik qilgani haqida gapirish uchun esa til ojiz.⁷²

Xo'sh, Sohibqiron Temur she'r yozganmi? Vaholanki, "Temur tuzuklari"da Amir Temurning Amir Husaynga yozgan bayti keltirilgan:

Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir manga,

⁷¹ Sattoriy H. Sohibqiron abadiyati. T.: Sharq NMAK BT, 2016.-B.80.

⁷² Saidov A. Temuriylar renessansi va "Boburnoma" yoki "Sohibqiron yurti" dan chiqqan ulug' zotlar haqida faxriya./ Toshkent, Hurriyat. 2023 yil, 15 fevral.-№6 (1330).-B.4.

*Qildi ersa kimga makr, qaytadir bir kun anga.*⁷³

Ushbu ikki misraning izohiga kelsak, “ya’ni, kim menga makr, hiyla qilsa sabo (tong shamoli) uni yorga (Ollohgaga) yetkazadi. Kim kimga makr qilsa, bir kun o‘ziga qaytadi, Ro‘zi Mahsharda javob beradi.

Bunday sermazmun va serjilo baytni bitish uchun yuksak tafakkur va katta ma’naviy salohiyat sohibi bo‘lishi kerak. Binobarin, Sohibqiron Amir Temur ana shunday ulug‘ hofiza va aql – zakovat sohibi edi”.⁷⁴ Ushbu bayt Sohibqironning qalamiga mansub yoki mansub emasligi bizga ma’lum emas. Bu hali isbotlanmagan. Ammo, Bo‘riboy Ahmedov “Amir Temur o‘gitlari” kitobida uni “Amir Husaynga Amir Temurbek yozgan turkiy bayt”⁷⁵ deb keltirgan. Agarda Sohibqiron aytgan aqalli biror bayt bo‘lganida, Navoiy uni “Majolis un-nafois” nomli tazkirasida keltirgan bo‘lmasmidi? Payon Ravshanovning yozishicha, “Amir Temur va Temuriylar davridagi adabiy hayot haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, gapni Sohibqironning o‘zidan boshlashga to‘g‘ri keladi. Tarixiy asarlarda, jumladan, “Zafarnoma”da Amir Temurga mansub bir necha bayt keltirib o‘tiladi”.⁷⁶ Holbuki, Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda, “Jahon tarixida ham shoh, ham shoir bo‘lgan zotlar u qadar ko‘p emas. Lekin turkiy xalqlar olamida she’r yozmagan shoh kam bo‘lgan. Bu qonimizdagi azaliy she’riyatga, san’atga bo‘lgan ishqdan, go‘zallikka bo‘lgan mayldandir. Saljuqiylar, usmoniylar, temuriylar tarixiga nazar tashlang. Shohlik nasldan naslga qanday meros bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, ilmga, ijodga mehr ham shunday qondan qonga o‘tib kelgan.

Turkiy xalqlar tarixinining biz o‘rganmagan, bizdan pinhon utilgan sahifalari ko‘pdir. Xususan yuksak fazl egasi bo‘lgan shohlarning ulug‘ ishlari, ulug‘ asarlari nazarimizdan chetda bo‘lgan. Buning sababi ayon. (Sobiq ittifoq davrida) Ilmda, san’atda hokim bo‘lgan sinfiylik nazariyasi o‘tmishimizga halol ilmiy nazar bilan

⁷³ “Temur tuzuklari”. T.: O‘zbekiston, 2014.-B.50.

⁷⁴ <https://darakchi.uz/uz/142653>

⁷⁵ “Amir Temur o‘gitlari”. Nashrga tayyorlovchilar: B.Ahmedov, A.Aminov.T.: O‘zbekiston, 2007.-B.6.

⁷⁶ Ravshanov P. Saylanma.Ikkinchchi jild. T.: Yangi asr avlod, 2006.-B.450.

yondoshishga imkon bermadi. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari “biznikilar” va “begonalar” qabilida ikki qutbga taqsim qilindilar. Navoiy bizniki, Husayniy begona; Nodirabegim progressiv, Amiriylar reaksiyon; Ogahiy “yaxshi”, Feruz “yomon” va hokazo. Vaholanki, ular bir madaniyatning vakillari, bir an’ananing davomchilari bo‘lganlar”.⁷⁷ O‘tmishimizda Sohibqiron Temurga nisbatan ham shunday noto‘g‘ri yo‘l tutilib,adolatli, ma’rifatli va adabiyotsevar hukmdor zolim, qonxo‘r, yovuz, savodsiz deb qoralandi. “Haqiqatan ham Temur sultanati deb atalgan buyuk imperiyani yuzaga keltirgan, fan, madaniyat, san’at, me’morchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqlar o‘z zamonasiga nisbatan barq urib rivojlangan mamlakat rahbari savodsiz, omi, ma’rifatdan uzoq odam bo‘lishi mumkinmi? Aksincha, u o‘ta madaniyatli, tafakkur doirasi keng, san’at va adabiyotning nozik xususiyatlarini ham yaxshi tushunadigan, bag‘rikeng, insonparvar, buyuk Shaxs edi. Buni Temur bilan doimo uning safarlarida hamrohlik qilgan tarixchilar, olimlar, xorijiy mamlakatlarning elchilari o‘z esdaliklarida e’tirof etganlar”.⁷⁸ Chunonchi, Asqarali Ahmedovning “Amir Temur jahon tarixida” kitobida ham Temurning ma’rifat, adabiyot va she’riyatni nihoyatda qadrlagani qayd etilgan: “Amir Temur she’rda juda katta ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy ma’no, nafosatni ko‘rgan, sezgan va undan butun umri davomida foydalangan, uning zavqi bilan yashagan. Amir Temur hayotining eng qiyin damlarida she’r unga murakkab masalalarni oson yechishga yordam bergan”.⁷⁹ Binobarin, adabiyotshunos Aftondil Erkinov yozganidek, “O‘z asri, Markaziy Osiyo va insoniyat tarixida tub burilish yasagan Sohibqiron Amir Temur kuchli va qat’iyatli hukmdor edi. Bu qudratli zot o‘z sultanatini ma’rifatsiz tasavvur eta olmas, she’riyatni sevar, shoortabiat edi. Kim bilsin, balki ana shu jihatlar, ma’naviy boylikni qadrlash uni mashhur hukmron bo‘lishiga olib kelgandir”.⁸⁰

⁷⁷ Vohidov E. Tarixiy adulat. (So‘zboshi). //Husayn Boyqaro. Risola.Devon. T.: Sharq NMAK BT, 1995.-B.5.

⁷⁸ G‘oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1991.-B.11.

⁷⁹ Ahmedov A. Amir Temur jahon tarixida. T: “Sharq” NMAK BT , 2001.-B.166.

⁸⁰ Husayn Boyqaro. Risola. Devon. T.: Sharq NMK BT,1995.-B.7.

Sohibqironning “Temur tuzuklari” asari bizgacha yetib kelgan.⁸¹ Turli manbalarda bu asar “Temur tuzuklari” (“Tuzuki Temuriy”), “Temurning aytganlari” (“Malfuzoti Temuriy”) va “Temur haqida xotiralar” (Voqeoti Temuriy”) degan nomlar bilan tilga olinadi.⁸² Kitobning so‘zboshisida birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “*Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan “Tuzuklar”ni o‘qisam, xuddiki o‘zimga qandaydir katta ruhiy kuch – quvvat topgandek bo‘laman. Har bir satri bir umr el – yurt, sultanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o‘y – fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba’zan dardli va iztirobli kechinmalar bilan sug‘orilgan bu asarda qanday teran ma’no mujassam ekanini ma’rifatli, zukko kitobxon yaxshi angraydi, albatta*”.⁸³ “Sohibqironning o‘z qo‘li bilan bitilgan “Temur qissasi” zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda”.⁸⁴ Akademik Akmal Saidovning yozishicha, atoqli rus olimi D.Logofet “Temur tuzuklari”ni o‘rganib, unga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, Amir Temur sultanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergan. Binobarin, mustaqillikning dastlabki yillari – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi davrida Asosiy qonunimizni “Tuzuklar” deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas”.⁸⁵ Ahmad Muhammad Tursun “Dunyoni tebratgan yetti buyuk” kitobida yozishicha, “Uning jangovar ishlarda orttirgan ulkan tajribasi, harbiy yurishlar va harakatlar olib borishdagi o‘ziga xos bo‘lgan tadbir va yutuqlari Sohibqironning o‘zi yozgan “Men – fotih Temur” hamda “Temur tuzuklari” kitoblarida batafsil vasf qilingan”.⁸⁶

Alixonto‘ra Sog‘uniy ham 1958 yili “Temur tuzuklari”ning forscha variantini o‘zbek tiliga mukammal tarjima qilgan. Bo‘riboy Ahmedov esa mazkur tarjima 1967

⁸¹ “Temur tuzuklari”. T.: O‘zbekiston, 2014.-B.184.

⁸² https://aza.uz/uz/posts/temur-tuzuklari-muhim-tarixiy-huquqiy-manba_361102

⁸³ Ko‘rsatilgan asar.-B.8.

⁸⁴ <https://xorazmiy.uz/uz/pages/view/509>

⁸⁵ https://aza.uz/uz/posts/temur-tuzuklari-muhim-tarixiy-huquqiy-manba_361102

⁸⁶ Ahmad Muhammad Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. T.: Azon kitoblari, 2021.-B.425.

yilda Toshkentda amalga oshirilgan, degan.⁸⁷ 1960 yilda ““Temur tuzuklari” tarjimonidan” nomli quyidagi she'rni yozib avlodlariga qoldirib ketgan.

Temurdek jahonda kishi o'tmadi,

Aningdek o'g'ilni ona tug'madi.

Yigirma yetti poytaxt oldi ul,

“Barang‘ar”, “jarang‘ar”, “yasol” qildi ul,

Aning haqida yaxshi so‘z ko‘p erur,

Yomonlikni aytquvchilar ham bo'lur.

Birov yaxshi desa, birov der yomon,

Ulus so‘zidin kim qolibdir omon?

Kishi bo‘lsa har so‘zni u sezgudek,

Kelur xotiriga ko‘p ish ko‘zgudek.

Yozib bu kitob ichra qilmishlarin,

Bayon aylamishdir qomus ishlarin.

“Temur tuzugi” deb atalmish erdi,

Aning so‘zlarin turkcha yozmish erdi.

Biza yetmamishdir asl nusxasi,

Vale yetdi, forschasi, bosmasi.

Aniq bilmadim, kimdir olmish uni,

Qabul etdim, o‘rniga oldim buni.

⁸⁷ Ko‘rsatilgan asar.-B.300.

Tilin turkiy qildim, yuzin oqladim,

Vatan ahliga mangulik saqladim.

O'qir bo'lsalar bu kitob so'zlarin,

Gumondin chiqarg'usidir o'zlarin.

Temur kim edi deb gumon qilmag'ay,

Yomon – yaxshisin u o'qib anglag'ay.

Ming uch yuz dag'i birda sakson edi,

Muharram oyi o'rtalashgan edi.

Buni Sog'uniy nazm etib yozdi ul,

Vatan ahlina tuhfa qilg'izdi ul.

Tug'ilgan kishi bir kun yo'q bo'lur,

Asar qolmasa ani kim yod qilur?

Vafot sakkiz yuz dag'i yetti yil,

Hisobini tarixi hijriya bil.

Ota Sog'uniy nazm etibdir, biling,

Buni o'qig'anda ani eskaring.⁸⁸

Binobarin, Abdurauf Fitratning yozishicha, “Savdo sarmoyasi adabiyoti atalg'an bu adabiyotning birinchi asari Temurlangning o'ziga nisbat berilgan “Tuzuki Temur”dir. Temur xayol qilg'an edikim, uning bolalari tomonidan

⁸⁸ <https://oliymahad.uz/22483>

jahongirlik davom etdiriladir. Shuning uchun o‘zining tajribalarini, tadbirlarini bir kitob shaklida yozib yozdirib bolalarig‘a qoldirdi...

Temuriylar davrida shoир ko‘b. Xonlar, xonzodalar, beklar, bekzodalar hammalari shoир. Bu davrda ishq bilan she’r saroy ahli orasida yuqumli kasal kabi bosib kengaygan”.⁸⁹ Darhaqiqat, Amir Temur hamda adabiyotsevar barcha temuriylar sultonlar atrofida ijod ahli, shoirlar, fozillar bo‘lgan va ular ishtirokida adabiy majlislar o‘tkazilgan.⁹⁰ Bu davrda shoiru shuar, fozilu fuzalolar, ilm ahlini ko‘payganligini Izzat Sulton shunday izohlagan: “*Temur o‘z yurtida dunyoning ko‘p yerlaridan eng qimmatli kapital – ilm va hunar egalarini yiqqan edi. Temur avlodlari o‘z ota-bobosining shu bebaho merosi va mahalliy xalqlar iste’dodi va mehnati zaminida Temurning xayoliga ham kelmagan madaniy taraqqiyotga erishdilar. Samarqand va Hirot shu yangi madaniyatning markazi bo‘lib qoldi. Xuroson va Movarounnahrning boshqa ko‘p katta-kichik shaharlariga ham shu jonsiz va “jonli boylik” tarqalib ketgan, hunar va bilim, she’riyat egalarining ko‘pchiligi viloyatlarning bek va sultonlari saroyida o‘z ijodiy ishlarini davom ettirar edi*”.⁹¹ Alisher Navoiy esa “Muhokamat ul-lug“atayn”da aynan Amir Temur davriga kelib turkigo‘y shoirlar paydo bo‘lganini hamda Sohibqiron surriyodlari ichidan ham ijodkorlar yetishib chiqqanini aytgan: “*Mamlakat arab va sart sultonlaridan turk xonlariga o‘tganidan so‘ng, Xalaguxon zamonidan so‘ngra Sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidan tortib farzandi Shohruk sulton zamonining oxirigacha turk tilida yozuvchi shoirlar, shu jumladan, ul hazrat (Amir Temur)ning avlodlaridan ham xushtab’ podshohlar paydo bo‘ldilar.*

⁸⁹ Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma’naviyat, 2000.-B.41.

⁹⁰ Bu haqda qarang: Qoraev Sh. Avliyolar avliyosi. Qarshi. Nasaf, 2017.-B.168; Qoraev Sh. Navoiy adabiy majlislari. Qarshi.“Qashqadaryo ko‘zgusi OAV”, 2019.-B.144; Qoraev Sh. Navoiy majlislari. T.: “Lesson Press”, 2020.-B.324; Qorayev Sh. Navoiy majlislari (Qayta to’ldirilgan nashr). T.:“Lesson-Press”, 2021.-B.312; Qoraev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari. (Alisher Navoiy qarashlari asosida). T.: Donishmand ziyosi, 2021.-B.272; Qoraev Sh. Temuriylar tazkirasi. Qarshi, Intellekt, 2023.-B.262.

⁹¹ Sulton I. Navoiyning qalb daftari. T. : G*.G‘ulom nomidagi BAN, 1969.-B.34-35.

Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriylar Gadoiy kabi. Lekin forsiy shoirlar qarshisiga chiqa oladigan yolg'iz mavlono Lutfiydan o'zga kishi paydo bo'lmadi.

Podshohlar ichidan ham sulton (Abulqosim) Bobur dan boshqa hech qaysisidan she'riy asar (devon) yuzaga chiqmadi va varaq yuziga naqsh qilarli o'zga narsa qolmadi.⁹² Navoiy haq. Darhaqiqat, "...Shohrux Mirzo, Abubakr Mirzo, Abulqosim Bobur, Boysunqur Mirzo, Xalil Sulton va boshqa shahzodalar adabiyot va san'atga mashg'ul bo'lgani, Temurning turkiy til, milliy tafakkur, milliy ruh, zavq-shavq davlatchilik siyosatida muhim soha bo'lganligi va shu maqsadlarda faoliyat olib borgan ijodkorlarga, xususan, Husayn Boyqaroga faxr ila qarashlari bejiz bo'lmagan".⁹³ Turg'un Fayziev ham "Temuriylar shajarası" kitobida tarixiy va adabiy manbalarga asoslanib, Amir Temur va temuriylar adabiyot ahlini nihoyatda qadrlaganini yozgan.⁹⁴ "Sohibqiron doimo shoirlar davrasida she'rxonlik olib borib, o'z davrining yetuk olimu fuzalolarining bahs – munozarasida o'z donishmandligini namoyon etgan".⁹⁵ Aynan buyuk Sohibqiron o'z faoliyati bilan temuriylar uyg'onish davrini boshlab bergen.⁹⁶

Sohibqiron Temur saroyida yuzlab adiblar, shoirlar va olimlar bo'lgan. Amir Temur davrida yashab, ijod qilgan saroy shoirlardan biri Isomiy Samarqandiydir: "2014 yil Livan davlatining Bayrut shahrida chop etilgan "Zari'a ila tasan: fiasha shi'a" kitobi muallifi alloma Shayxoqa Buzurg ata Tehroniyning yozishchicha, Bayrut kutubxonasida 4999 raqami ostida saqlangan bo'lib, "Devoni Isomiy Samarqandiy" deb nomlanadi: "Shoirning nomi Abdulmalikxon bo'lib, Amir Temur davrida shayx ul-islom lavozimida ishlagan bo'lib, u shoir Bisotiy Samarqandiyning ustozи bo'lib, Isomiy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Isomiy yana forsiy tilda hind podshohlari tarixi haqida "Al-futuhot as-salotin" – "Sultonlar g'alabalari" nomli

⁹² Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. T.: Akademnashr, 2017.-B.81.

⁹³ G'anieva S. Amir Temur va Temuriylar Navoiy nighida/T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 2009 yil. №"8-son.-B. 4.

⁹⁴ Fayziev T. Temuriylar shajarası. T.: Yozuvchi – Xazina, 1995.-B.184.

⁹⁵ <https://www.bukhari.uz/?p=252>

⁹⁶ Rajabova B. Temuriylar renessansi va "Boburnoma". T.: Fan, 2022.-B.12.

masnaviy ham yozib, uni 751 hijriy yili tugatgan ekan. Bu misollardan kelib chiqadiki, nafaqat Xalil Sulton davrida, balki Amir Temur zamonida ham ilm va adabiyot an'analari davom ettirilgan va bu davrda nafaqat xalq orasida, balki saroyning o'zida ham shoir-u ulamolar qimmatli asarlar bitgan. Shayxulislom Abdulmalikxon Isomiy ham bunday ulamolardan biri bo'lib, fiqh va adabiyot sohasida asarlar yozib, forsiy tilda devon va masnaviy yaratgan. U o'z zamonasining asosiy adabiy siymolardan hisoblanib, nafaqat o'z shogirdlari, balki Samarqand adabiy muhitiga katta ta'sir ko'rsatgan.⁹⁷ Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"da "Amir Temur ko'ragon zamoni" shayxulislomi Xoja Abdulmalik Isomiyni "ilmu fazli bilan birga ajoyib ash'ori bor"⁹⁸ deb ta'riflab, quyidagi she'rini keltirgan (Mazmuni):

Sendan xeshlar xabari yiroq emas, Isomiy,

Bo'lma bugun firoqdan qaddi o'roq oqibat.⁹⁹

Amir Temur saroyida yashagan shoirlar qadim Turkiston va Oltin O'rda adabiy maktabi an'analari suyanib, o'zbek adabiyotini yangi yuksak pog'onalarga ko'tara boshlaganlar. "V.V. Bartold ham Amir Temurning o'z saroyidan forsigo 'y muarrixlar bilan bir qatorda turkiy (uyg'ur) baxshi(shoir)lariga o'rin bergenligini, ularning Amir Temur tarixini she'riy yo'l bilan bitganliklarini ta'kidlab o'tadi".¹⁰⁰

Darig'o, ul shahonshohi sohibqiron,

Shahi tojbaxshi mamoliksiton.

Darig'o, ulkim andoq yana shahriyor,

Jahon ichida ko'rmagay ro'zgor.

⁹⁷ Shukurov F. Temuriylar davrida yashab ijod etgan shoirlar. samxofil.uz

⁹⁸ Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. ("Tazkirat ush-shuaro"dan). T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1981.-B.131.

⁹⁹ Ko'rsatilgan asar.-B.131.

¹⁰⁰ Ravshanov P. Saylanma.Ikkinci jild. T.: Yangi asr avlod, 2006.-B.450.

Darig‘o, ulkim andoq shahi pokdin,

Falak ko‘rmagay, balki ro‘yi zamin.

Darig‘o, ul shahanshohi bo taxti toj,

Ki shar’ ila din topdi andin rivoj.

Darig‘o, ulkim andoq yana bu spehr,

*Aningdek shahi ko‘rmagay mohi mehr.*¹⁰¹

Amir Temur atrofida ko‘p olimlar, shoirlar va fozil zotlar yig‘ilganini yuqorida aytib o‘tdik. Herman Vamberi mana shu jamoaga mansub shoirlardan biri Ahmad Kirmoniy “Temurnoma” asarini yozganidan xabar bergan. Bu asarda buyuk Amirning faoliyati badiiy tasvirlarda bayon etiladi.

Amir Temur saroyi doirasidagi fazl ahli orasida arab shoiri Jaziriy ham yuksak mavqe‘ga ega bo‘lgan.¹⁰² Herman Vamberining yozishchicha, Sohibqiron shoir Ahmad Kirmoniy bilan yaqin munosabatda bo‘lgan: “*Shoir Ahmad Kirmoniy Temur tarixini – “Temurnoma”ni yozgan, ulug‘vor Sohibqiron bilan juda yaqin munosabatda edi, ba’zan hattoki unga qarshi ayrim hajviyalarni yozishga ham jur’at etar edi. Naql qilinishchicha, bir marta Temur Kirmoniy va zamonasining boshqa adiblari bilan birga hammomda ekanlar, so‘z odamlarning shaxsiy xosiyatlari haqida kechgan. Ammo Temur shoirga savol berib, “Agar meni sotsalar, qancha baho qo‘yar eding?” deb so‘ragan. Shoir Kirmoniy javob berib: “Yigirma besh dinor”, degan. Temur e’tiroz bildirib, “Mening belimdagi kamarimning o‘zi yigirma besh dinor turadi”, degan. Kirmoniy esa “Men shu kamarni hisoblayapman. Chunki sening o‘zing bir pul ham turmaysan”, deb javob bergan ekan. Hozirgi (19 asrdagi) Osiyoning bir necha yarim nodon podshohlari bu jur’at uchun (Amir Nasrullo Hoziqni qatl etgani kabi) shoirni qatl etgan bo‘lur edilar!*

¹⁰¹ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: “Sharq” NMK BT, 1997.-B.297.

¹⁰² Qayumov A. Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi, 1996.-B.3.

Temurning himoya va muruvvatidan foydalangan ajnabiy ulamo va shoirlarining soni ham ahamiyatsiz emas edi. Balo dashtidan Movarounnahrga o'zi olib kelganlarning hammasiga Sohibqiron juvomardona in'om va ehson qilur edi. Binobarin, O'rta Osiyoning ma'naviy taraqqiyoti, bilvosita bo'lmasa-da, har holda Amir Temur xizmati va himmatiga chambarchas holda kechdi".¹⁰³

Sohibqiron davrida forsiy she'riyatda jahonga mashhur Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Salmon Sovajiy kabilar, turkiy she'riyatda Sayyid Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Durbek kabilar ijod qilganlar va nom chiqarganlar. Lekin shoirlarning Sohibqiron bilan o'zaro munosabatlari haqida bizga juda kam ma'lumot yetib kelgan. Uning atrofida doimo mashhur saroy qissaxonlari bo'lgani ma'lum.¹⁰⁴ Nosir Muhammad ta'biri bilan aytganda, "Fors adabiyotining yorqin yulduzlarida biri – Xoja Hofiz Sheroziy (Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad, 1326-1389) nomi va ijodi o'zbek o'quvchilariga yaxshi tanish.

Tabiiyki, Sohibqiron Amir Temur Hofiz ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgan. Ayniqsa, uning "Agar on turki Sherozi ba dast orad dili moro, Ba xoli hinduyash baxsham Samarcandu Buxororo" (Agar ko'nglimni rom etsa o'shal Sheroz jononi, qaro xoliga baxsh etgum Samarcandu Buxoroni") deb boshlanadigan g'azali ko'pchilik orasida mashhur bo'lib, (o'rta asrlarda) turli hofizxonlik davralarda tez – tez tilga olingan.

1387 yili Fors yerlari va poytaxt shahar Sherozni egallagan Sohibqiron shaharning mashhur shaxslari qatori Hofiz Sheroziyni ham suhbatga chaqirishni buyuradi".¹⁰⁵ Faxriddin Ali Safiy "Latoyif ut-tavoyif"da Amir Temur "hamisha

¹⁰³ Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1990.-B.57.

¹⁰⁴ Qoraev Sh. Pri dvore pravitelya diskussii poouqralis.// «Norodnoe slovo», Tashkent, 9 aprelya 2019 goda, -№ 70 (7269).-B.4; Qoraev Sh. Amir Temur huzuridagi qissaxonlik kechalari / Proceeding of Global of Contemporary Study –A Multidisciplinary International Scientific Conference Hosted from Pune, M. S. India, November 7 th, 2020.- P. 176-178; Qoraev Sh. Amir Temur huzurida kimlar qissaxonlik qilgan? // "Qashqadaryo", Qarshi, www.qashqadaryoyogz.uz, 2020 yil 15 dekabr. № 092 (15732)-son. -B. 3; Qoraev Sh. Amir Temur "oliy majislari" / "Fan tarixi rivojiga akademik Abdulahad Rahimjonovich Muhammadijonovning qo'shgan hissasi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı ilmiy maqolalar to'plami. 1-qism. Toshkent, 2021.-B. 373-376; Qoraev Sh. O'rta asr Sharq hukmdorlari huzuridagi qissaxonlik kechalari (Sohibqiron Amir Temur faoliyati misolida). // "Filologik tadqiqot" ilmiy jurnalı, Toshkent. 2021 yil, №4-son.-B.31-36.

¹⁰⁵ Muhammad N. Sirli zarvaraqlar. T.O'zbekiston, 2016.-B.128.

g‘ariblikda, g‘oyat faqirona kun kechirgan, suhbatdoshi faqir odamlar bo‘lgan Hofiz Sheraziyni keltirish uchun uning huzuriga Sohibqironga eng yaqin bo‘lgan shoir, Xoja Hofizning muridi Sayyid Zaynul Obiddin Ruknobodiyni yuborganini”¹⁰⁶ aytgan. Binobarin, Hofiz va Amir Temur o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan latifaomuz suhbat adabiyot ahli orasida keng yoyilgan.¹⁰⁷ Tazkiranavis Mavlono Mutribiy Samarqandiyning yozishicha, “Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheraziyning hazrat Sohibqironiy (Amir Temur Ko‘ragoniy) mulozamatiga yetishgani voqeasi tafsilotini maxdumiy Hasanxoja Nisoriy shunday hikoya qilgan edilar: “Sohibqiron (Amir Temur Ko‘ragon) Sheroz viloyatini fath etganlarida, xoja Hofiz Sheraziyni huzurlariga chaqirib kelishni buyurganlar”. Aytib o‘tay, Hofizdan ko‘ngillari qolgani sababli bunday buyruq bergenlari hammangizga ma’lum, chunki, Sohibqironning xotirlarida Hofizga nisbatan g‘ubor paydo bo‘lishi boisi haqidagi qissa mashhur bo‘lib, talay kitoblarda bu to‘g‘rida hikoya qilingan. Xullas chaqirganlaridan so‘ng so‘rabdilar: - Menga qarachi, Hofiz! Axir men shu merosiy shaharlarim – Samarqand va Buxoroni obod qilish uchun qilich chopib, yurt olib, jondan kechib yuribman, shuni bilasanmi o‘zi? Sen esa, shu ishlarimni bir pulga chiqarib, kayfiyatimni buzib, Samarqandu Buxoroni bir dona hind xolga baxshida qilib o‘tiribsan-a? Mana yozganing (bayt):

Agar on turki sheroziy ba dast orad dili moro,

Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo.

(Mazmuni: Agar ko‘nglimni shod etsa, o‘shal Sheroz jononi, Qora xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.)

Xoja Hofiz o‘sha kezlari qiyinchilik va kambag‘allikda kun kechirarkanlar, shu ahvoliga ishora qilib, debdilar: - Qiblayi olam, ana shu ochiq qo‘lligim sabab bo‘lib, man shunday gadolik holiga tushib qolganman.

¹⁰⁶ Faxriddin Ali Safiy. Latofatnomha. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1996.-B.64-65.

¹⁰⁷ Qayumov A. Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi, 1996.-B.17-18..

Hazrat Sohibqironga uning bu gapi nihoyatda maqbul tushibdi va debdilar: - Hofiz, senga to 'rt narsa in'om qilaman, lekin hech birining nomini aytmayman va birdaniga ham bermayman, olishing uchun quyidagi shartlarni bajarishing kerak bo 'ladi. Seni lison ul-g 'ayb deydilar. Shu bahonada buni ham sinab ko 'rmoqchiman va bermoqchi bo 'lgan in'omlarimni bir-bir topishingni so 'rayman. Qaysini topsang mendan o 'shanisini olaverasan. Topa olmaganing esa ushlab qolinadi.

Xoja Hofiz bo 'lsa badiha tarzida ushbularni aytibdilar:

Ey shoh, ki dastor nihodi ba saram,

Mahzuz shud az jomayi zarbaft baram.

Chun kosa, ba zeri joma, kisa ast tahe,

Andoz daru zi lutf yak musht zaram.

(Mazmuni: *Ey shoh, salla bilan boshim etding osmon, Zar chopingindan huzur topdi tanda jon. Lek cho 'ntagidir gado kosasidek bo 'sh, Bir siqim zar tashla unga qilib ehson.*)¹⁰⁸

Hazrat Sohibqiron bularni eshitib: - Libosni topding, ammo, bermoqchi bo 'lgan ot va egar-jabduqlarimni topolmading, - debdilar.

Xoja Hofiz esa: - Agar Sohibqiron pul inoyat qilsalar, ot va egar-jabduq bozorda ham topiladi, - deb javob beribdilar.

Sohibqiron ushbu nazmdagiga o 'xhash fikrni bildiribdilar:

Burda budi va dovot omadi bud,

Chun tu kaj boxti kase che kunad?"

¹⁰⁸ Mutribiy Samarqandiy. Hind safari. (Tarjima, muqaddima, so'nggi so'z va izohlar muallifi I.Bekjon). T.: 2005.-B.23-27.

(Mazmuni: *Yutay, deb turganding, baxting chopgandi, qara, Ammo tole'ing past ekan, yo 'qdir bunga chora.*)¹⁰⁹

Binobarin, “Amir Temur bilan Hofiz Sheroziy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan tarixiy muloqotga keladigan bo‘lsak, u Sohibqironningadolatpeshaligi, adabiyot va ilm ahlini qanchalar ulug‘laganini ko‘rsatuvchi yorqin bir misoldir. Shu sababli bu voqeа solnomachilar e’tiboridan chetda qolmagan va tarix zarvaraqlariga muhrlangan. Ko‘plab jahon shoirlari bu voqeа haqida she’r ham yozganlar”.¹¹⁰ Binobarin, ana shu misolning o‘zi ham Amir Temurning she’riy iqtidorga egaligi, she’riyatga qiziqishi, adabiyot ahliga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatganidan darak beradi.¹¹¹

Bundan tashqari, marhum adabiyotshunos Hakim Homidiy va taniqli tojik adabiyotshunosi Otaxon Sayfullaev fikriga ko‘ra, Amir Temur shoir Shayx Kamol Xo‘jandiyning hayotida muhim rol o‘ynagan.¹¹² Chunonchi, *mashhur shoir Mavlono Ahmad at-Termiziy Sirojiddin Bisotiy Samarqandiy Amir Temurga bag‘ishlab qasidalar yozgan, Mavlono Mansur al-Qog‘oniy Xiyaliyyi Buxoriy, “Temurnoma” asari muallifi shoir Ahmad Qarmoniy, Lutfullo Nishopuriy, qasidanavis Shayx Kamol Xo‘jandiylarni*¹¹³ Sohibqiron hurmat qilib, iltifot ko‘rsatgan. Albatta, Sohibqiron Shayx Kamol bilan bir necha bor suhbatlashgan. “Temurnoma”da yozilishicha, “(Amir Temur) qo‘ylarini hammasini ming oltunga sotub, pullarini beliga bog‘lab, bozorlarni sayr qilib yurur erdi, bir yerda qalandar ma‘raka qilib so‘zlayur. Qo‘lida qog‘oz, she’r yozilgan. Ayturkim, shul yozuvni qadriga kim yetib, ming oltung‘a olg‘ay? Amir Sohibqiron himmati jo ‘shga kelib, ming oltunni qalandar qo‘liga berib oldi. Qalandar hu deb yo‘liga ketaberdi. Sohibqiron chaqirib so‘radikim, otingiz nimadur? Aydi: otim qog‘ozda yozilgandur.

¹⁰⁹ Ko‘rsatilgan asar.-B.23-27.

¹¹⁰ Muhammad N. Sirli zarvaraqlar.T.: O‘zbekiston, 2016.-B.137.

¹¹¹ <https://darakchi.uz/uz/142653>

¹¹² Ahmedov A. Amir Temur jahon tarixida. T.: “Sharq” NMAK BT, 2001. -B.165.

¹¹³ Axadov Sh, Egamov T. Amir Temur va Temuriylar davrining intellektual salohiyati. Samarqand , 2004. -B.70-72.

Keyin Sohibqiron ochib o‘qub ko‘rsalar, Xoja Kamol Xo‘jandiy o‘shal qalandar ekan. She’rlari forsiy ruboiydur:

On kaski tamomi dahr bigirft naxust,

Zavraqi, zamona sitami zulm bishast.

Jamshidu Sulaymonu Skandar guzasht,

***Barxez miyon bandaki to navbati tu ast”.*¹¹⁴**

(Mazmuni: Birinchi bor butun dunyoni egallagan, Kemasi sitam va zulm zamonasini yo‘q qilgan. Jamshid, Sulaymon va Skandar o‘tib ketdilar, Tur, ey o‘g‘il, endi sening navbating keldi.)

Balki, bu ruboiy bilan Shayx Kamol Xo‘jandiy yosh Temurning kelajagini oldindan ko‘ra olgandir. Shundan ma’lum bo‘ladiki, Amir Temurning jahongir bo‘lishini birinchilar qatori mashhur shoir va faylasuf Kamol Xo‘jandiy bashorat qilgan.¹¹⁵ “Tarixi tomm”da yozilishicha, “*Sohibqiron davronida nash‘u namo topgan hidoyat siyratli, buzruglar va dinparvar ulamo, fazilatgustar fozillar safida Hazrati Amir Sayyid Ali Hamadoniy, ulamodan Amir Sayyid Sharif Jurjoniy, Mavlono Sa’diddin Taftazoniy, shoirlardan Mavlono Bisotiy Samarqandiy, Xoja Ismat Buxoriy, Mavlono Lutfullo Nishopuriylar*”¹¹⁶ bo‘lganlar. Lutfullo Nishopuriy saroy shoirlaridan biri bo‘lgan.¹¹⁷ “Temurnoma”da yozilishicha, saroy shoiri Xoja Ismat Buxoriy Sohibqiron vafoti munosabati bilan marsiya yozgan: “Muborak jasadlarini Saroymulkxonim bulg‘or ichra oldurub, Samarqandg‘a olib kelib, janoza o‘qub daxmaga dafn ayladilar. Motamlarida barcha ulamou fuzalolar yig‘lab uch

¹¹⁴ Salohiddin Toshkandi. Temurnoma. T.: Cho‘pon, 1990.-B.72.

¹¹⁵ Qayumov A. Amir Temur qissalari. T.: Yozuvchi, 1996.-B.12-14.

¹¹⁶ Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T.: Ma’naviyat, 1998.-B.22-26.

¹¹⁷ Qoraev Sh. Sohibqiron Amir Temur oliy majlislari va saroy shoiri Lutfullo Nishopuriy/ “Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o‘rganish va targ‘ib qilishning umumbashariy ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Temuriylar davlat muzeyi, (Toshkent, 18 oktyabr 2019 yil). 12 – kitob. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2024. -B.92-99.

kungacha umaro, beklar yosh o‘rniga qon yig‘ladilar. (Saroy shoiri) Xoja Ismatullo (Buxoriy) bu marsiyani aytib, to‘ralar birla axiylar yig‘lar erdi. G‘azal:

Buz chodiring falakkim, sulton o‘ldi g‘oyib,

Tun ichra erdi chun mohi tobon bo‘ldi g‘oyib.

Yoruq jahon quyoshi, islom elini boshi,

Din erdi ko‘p taloshi, dayyan o‘ldi g‘oyib.

Olamni qildi darbar, Sohibqiron Skandar,

Soniy demish eronlar, yoron o‘ldi g‘oyib.

Din erdi justujo‘sí, shar‘i erdi guftigo‘sí,

Millatini obro‘sí, burhon o‘ldi g‘oyib.

No‘shirvondek odil, ham olim erdi, fozil,

Har ishga aqli komil, farzon o‘ldi g‘oyib.

Davlatda kim Sulaymon, fitratda chun Falotun,

Hikmatda erdi go‘yo Luqmon o‘ldi g‘oyib.

Ehsonda misli Hotam, shavkatda erdi chun Jam,

Zo‘rliqda ham chu Rustam pahlavon o‘ldi g‘oyib.

G‘ayratda misli arslon, dasht ichra yoki qoplon,

Bahri nahang-u sa’bon, shujo’bon o‘ldi g‘oyib.

Farzandi ahli no‘yon, To‘rag‘ay bahodur o‘g‘li,

Sayyid Amir Temurxon Ko‘ragon o‘ldi g‘oyib.¹¹⁸

¹¹⁸ Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. T.: Cho‘pon, 1990.-B.327.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida Sohibqironning so‘nggi kunlari shunday tasvirlangan: “Odatga ko‘ra, arkoni davlat va hazrat (Sohibqiron)ning yaqinlari har biri (Allohga) iltijo qilib turardilar. Shu orada (Allohnинг) quli bo‘lmish hazrat Sohibqiron avval bir barmog‘ini, so‘ngra ikki barmog‘ini ko‘tardi va ko‘zi bilan imlab, bu nimani anglatishini so‘radi. Amirlardan ba’zilari bunga javob topmoqqa urindilar va: “Hazrat (Sohibqiron tuzalish uchun) bir yoki ikki iloj qoldi, (deb ishorat qildilar)”, deyishdi. (Hazrat Sohibqiron): “Yo‘q, men unday demoqchimasdim”, deb, ushbu bayt mazmunida yotgan so‘zlarni aytdi.¹¹⁹ (She’r, mazmuni):

Jahondor dedi, bu o‘lmoq demakdir,

Chunki yashamoq men uchun topmish yakun.

Aylanuvchi falak mening izmimdamas,

Men gardish bermadim oyga, quyoshga.

Men bir siqim tuproqdurman va bir tomchi suyuq

Dastlab bir tar moddadan yaratilganman.

Parvardigorning parvarishlari bilan

Ul joyga yetkazdim ishning yakunin.

Oldinu keyin sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nimaiki bo‘lsa,

Hammasinga mening qo‘lim yetardi.

Mening ayvonim Kayvonga bo‘y cho‘zgan bo‘lsa ham,

O‘sha (ajal yetgan) kun o‘lim (sharbatin) totmog‘im lozimdir,

Shunday bir paytda podshohlik qildimki –

¹¹⁹ Nizomiddin Shomiya. Zafarnoma. T.: O‘zbekiston, 1996.-B.399-400.

U payt ham dilim kuchli edi, ham tanim.

Endi notavonlik paydo bo‘lgan ekan,

*Boshqa saroyga ko‘ch tortmoq lozim.*¹²⁰

Amir Temur saroyining shoirlaridan biri bo‘lgan Mavlono Muhammad Zohid Sohibqiron Temur vafoti ta’rixini ta’miya iborati bilan nazm qilgan. Ta’rix:

Temur Ko‘ragon zi naxli shohi bar dod,

Dar oxiri umr jon ba chashmi tar dod.

Zohid payi tarixi vafotash omad,

Bigrift sarupoi qazoro sar dod.

(Mazmuni: *Temur Ko‘ragon shohlik naxlidan hosil berdi, Umri oxirida ko‘z yosh to‘kib jon berdi. Vafoti tarixini aytish uchun Zohid keldi, Qazo oyoq qo‘lini tutib, umri tugadi*)¹²¹.

Shoir va Temur saroyi xonandasi, bastakor Abdulqodir Marog‘iy Amir Temurning saroy bazmlari va adabiy majlislarda ishtirok etgan: “*Amir Temur zabit etilgan mamlakatlardan madaniyat, adabiyot va san’at arboblarini Samarcandga jo‘natib turgan. Ular orasida Navoiy “Munshaot”ning 91-maktubida*¹²² *zikr etgan Abdulqodir (Marog‘iy) (1353-1435) nihoyatda mashhur edi. Ozarbayjonning yirik madaniyat markazi bo‘lgan Marog‘adan chiqqan Abdulqodir uyg‘onish davriga mos tarzda xilma-xil bilim va iste’dodga ega: shoir, xonanda, qori, musiqa ijrochisi hamda nazariyotchisi edi. Samarcandda va keyin Hirotda ekanida uning ijodiy faoliyati ayniqsa sermahsul bo‘ldi. Bu yerda Abdulqodir Marog‘iy poytaxt musiqachilariga murabbiylik, saroy bazmlari va alohida majislardagi musiqa*

¹²⁰ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: O‘zbekiston, 1996.-B.399-400.

¹²¹ Sharafuddin Roqimiyy. Tarixi tomm. T.: Ma’naviyat, 1998.-B.25-26.

¹²² Alisher Navoiy. Munshaot. T.: Ma’naviyat, 2001.-B.83.

dasturiga tashkilotchilik qilardi.”¹²³ Fors va turkiy tillarda she'r yozgan Xoja Abdulqodir Marog'iy Amir Temur va Temuriylar saroyida qirq yil mobaynida xizmat qilgan. Fasih Ahmad Xavofiy o'zining “Mujmali Fasihiy”sida yozishicha, Abdulqodir Go'yanda 1392 yilda Bag'dod shahri fath etilgach, Sulton Ahmad saroyidan Samarqandga yuborilgan.¹²⁴ San'atkorning Amir Temur saroyida xizmat qilganligi “Zafarnoma”da qayd etilgan: “(Konigilda) Yaxshi unluq mug‘anniylar un tortib, g‘azalu naqsh aytur erdilar. Va turku, mo‘g‘ulu, xitoyu, arabu, ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nima aytur erdi.

Ul jumladin Xoja Abdulqodirkim, benaziri olam erdi, qo‘buz va yatug‘on va udni shodliq mizrobi bila chala boshladi”.¹²⁵

Xulosa qilib aytganda, Herman Vamberi “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarida temuriy shoirlar, Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy-adabiy taraqqiyot haqida shunday yozgan: “*Shohrux Mirzo turkiy va forsiy she'rlar yozgan. U ishq va muhabbatga doir adabiyotga ham o'z kuchini sinab ko'rdi. Astoydil sevgan rafiqasi Gavharshod haqidagi juda hissiyotli ba'zi ta'birlarini Hirot xalqi hozir ham hikoya qilib yuradi. Umarshayxning o'g'li Sulton Iskandar Sheroziy, ham turkcha, ham forschha she'rlar yozgan. Xalil Mirzo esa turkcha she'rlardan iborat buyuk bir devon qoldirdi. Mashhur shoir Hoja Ismat Buxoriy buning nomini katta hurmat bilan tilga oladi. Ilmi hay'at bilan riyoziyotda iste'dodi bo'lgan Ulug'bek esa, bundan fanlardan tashqari nafis adabiyot, rassomlik, musiqa kabi sohalar bilan jiddiy shug'ullangan edi. Otasining tirikligidayoq vafot etgan Boysunqur har vaqt shoirlar, xattotlar, rassomlar, musiqashunoslar bilan hamsuhbat edi. Uning ko'p ichib mast bo'lishi tufayli yosh o'lib ketgan o'g'li Bobur mirzodan ko'pgina turkiy fardlar qolmishdir. Mironshoh o'g'li Said Ahmad Mirzoning “Latofatnama” nomli devoni va masnaviysi qolgan. Bulardan tashqari, mazkur ro'yxatga Hindistonda buyuk mo'g'ul (Boburiylar) sulolasining asoschisi*

¹²³ Temur va Ulug'bek davri tarixi. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.-B.228.

¹²⁴ Fasih Ahmad Xavofiy. Mujmali Fasihiy. / “Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida” kitobidan.T.:O'qituvchi, 1996.-B.212..

¹²⁵ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: “Sharq” NMK BT, 1997.-B.291.

Bobur mirzoni kiritish mumkin. O'zining “Boburnoma” esdaliklarida yozgan narsalar bilan u bizning ko'z oldimizda hayron qolarli darajada ham shoir, ham siyosiy arbob, faylasuf sifatida gavdalanadi.

Amir Temur va Temuriylar davridagi madaniyatga havas qo'ymoq– Andaluziya ummaviylari davlatining porloq davri bilan Arabistondag'i abbosiylarning ilk hukmronlik zamoni istisno etganda–islom olamining boshqa birorta joyida sodir bo'lmadi. Garchi temuriylar taraqqiyot davriga Eronda mo'g'il hukmdorlari vaqtidagi fikriy uyg'onishning davomi nazari bilan qaramoq lozim bo'lsa ham, ammo fanlar va san'at Marog'a, Tabriz, Sultoniy saroylarida hech qachon Hirot va Samarqanddagi kabi ko'p va turli shakllarda porlamadi.¹²⁶ Temurshunos Hakim Sattoriy o'zining “Sohibqiron abadiyati” asarida yozganidek, “Umumiy manzara esa jami Amir Temur va temuriylarning ilm-fan, madaniyat, san'at homiysi ekanligida ko'rindi. Eng murosasiz muarrixlar ham ularni yaratuvchi, bunyodkor, ijodkor sifatida tilga oladi. Tasavvur qilish mumkinki, saroyda o'ziga xos tarbiya muhiti shakllangan, shahzodalar kamoloti uchun eng yetuk olimlar, tajribali lashkarboshilar, oqil va donishmand shaxslar safarbar qilingan. Shu tufayli ular barkamol bo'lib voyaga yetgan. Aksariyati shoir, olim va san'at ahli sifatida tarixda qoldi. Ta'bir joiz bo'lsa, temuriylar davrini ulkan bo'stonga qiyoslash mumkin”.¹²⁷

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar sultanati. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririysi, 1994.-B.144.
2. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. -Toshkent: Fan, 1996. –B.14.

¹²⁶Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. T.: G'.G'ulom nomidagi ASN,1990.-B.72.

¹²⁷Hakim Sattoriy. Sohibqiron abadiyati. T.: “Sharq” NMAK BT, 2016.-B.93.

- 3.Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.To‘qqizinchı jild. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIO‘, 2012.-B. 411.
- 4.Qorayev Sh.. “Temur-Shahi Islompanoh”. // “Nishon tongi”, -Qarshi: 2018 yil 30-mart. -№12-13(3868)-son.-B.4.
- 5.Qorayev Sh. Amir Temur ilmiy majlislari / Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. –Samarqand: 2018. – B. 94-98.
- 6.Qorayev Sh. Story nights in the presence of Amir Temur // Mejdunarodnyu nauchno-prakticheskuyu jurnal «Ekonomika i sotsium». –Saratov: Rossiya, 2020. - № 10(77). -P. 199-202.
7. Qorayev Sh. Buyuk Sohibqiron huzuridagi kitobxonlik kechalari// “Yangi O‘zbekiston”, -Toshkent: 2021 yil 27 mart. № 62(318) -B.6.
- 8.Qorayev Sh. Amir Temur she’r yozganmi? // “Sanduvoch”, -Qarshi: 2021 yil 29 mart.№06(439).-B.6.
- 9.Qorayev Sh. Sohibqiron ijod ahliga qanday munosabatda bo‘lgan?// “Qashqadaryo”, -Qarshi: 2021 yil 6 aprel. №027 (15763)-son.-B.3.
- 10.Qorayev Sh. Sohibqiron Amir Temur oliy majlislari va saroy shoiri Lutfullo Nishopuriy. / “Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o‘rganish va targ‘ib qilishning umumbashariy ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi. –Toshkent: (2021 yil 18 noyabr.) 2024 yil.-B.100-104.
- 11.Ahmad Muhammad Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. -Toshkent: Azon kitoblari, 2021.-B.423.
12. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur.// - Toshkent: “O‘zbekiston adabiyot va san’ati” gazetasi, 2013 yil 9 aproel.-№14.-B.4.
-

13. G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi ASN, 2001.-B.11-12.
 14. <https://elib.buxdu.uz/index.pages/item/12295-2021-05-31-11-32-08>
 15. Sattoriy H. Sohibqiron abadiyati. -Toshkent: Sharq NMAK BT, 2016.-B.80.
 16. Saidov A. Temuriylar renessansi va "Boburnoma" yoki "Sohibqiron yurti"dan chiqqan ulug' zotlar haqida faxriya./ -Toshkent: Hurriyat. 2023 yil, 15 fevral.-№6 (1330).-B.4.
 17. "Temur tuzuklari". -Toshkent: O'zbekiston, 2014.-B.50.
 18. <https://darakchi.uz/uz/142653>
 19. "Amir Temur o'gitlari". Nashrga tayyorlovchilar: B.Ahmedov, A.Aminov.- Toshkent: O'zbekiston, 2007.-B.6.
 20. Ravshanov P. Saylanma.Ikkinchi jild. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.-B.450.
 21. Vohidov E. Tarixiy adolat. (So'zboshi). //Husayn Boyqaro. Risola.Devon. - Toshkent: Sharq NMAK BT, 1995.-B.5.
 22. G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1991.-B.11.
 23. Ahmedov A. Amir Temur jahon tarixida. -Toshkent: "Sharq" NMAK BT , 2001.-B.166.
 24. Husayn Boyqaro. Risola. Devon. -Toshkent: Sharq NMK BT, 1995.-B.7.
 25. https://aza.uz/uz/posts/temur-tuzuklari-muhim-tarixiy-huquqiy-manba_361102
 26. <https://oliymahad.uz/22483>
 27. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000.-B.41.
-

- 28.Sulton I. Navoiyning qalb daftari. T. : G‘.G‘ulom nomidagi BAN, 1969.-B.34-35.
 - 29.Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn. -Toshkent: Akademnashr, 2017.-B.81.
 - 30.G‘anieva S. Amir Temur va Temuriylar Navoiy nigohida// -Toshkent: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”. 2009 yil. №”8-son.-B. 4.
 - 31.Fayziev T. Temuriylar shajarası. -Toshkent: Yozuvchi – Xazina, 1995.-B.184.
 - 32.Shukurov F. Temuriylar davrida yashab ijod etgan shoirlar. samxorfil.uz
 - 33.Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. (“Tazkirat ush-shuaro”dan).-Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1981.-B.131.
 - 34.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -Toshkent: “Sharq” NMK BT, 1997.-B.297.
 - 35.Qayumov A. Amir Temur qissalari. -Toshkent: Yozuvchi, 1996.-B.3.
 - 36.Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1990.-B.57.
 - 37.Mutribiy Samarqandiy. Hind safari. (Tarjima, muqaddima, so‘nggi so‘z va izohlar muallifi I.Bekjon). -Toshkent: 2005.-B.23-27.
 - 38.Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. -Toshkent: Cho‘lpon, 1990.-B.72.
-

**ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МАНБАЛАРИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
ШЕЪРИЯТ КЕЧАЛАРИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ
ЁРИТИЛИШИ**

**(Бўрибой Аҳмедовнинг “Давлатшоҳ Самарқандий” асари маълумотлари
асосида)**

**Шерхон ҚОРАЕВ,
Қарши шаҳридаги Халқаро инновацион университети
доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори.**

Ўзбек адабиёти тарихида Ҳусайн Бойқаро ҳузурида ўтказилган олий мажлислар (Хурсонда адабий мажлислар ана шундай ном билан аталган-муаллиф) каби шоирлар сultonни Алишер Навоий даргоҳида ҳам худди шундай шеърият кечалари ташкил этилган. Бинобарин, Навоийнинг адабиёт аҳлига кўрсатган ғамхўрлигининг самараси ўлароқ, Мовароуннаҳр ва Хурсоннинг зиёлилари унинг атрофида тўпланганлар.¹²⁸ Узоқ-яқиндан келган шоирлар эса Хондамир таъбири билан айтганда, Навоийнинг шеърий мажлисларини безата бошлидилар. “Маҳбуб ул –қулуб”да Навоий ўзи ташкил этган ана шундай мажлисларни тилга олган: “*Гоҳо иззат ва маъмурлик бўстонида мажлис қурдим. Улуғ кишиларни ва юқори мансаб эгаларини ҳурмат ва таъзим юзасидан меҳмон қилдим ва баъзан шодлик bogida ziёфат тузиб, хонанда ва созандаларнинг базму тароналаридан баҳраманд бўлдим*”.¹²⁹ Адабиётшунос М.Имомназаров “Буюк сиймолар, алломалар” китобидаги Алишер Навоийга бағищланган мақолада адабий анжуманларни маърифий сұхбатлар деб атаган: “Алишер Навоий ўз ҳузурига тез – тез шеър, илм ва санъат аҳлини чорлаб, маърифий сұхбатлар уюштириб турар, ёш истеъдодларни тарбия қилиб, уларга

¹²⁸ Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкирату-ш-шуаро. – Хўжанд, Ношир, 2015.-Б.453-465.

¹²⁹ Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.-Б.20-24.

шароит яратарди. Хондамир, Беҳзод, Восифий ва ўнлаб бошқа истеъдод эгалари шулар жумласидандир”.

Алишер Навоий хузуридаги бундай кечаларга қатнашиш ҳаммага ҳам насиб этмаган: “*Олимларнинг улуғлари қачонки, унинг олий дараражадаги йигинларида қатнашиши имкониятини қўлга киритишса, унинг самимий қалби сирлари сахифаларидан фойдали марваридлар йиғишар, фозилларнинг машҳурлари қачонки, ул ҳазрат ўтирган муборак гиламнинг бир четида ўтириши шарафига эга бўлишиса, нозик фикрлар ва нафис сўзлар гавҳарларини теришишарди*”.¹³⁰ Давлатшоҳ Самарқандий ҳам юқоридаги фикрларни тасдиқлаган ҳолда “*фозилларнинг мақсади унинг олий мажлисига етишишидир. Унинг ҳамсуҳбатлари хуштаъб, фозил кишилардордир. Унинг мақбул хотири аҳли дилдан бошқасини истамас, оғир табиатлилар унинг назарига енгилтак бўлиб кўринар, балки ноаҳиллар унинг латиф мажлисларига киролмасдилар*”,¹³¹ деб таъкидлаган. Давлатшоҳ Самарқандий ҳақ. Ўз даврининг зиёлилари, адабиёт аҳли Навоий хузуридаги йигинларда қатнашишга ҳаракат қилишган. Адабиётшунос Атоуллоҳ Ҳусайнин ҳам ўзи яратган янги шеърий санъатни, яъни “Анинг ҳар мисраи била қўшсалар, ўшал шеърдан бир байт ҳосил бўлур, лекин маъно ва қофияга халал бермайдиган” усул (шеърий санъат)ни Навоий назаридан ўтказиш ниятида эди. “Мундоқ бир санъатни эътибор қилиш қўпдан бери хотиримга айланиб юрар, аммо они айтиш йўли бандага келмас эрдиким, ҳазрати худовандгор (Навоий) мажлисига эришмак навбати етти ва яқинлик пайдо бўлди. Ул фикрни изҳор эттим. Сўзим тутагач, ўшул билан ул ҳазрат давоту қалам тиладилар ва бадиҳатан бир рубоий айттилар:

Rӯи тузи руҳи осмоний хуштар,

¹³⁰ Фиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Форс тилидан К. Рахимов таржимаси. –Тошкент: Ф.Ғулом номидаги НМИУ, 2015.-Б.33.

¹³¹ Қаранг: Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. –Тошкент: Фан, 1967.-Б.79-80., Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. («Тазкират уш-шуаро»дан). Форс – тожик тилидан Б.Аҳмедов таржимаси.-Тошкент: Ф.Ғулом номидаги АСН, 1981.-Б.188-197.

*Қадди тузи сарви бўстоний хуштар,
Лаъли тузи оби зиндагоний хуштар,
Нутқат зи ҳаёти жсовидоний хуштар.*

(Таржимаси: Сенинг юзинг осмон юзида (қуёшидан) яхшироқ, Қаддинг бўстон сарвидан яхшироқ. Лаълинг ҳаёт сувидан яхшироқ; Нутқинг абадий ҳаётдан яхшироқ.)

Аксари замона фозилларию атоқлиғ хуштаъблардан бўлмиш мажлис аҳли лол қолдилар ва таажжуб бармоғин тишлариға олдилар”.¹³²

Навоий хонадонидаги олий мажлисларга Хуросоннинг улуғ зотлари, етук шоирлар, таниқли зиёлилар қатнашганлар. Султон Ҳусайн Бойқаро ҳам бундай адабий кечаларда иштирок этган. Ғиёсиддин Хондамирнинг “Холосат ул-ахбор” асари маълумотларига асосланиб, Алишер Навоий мажлиси надим (суҳбатдош)лари номларини келтириб ўтсак, унинг олий йиғинларида **Абдураҳмон Жомий**дек шоирлар, фозиллар ва турли касб эгаларидан иборат бўлган зиёлилар қатнашган. Зиёлилардан “**Мавлоно Муҳаммад Муъин** табиб ана шундай машхур инсонлар жумласидандир. Ул олижаноб амир Алишернинг илтифот ва эътибори туфайли унинг олий мажлисларига йўл топиб, яқин маҳрамига айланган. **Мавлоно Юсуф Бадеий**нинг таъби ва зеҳнининг нуқсонизлиги билан маълум, доимо олижаноб, султон ҳазратларининг яқин дўсти амир Алишер мулизаматида кун кечирган”.¹³³ **Мир Сарбараҳна лақабли саййид Шамсуддин Муҳаммад Андижонийки**, феълининг хушлиги, сўзларининг мулойимлиги, фаҳмининг тезлиги ҳамда зеҳнининг ўткирлиги билан замон фозиллари ва давроннинг зийрак кишилари орасида тамоман ажралиб турган. Ҳаммавақт сўзлари ширин ва маъноли, ҳикоятлари гўзал, суҳбатлари ажойиб ва ғаройибdir. Ҳаётининг бошларида

¹³² Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси.-Тошкент: F.Фулом номидаги АСН, 1981.-Б.49.

¹³³ Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Фулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

кўп вақт Мовароуннаҳр мамлакатида илм толиблари орасида кун кечирган. Ҳиротга келганидан кейин ҳидоятли амир Алишер (Навоий)нинг инояти ва тарбияти туфайли боши Фурқадондан юқори бўлган.¹³⁴

Навоийнинг устоз ва дўстларидан “*Паҳлавон Муҳаммад Абу Саид* сухбатлари завқли, нишоналари ажойиб, мақташга лойик ахлоқининг ва мақбул хулқининг ортиқлиги шубҳадан холи ва тенгсиз (бўлган). Ҳамиша олиҳазрат хоқон (Султон Ҳусайн Бойқаро) мажлисларида ва олижаноб султон ҳазратлари яқин дўсти (Алишер Навоий)нинг йигинларида сўзамоллик билан машғул (бўлган), соф таъблиқ ва тугал идроклик одам, баъзан яхши шеърлар ва ёқимли муаммолар ҳам битган”.¹³⁵

Навоийнинг устозларидан “*Мавлоно Бурҳонуддин Атоуллоҳ* хулқининг яхшилиги, фазилатининг кўплиги, таъбининг бенуқсонлиги, фаҳму фаросатининг тезлиги билан замондошлари орасида мумтоз (бўлган). Табиати ул жаноб (Мирхонд)нинг табиатидан устун бўлгани учун олиҳазрат амир Алишер (Навоий) унинг сўзларини тинглаган ва ҳазиломуз ва мутобиали гапларни муборакбаён тилларига олардилар”.¹³⁶

Мавлоно Кутбиддин Одам “вакту замоннинг Жолинуси, давру давроннинг Буқроти эди, олиймақом амир Алишер (Навоий)нинг зўр ғамхўрлиги ва эътибори орқасида шон-шуҳрат чўққисига қадам қўйди”.¹³⁷

“Хулосот ул-ахбор”га кўра, “олижаноб, нақобатпаноҳ амир жамол ул-миллат ва-д-дин *Атоуллоҳ*ким, диний ва яқиний илмлар бўйича зўр камолот ҳосил қилган, шарофатли ҳадис илмини таҳқиқ қилишда шак-шубҳасиз Хуросон диёрида унга teng келадиган йўқдир.

¹³⁴ Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Гулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

¹³⁵ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹³⁶ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹³⁷ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

Олижаноб амирга бағишлиб, ҳазрати хайрулбашар амир Алишернинг хислатлари ҳақида “Равзат ул-аҳбоб” номли китоб ёзганким, бундайини ҳали бирон киши ёзмаган бўлиши керак. Дарёдил амир Алишер одил подшоҳ Султон Ҳусайн ҳукмронлигининг бошларидан то шу кунгача улуғ ва баланд мартабалик ул жаноб ҳақида кўп ғамхўрликлар қилдиким, узоқ ва яқин, турку тожик бундан ҳайрат бармоғини тишлаб турмоқдалар”.¹³⁸

Амир Бурҳонуддин Атоуллоҳ “салим таъби гулзорининг яхши ҳидлари ва мустақим зеҳнидан эсган мушкиншиор шаббода жон димоғини муаттар қилғувчидир. Касбу камолотини оширишда ниҳоятда жидду жаҳд кўрсатиб, 902 (1497) йили бир неча ой мобайнида олижаноб, султон ҳазратлари яқин дўстининг **йиғилишларида ваъз айтди** ва ул жаноб амир Алишер (Навоий) унинг қўлинин олиб, ўзини ўша ифодатмаобнинг мухлислари сафига қўшди”.

Адабий мажлис надимларидан “*Мир Камолиддин Ҳусайн* фазилати ва донишмандлиги, айниқса тасаввуф илмида машҳур ва маъруф бўлгани учун кўп йиллардан бери ҳидоятли амирнинг тамоми иноят ва илтифотига сазовор (бўлиб келган).¹³⁹ Алишер Навоий мулозимларидан *Амир Иброҳим Машҳадий ва Амир Шамсуддин Муҳаммад Ибн Амир Юсуфлар* амирнинг тарбияти ва мурувватига сазовор бўлиб, хонақоҳ ва мадрасаларда дарс билан машғул бўлганлар ҳамда адабий кечаларда ҳам иштирок этганлар. Мажлис аҳлидан “*Амир Иҳтиёруддин Ҳасан* таъбининг бенуқсонлиги, фахму фаросатининг ўткирлиги, ахлоқу одобининг яхшилиги билан тенгқурларидан ажралиб турган. Хол-аҳволи фиқҳ ва илоҳиёт ҳамда иншо илми билан зийнатланган, лавҳига олиҳазрат амир Алишернинг мадҳ қилиш, унга ҳамду сано айтиш ёзилган”.¹⁴⁰

¹³⁸ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹³⁹ Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Фулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

¹⁴⁰ Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Фулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

Ўз даври донишмандларидан “*Амир Муртазо*” истеъмолдаги тамоми илмлардан баҳраманд, ҳикмат ва риёзиёт фанлари бўйича эса тенги йўқ олим бўлиб, шеърият кечаларига келиб турган. *Сайид Ризууддин* эса “олийҳазрат амир Алишернинг файзга тўла илтифоти билан ўсиб, мажлисларда қатнашган. Мажлис аҳлидан бўлган *Амир Низомуддин Маҳҳадий* эса фазилатпаноҳ амирнинг Ихлосия мадрасаси ҳамда Халосия хонақоҳида таълим олган. *Мавлоно Камолиддин Ҳусайн Воъиз* “маъқул ва маҳсус барчасидан тўла нафланган ва баҳраманддир. Унинг балоғатоётлик ҳамда фасоҳатсифатлик китоблари кўп ва беҳисоб бўлиб, уларнинг кўпи олиймақом Амир Алишер (Навоий)нинг атоқли номи билан зийнатланган. Амир Алишернинг иноят ва илтифоти ул жанобнинг ҳол саҳифасига ҳаммавақт тушиб турган”.¹⁴¹ Мавлоно Камолиддин Ҳусайн Воъиз Навоий ҳузуридаги адабий анжуманларда ҳам иштирок этган.

Мавлоно Фасихуддин Мухаммад Низомийга “қадимга дастурга биноан яна олий йиғинларда ваъз айтишга рухсат бердилар. Ул жаноб буни мамнуният билан қабул қилди ва ҳар куни султон ҳазратлари яқин дўсти (Навоий)нинг остонасига бориб турдилар ва диний масалаларни таҳқиқ қилиш билан банд бўлдилар. Алишер Навоий мажлиси надимларидан бири бўлган “*Мавлоно Дарвишали табиобга* нисбатан илтифот ва иноятлари, кўп мурувват ва сийлашлари ҳад-ҳисобсиз (бўлган). Мавлоно Дарвишали муаммо фанида ҳам маҳорат эгаси (бўлган).¹⁴² У доимо Навоийнинг муаммо ечиш мажлисларига иштирок этиб келади.

Навоийнинг дўстларидан бўлган “*Амир Низомиддин Шайх Аҳмад Сұҳайлий*” олижаноблиги, баланд мартабалилиги, зеҳнининг соғлиги, таъбининг латифлиги билан машҳур (бўлган), доимо фасоҳатли байтлар ва балоғат асарлик шеърлар ёзиб турган. Унинг қасидалари, ғазаллари ва девони

¹⁴¹ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁴² Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

машхур (бўлган), маснуъот ва макнунотлари халқ оғзида мазкур (бўлган).¹⁴³ Йигитлигидан то шу кунларгача олийҳазрат Амир Алишер (Навоий) билан унинг ўртасида биродарлик ва яқин сұхбатдошлиқ муносабатлари мавжуд бўлиб, Суҳайлий доимо Алишер Навоий мажлисларига қатнашиб келади.

Адабий мажлисларда доимо иштирок этиб келган “*Амир Камолуддин Ҳусайн Али Жалойир* фаҳму фаросатининг тезлиги, таъбининг хушлиги билан сифатланган, яхши хулқи ва одоби билан машхур (бўлган). Ажойиб қасида ёзиб, унга рангин маъноларни киритган. Амир Алишер (Навоий) кўп меҳрибонлигидан уни фарзанд деб атаган”.¹⁴⁴ У доимо адабий мажлисларда қатнашиб, ўз қасидаларини ўқиган. *Мавлоно Абдулла Жомий* “замоннинг йирик шоирлари, ҳамма даврнинг машхур фозиллари жумласидан (бўлган), азиз вақтининг кўп қисмини ёқимли маснавийлар ёзишга сарфлаган. Абдулла Хотиф Маснавийгўй шоирлар сultonининг йиғилишларида ҳам қатнашиб келган”.¹⁴⁵

“Хулосат ул-ахбор”да ёзилишича, “*Мавлоно Осафий* соғлом зеҳнининг соғлиги, мустақим таъбининг зукколиги билан замонанинг тамоми шоирлари ҳамда баланд мартабали фозилларидан мумтоз (бўлган). Кўп вақтлардан бери олиҳазрат амир Алишернинг хос мулозимлари қаторида туради, мушоираларида ҳам иштирок этиб келган”.¹⁴⁶ *Мавлоно Сайфийнинг* талайгина хос маъонийлари ҳамда рангин шеърлари бор. Кўп вақт Ҳиротда сокин ва олишон Амир Алишернинг инъому эҳсонларидан баҳраманд бўлиб, олий мажлисларида ўз шеърларини ўқиб келган.¹⁴⁷ Мажлис надимларидан “*Мавлоно Низом Астрободий* замон қасидагўйларининг етакчиси, олиҳазрат

¹⁴³ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁴⁴ Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Гулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

¹⁴⁵ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁴⁶ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁴⁷ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

амир Алишер (Навоий) мадхига ажойиб қасидаларни назм ипига тизган ва шеърларини мажлис аҳли ҳукмига ҳавола этган”.¹⁴⁸ **Мавлоно Оҳийнинг** “равон байтлари ва покиза шеърлари кўп (бўлган). Шоир ҳам Алишер Навоий инъомларидан баҳраманд бўлиб, адабий йигинларига қатнашиб келган”.¹⁴⁹ **Мавлоно Шаҳоб ва Мавлоно Асирийлар** ўз муаммолари билан Алишер Навоийнинг муаммо ечиш мажлисларида қатнашиб, қобилиятларини намоён этишган. **Мавлоно Шамсиддин Муҳаммад Бадахший** “бағоят хушсуҳбат, ширин сўз, хушчақчақ, дарвишваш, хуш хулқлик, латиф таъб ва фозил киши (бўлган). Кўпроқ муаммо фанида катта маҳоратга эга бўлиб, қарийб 30 йилдан бўён бахту саодатга чўмиб, олиҳазрат Амир Алишер (Навоий)нинг мулозаматида кун кечирган”.¹⁵⁰ **Мавлоно Шайх Абдулла Комиб** “қарийб 45 йилдан бери олиҳазрат Амир Алишер (Навоий) хизматида (бўлган) ва ул ҳазратнинг сухбат ва дўстлигидан тўла баҳраманд бўлган, доимо олий мажлисда машҳур фозиллар ва зарифлар сафида (турган). **Мавлоно Низомиддин Абдулҳай Табиб** “кўп вақтини олиҳазрат Амир Алишер (Навоий) хузурида ўтказган. **Мавлоно Шамсуддин Муҳаммад Нигорон** “кўп муддат ва узок замонлардан бери ёрдамини аямайдиган Амир Алишер (Навоий)га ихлос қўйган бўлиб, унинг мулозаматида кун кечирган. Ул жаноб барча зарур илмларни мутолаа қилиб, доимо улуғ олимлар ва ҳурматли шоирлар қаторида мажлис пешқадамларидан бири бўлган”.¹⁵¹ **Мавлоно Камолуддин Шоҳ Ҳусайннинг** “хол-аҳволи чехраси фазилат ва билим билан ораста, камчилик ва нуқсонлардан ҳоли (бўлган). Ақлу ҳушини йиғишириб олгандан кейин Мавлоно Шамсуддин Муҳаммад Бадахший воситачилиги билан олийҳазрат Амир Алишер (Навоий)нинг мулозаматига этишган ва таъбининг соғлиги,

¹⁴⁸ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁴⁹ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁵⁰ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁵¹ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

зехнининг ўткирлиги туфайли унинг илтифот ва иноятига манзур бўлган. Ул ҳазрат Амир Алишер (Навоий)нинг маҳсус ходим (мажлис надим) лари қаторида турган”.¹⁵²

Алишер Навоий олий мажлиси надимларидан “*Мавлоно Фасихуддин Соҳибдоро*, феъл-автори ва хулқининг яхшилиги, таъбининг мулоҳимлиги, зехнининг тозалиги билан олийҳазрат Амир Алишер (Навоий) мулоҳизмларидан мумтози (бўлган). Ажойиб қасидалар назм қилишда, муаммолар айтишда балоғатли ва тенги йўқ (бўлган). (Олий мажлисларда) Надимлик шевасини ҳамда суҳбат қуришни яхши билган”.¹⁵³

Алишер Навоий мажлисларида янги шеърлар, ғазаллар, қасидалар ўқишидан ташқари, хонандалар томонидан Ҳусайнӣ, Жомий, Навоий шеърлари билан айтиладиган қўшиқлар ижро қилинган. Хонанда ва созанда аҳлининг кўпчилиги ҳамиша Алишер Навоийнинг мулоҳзаматида бўлиб, адабий кечаларида хизмат қилганлар. “Холосат ул-ахбор”га қўра, “*Хофиз Қозоқ* ёши улғайиб, оқу қорани ажратадиган бўлиб қолганда, Алишер Навоий хизматига кирган ва унинг диққат-эътибори орқасидан қонун чалишда тенги йўқ кишига айланган. Яхши овози бор (бўлган). (Мажлисларда) Каттаю кичик унинг сози ва овозини эшитиб, қўп хушҳол бўлганлар”.¹⁵⁴ *Устод Сайд Аҳмад* “хушчақчақ, хушсуҳбат ва ширин сўз киши бўлиб, ғижжакни яхши чалган”.¹⁵⁵ *Устод Шоҳқули* “ҳам ғижжакчи бўлган. Султон Ҳусайн хизматида мартабаси баланд бўлиб, ёшлигига олийҳазрат Амир Алишер Навоий хизматида бўлган ва ул соҳиб фарсатнинг ишорати билан уд ва бошқа мусиқа асбобларини машқ қилган, қисқа вақт ичида буни тўла эгаллаб олган. Чунончи, бир куй тасниф этдиким, пешрави пуркордир. Унинг созандалик ва

¹⁵² Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Гулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

¹⁵³ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁵⁴ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁵⁵ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

хонандалик шухрати оламнинг теварак-атрофига ёйилган. У Навоий олий мажлисларида ҳам уд, қўбиз ва ғижжакни ғоят усталик билан чалган”.¹⁵⁶

Устод Ҳусайн “болалигидан то йигитлиги бошларигача султон ҳазратларининг яқин дўсти Амир Алишер (Навоий)нинг остонасида бўлди ва ул ҳазратнинг кўрсатмасига биноан, уд чалиш билан машғул бўлди ва қисқа вақт ичидаги фанда тўла маҳорат ҳосил қилди. Удни яхши чалган, овози уд овозига ниҳоятда мос бўлган”.¹⁵⁷ Алишер Навоий бадиий кечаларида хизмат қилиб келган. **Устод Шайхий Ноий** “ёшлигидан Амир Алишер (Навоий)нинг хизматига етишиб, олий мажлисларига иштирок этиб келган”.¹⁵⁸ **Қози Масъуд Қумий** эса “Ироқи Ажам улуғларидан эди. Мансур Ҳоқон замонида туғилиб-ўсган ватани Қумдан Ҳиротга келиб, Амир Низомиддин Алишер (Навоий) хизматларини ихтиёр қилган. Ашъор назмида маҳоратли бўлгани учун мансур ҳоқон (Султон Ҳусайн Бойқаро) ўзининг аҳволини назм ипига теришни унга ҳаволо қилди. Хожа бу борада икки мингга яқин байтни баён тизимиға киритди. “Юсуф ва Зулайҳо”, “Мунозараи шамс ва қамар”, “Тиф ва қалам” қиссалари ҳам унинг манзумалари жумласидандир. Манави матлаъ қози Масъуд Қумийнинг ғазаллар девонидан жой олган. Байт:

Сенсиз йиглайвериб уйқу элтадир,

*Туш қўрибманким мени сув элтадир”.*¹⁵⁹

Алишер Навоий “Соқийнома”нинг XXI бобидан бошлаб, мажлисининг марҳум ва барҳаёт надим-дўстлари ҳақида сўз юритган. XXII, XXIII, XXIV, XXV боблари **Жомий**, XXVI боби **Сайид Ҳасан**, XXVI боби эса **Мухаммад Паҳлавон** хотирасига бағищланган. XXIX-XXXI бобларда эса шоир марҳум

¹⁵⁶ Кўрсатилган асар.-Б.58-79.

¹⁵⁷ Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов.-Тошкент: F.Фулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

¹⁵⁸ Хондамир. Хулосат ул-ахбор. Навоий замондошлари хотирасида. Т. F.Фулом номидаги АСН, 1985.-Б.58-79.

¹⁵⁹ Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. Т.: Ўзбекистон, 2013.-Б.1077.

ҳамсухбатлари **Пири Муаммоий, Хожа Камол, Мир Сайдларни хотирлайди.**
У шунингдек “Соқийнома”да мажлисида иштирок этиб келаётган надим - дўстларини тилга олган:

*Соқиё дўстлигни кўргузгил,
Дўст кони қадаҳи еткүзгил.
Ким кирап дўстларим ёдимга,
Ўт солур хотири ношодимга...
Бириси Пири Муаммоий эди,
Ким ҳарам бодия паймойи эди.
Яна бири нағмазани соҳибҳол,
Ҳам анинг ҳамқадами Хожа Камол.
Мир Садр ўзни тутуб аҳли вифоқ,
Лек кўп эрди бадеъида нифоқ.
Ёр Танбал эди соғу бегаши,
Зоти хуш, ҳайъати хуш, нуктаси хуш.
Яна бир Олим Сабзаворий эди,
Ким маоний дуру гуфтори эди.
Ҳар бир ўз таврида бешибху назир,
Бордилар борча – не айлай тадбир...
Ким агар бордилар андоқ асҳоб,
Яна жамъи ҳам эрурлар аҳбоб.
Бириси Мир Атоий янглиғ,
Бири Дарвеш Фаноий янглиғ.
Ул бири илм синехри уза меҳр,
Бу бири фазл қуёшида синехр.
Ихтиёр улки, эрур нозук табъ,
Лутф майдони аро чобук табъ.
Осафий улки, не назм этса рақам,
Қиймати мулки Сулаймондур кам.*

*Яна бир келди Бинойки фунун,
Касбида айламади манъи жунун.
Яна бир дарду гамим Огоҳи,
Ҳамдамим, Ёри Зиёратгоҳи.
Яна бир Маишҳадий – ул даҳрда ток,
Пок таҳриру каримул-ахлоқ.
Бир Шафеъидуру ул пок сифот,
Ким муаммода чиқармишидур от.
Бириси шороби жоми таҳқиқи,
Мунису раҳбару гамхору рафиқ.
Яна Девонаи Котибки, хаёл,
Тушса, ҳар гамга қилур дағъи малол.
Яна ҳам бир нечадурлар гоҳ-гоҳ,
Лутф ила барчадин ўлсун огоҳ.
Ўзгасин қилмадим ондин мазкур,
Ким маҗолисда эрурлар мастур.
Гар алар тутти эса дашти адам,
Шукр, бу хайл эрурлар ҳамдам.¹⁶⁰*

“Бобурнома”да ҳам Султон Ҳусайн Бойқаро ва Алишер Навоий адабий мажлислари иштирокчилари зикр этилган:

1.Бадиузвазмон Мирзо, Музaffer Ҳусайн Мирзо, Шоҳгариб Мирзо, Муҳаммад Ҳусайн Мирзо, Фариудун Ҳусайн Мирзо, Иброҳим Ҳусайн Мирзо, Муҳаммад Мўмин Мирзо (ва боиқа шаҳзодалар);

2.Абдураҳмон Жомий, Сайид Бадр (ракқос), Шайхимбек Суҳайлий, Ҳасан Али Жалойир, Хожса Абдулла Марворид, Сайид Ҳасан Ўзлоқчи;

3. Мир Сарбараҳна, Камолиддин Ҳусайн Гозургоҳий, Мир Муртоз, Мулло Масъуд Шервоний, Мулло Абдулгафур Лорий, Мир Жамолиддин Муҳаддис;

¹⁶⁰ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Тўртингчи том. Т. Бадиий адабиёт нашриёти, 1965.-Б.435-437.

4. *Мир Атоулло Машиқадий, Қози Ихтиёр, Мұхаммад Мир Юсуф, Ҳусайн Али Туғайлий, Осафий, Биноий;*

5. *Сайфий Бухорий, Абдулло Ҳотиғий, Мир Ҳусайн Муаммоий, Мир Мұхаммад Бадаҳшій, Юсуф Бадиий, Оҳий;*

6. *Мұхаммад Солиҳ, Шоҳ Ҳусайн Комиӣ, Ҳилолиӣ, Аҳлиӣ, Султон Али Машиқадий, Беҳзод;*

7. *Шоҳ Музаффар, Қул Мұхаммад Удий, Шайхий Ноий, Шоҳқулий Гижжакий, Ҳусайн Удий, Ғулом Шодий, Мир Азу, Паҳлавон Мұхаммад (ва боиқа шоирлар ва санъат аҳли).¹⁶¹*

Адабий мажлисларнинг асосий хусусиятларидан бири бу албатта унда биринчи навбатда мушоиралар, шеърхонликларни ташкил қилингандыгидир. “Ўтмиш адабий жараённанда мушоиралар мұхим ўрин тутади, яна ҳам аниқроғи, ўтмишида адабий жараён күпроқ мушоира(шеър мажлиси, шоирлар анжумани) шаклида кечган. Мушоираларда шоирлар ўз асарларини тақдим этиши, улар ҳақидаги ўзгалар фикрини билиши, шунингдек, боиқа шоирлар билан ижодий фикр алмашиши, ҳамкорлик қилиши имконига эга бўлганлар. Мумтоз адабиётимиздаги бир қатор жсанрлар, айрим шеър санъатларининг юзага келиши бевосита мушоиралар билан бояланади: уларнинг бир қисми мушоира иштирокчиларининг бир –бирларига жавоб айтиши(тазмин, тахмис), боиқа бир қисми шеърий мусобақа (муаммо, чистон, бадиҳа) руҳи билан боялиқ ҳолда вужудга келган. Мушоиралар дастлаб санъат ва адабиётга меҳр қўйган подишо саройларида, ижод аҳлига ҳомийлик қилган бадавлат кишилар хонадонларида ўтказилган. Ҳусусан, Ҳусайн Бойқаро саройи ва Навоий хонадонида ўтказиб туринган мушоиралар давр адабиётни тараққиётининг мұхим омилларидан бўлди”.¹⁶²

¹⁶¹ Захириддин Мұхаммад Бобур. Бобурнома. Т.: Юлдузча, 1990.-Б.146-165.

¹⁶² Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.-Тошкент: Академнашр, 2010.-Б.210.

Албатта Навоий ҳузуридаги сұхбатлар (мажлисларни айрим ўринларда ана шундай деб ҳам айтишган) да олиму адиблар ва шоирлар янги асарлари тақдимоти үтказилиб, муҳокама қилинганды, шоирлар султони маслаҳатларига кулоқ тутилған: “..*Ва ўттуз йилдин ортуқ ва қирқ йилга яқиндурким, Хуросон мулкиким, фазлу камол аҳлига олам мамалокининг мисри муazzами ва саводи аъзамидур, бу мулкнинг жамиъ назм аҳли шуаройи ширин каломи ва фусаҳойи вожибул иҳтироми ҳар не, ҳар маъни билаким, авроқ юзига оройши ва ҳар алфоз билаким ажсо изорига намойши берибдурлар, бу фақир(Навоий) сұхбатига еткурубдурлар ва бу заиф оллинда ўткарибдурлар ва ҳақ ва ислоҳ илтимосин қилибдурлар ва хотирға келген нұктаки айтилибдур, инсоғ юзидин мусаллам тутубдурлар ва гар баъзи ибо қилибдурлар далойил била аларға хотир нишон қилибдур, андин сўнгра қабул қилиб, ўзларин шокир ва мамнун билибдурлар*”.¹⁶³

Зайниддин Восифийнинг “Бадое ул – воқое”сида келтирилған қуйидаги воқеадан Навоий ҳузуридаги адабий мажлис мазмуни маълум бўлади.

“*Mir(Навоий) овоз бердилар:*

-Азизлар киринглар. Ҳеч эшиитмаган ва хаёлингизга келмаган мақолатлардан эшиитинглар!

Ҳамма жим бўлди. Mir Ҳофиз Гиёсиiddин Деҳдорга деди:

-Лофу даъво қилдинг. Энди изҳорини қил!

Ҳофиз аввал қуръондан ашара ўқиди. Мажлис аҳлиниң ҳушини олди. Кейин газал ўқиди. Ашула бошлади – дўсту душмани унинг овозига офаринлар ўқиди. “Амир Ҳамза” қиссасини бошлади. Кейин ўзи айтган бир достонни ўқиди ва мажлис аҳли ҳуший йўқолди. Уни тугатиб “Абомуслим” қиссасини ўқиди – ҳаммани сеҳрлаб қўйди. Мажлис охирида “Дороб” қиссасини бошлади. Бөгбон билан унинг гуломи шу ерда туришган эди. Уларнинг тақлиидини қилиб

¹⁶³ Алишер Навоий. Муҳокамату-л-лугатайн. Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини. – Тошкент: Академнашр, 2017.-Б.79.

ҳаммани қулдирди, баъзиларга шундай таъсир қилдики, кулавериб юмалаб қолдилар...

Ҳар ким ҳар илмдан баҳс қилди. Буларга ҳам жавоб қилди. Ҳаммадан голиб келди... Кейин Мирнинг буйруғи билан ўн беш қўй келтирдилар. Бошқа керакли асбоблар ҳам керагича ҳозирланди. Ҳофиз таббоҳлик қилди. Овқати ҳаммага ёқиб тушиди.¹⁶⁴

Албата “Амир Алишер (Навоий)нинг адаб аҳлига ҳомийлик қилиши, барча учун илм масканлари эшигини очиб қўйганлиги натижаси ўлароқ, бутун Мовароуннаҳр, Хурросон илм шайдолари, талабадан тортиб, донишмандгача унинг атрофида жам бўлдилар. Узок-яқиндан тўпланган шоирлар унинг мажлисларини безата бошладилар”.¹⁶⁵

Зайниддин Восифий ҳам Навоийнинг адабий мажлисларида иштирок этган: “Олий мажлис (Навоий хонадонидаги ииғинлар назарда тутимоқдамуаллиф)га кириб бордик. Мажлис аҳли ва ҳазрати Мир(Навоий) ўз надимлари билан ҳозир экан. Жаноби Мир биз томон қарадилар. Фақирга (Восифий)га ишора қилиб, номини айтмай ўқилган муаммони еча (Восифий) оладиган дўстимиз шу кишини, дедилар. Мавлоно Соҳибдоро: бали, ўша маҳдум деб жавоб бердилар. Мавлоно Муҳаммад Бадахший сұхбатга аралашибилар: ”Маҳдумлар, худавандигоро, муаммо ечишида Сиздан ўтадигани йўқ-ку?...” Мир дедилар: “Мен унинг муаммо ечишини кўзидан билдим. Зоро, унинг фикрлари кўзларида зоҳир бўлиб турибди. – Кейин шу муаммони ўқидилар:

Боғро бин аз ҳазон бефаррү, сарв аз жо шуда,

Булбулаши барҳам зада минқору, ногёё шуда.

(Мазмуни: Богини кўр, ҳазонрезликдан кўрки қолмабди сарв ўрнида йўқ, булбулнинг тумишуғи йўқ бўлиб, куйлашибдан қолибди).

¹⁶⁴ Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоевул вакоев. Форсийдан Наим Норқулов таржимаси. – Тошкент: F.Гулом номидаги АСН, 1979.-Б.99.

¹⁶⁵ Кўрсатилган асар.-Б.105.

Мир ўқиган муаммони мен ёд билардим. Ўйланиб қолдим: номини айтиб, ўзимни гўлликка солиб, мажлисни ўтказаверсамми ёки тўғрисини айтайними? Оқибатда ростини айтишига аҳд қилдим. ..Ҳазрати Мир бошларини эгиб турдиларда, ёнидагиларга, азизлар, биласизларми, бунинг сўзи не маънони билдиради. Ўз қудратини изҳор этиб, бунисини биламан, бошқасини айтинг, демоқчи, биз бунинг даъвосини қабул қилурмиз, дедилар”.¹⁶⁶

Ғиёсиддин Хондамир “Хуносат ул-ахбор”да унинг ўзи ҳам Навоий мажлисларида ҳикоятлар айтганини ёзиб қолдирган: “Улув амир, ҳидоятпаноҳ, кароматли Руҳнинг муаййиди(акси), сўфий-сифат, соф ниятли рўзгор покизаси, мусулмон маросимларини улуғловчи, салтанат устуни ва мамлакат таянчи, ҳоқон давлатининг ишончли кишиси, сultonнинг яқини, улким, саховат дастурхонидан барча муҳтоҷ тўқ, ҳақ ва ҳақиқату дин низоми Амир Алишернинг шариф мажлисида ҳикоятлар сўйлар эдим. Ул жаноб менинг ҳикоятларимдан завқланар эдилар ва ҳазратнинг турли иноятлари бу қаноти синиқ банда аҳволи руҳиятига иссиқлик бахш этарди. Кундан-кунга бу ҳол кўпаяр ва соат сайин юксакликка кўтарилар эди, - деб ёзади Хондамир.

Навоий хузурида ана адабий бундай йиғинлари тез – тез ташкил қилинган. Биз келтирган мисоллар денгиздан бир томчи, халос.

Хўш, Навоий хузуридаги адабий мажлисларда қандай шеърлар ўқилган, деган савол туғилади.

Манбалар Навоий шеърият кечаларида бадиҳалар (рубойлар, қитъалар), татаббулар (бошқа шоирлар шеърларига назиралар, пайравлар, ўхшатмалар), янги қасидалар ва янги ғазаллар, айrim ҳолларда таърихлар ва марсиялар, муаммолар, луғзлар, ҳикоятлар, қиссалар (маснавийлар кўринишида) ўқилганидан далолат беради

Алишер Навоий хонадонидаги йиғинларнинг Ҳусайн Бойқаро олий мажлисларидан фарқи шундаки, Навоий синовидан ўтган шоиру ҳофизлар,

¹⁶⁶ Кўрсатилган асар.-Б.99.

қиссаҳону, қасидагўйлар, муаммо илмида тенги йўқлар, борингки, турли хил соҳадаги юксак истеъдод соҳиблари подшоҳ олий мажлисларига тавсия қилинган. Ўз навбатида адабий мажлислар ўз даврини адабиётини ривожланишида ҳам муҳим ўрин тутган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 1 – 10 жиллар. Т: Ф.Ғулом номидаги НМИУ. 2012.
- 2.Алишер Навоий.Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик.1 – 20 жиллар -Т: Фан.1983 – 2003.
- 3.Зайниддин Восифий. Бадоеъул вақоеъ. Форсийдан Наим Норқулов таржимаси. Т:Ф.Ғулом НМИК-1979.-Б.216.
- 4.Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-аҳлоқ. Т:Ф.Ғулом номидаги НМИУ-2015.-Б.208.
- 5.Навоий замондошлари хотирасида.Т:Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1985.-Б.224.
6. Давлатшоҳи Самарқандий. Тазкирату-ш-шуаро. Хўжанд: Ношир, 2015.-С.544.
- 7.Шухрат Сирожиддинов. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик текстологик таҳлили. Т: “Akademnashr”-2011. –Б.326.

**O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING O'ZGARIB BORISH
SHAROITIDA YOSH OILALARING MUSTAHKAMILIGINI
TA'MINLASH KELAJAGI**

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining

tayanch doktoranti Inagamova Feruza Xurshitovna

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatida dunyoga namoyon bo'lmoqda. Butun dunyoda demografik kapitalning ahamiyati tobora oshib borayotgan globallashuv davrida aholi tarkibidagi yoshlarning ulushi ko'pchilikni tashkil etishi mazkur mamlakatning yaqin kelajakdagi potensial istiqbolidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holati bo'yicha 36 million nafardan ortiq umumiyligi aholimizning 19,2 million nafari yoki 53 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi¹⁶⁷. Bu ko'rsatkich mamlakatning asosiy resursi hisoblanuvchi inson kapitalining istiqboliga ishora qiladi. Chunki aynan yoshlar bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti, ertangi kelajagi hamda jahon hamjamiyatidagi o'rnini belgilab beruvchi omil, mamlakatning beba ho boyligi hamda asosiy resursi hisoblanadi.

O'z navbatida, yoshlar sonining ko'pligi mamlakatimizda yosh oilalarning ham ulushi yuqori bo'lishligini ta'minlaydi. Bugungi kunga qadar oilaning ijtimoiy institut sifatidagi asosiy kuchi uning universalligi va ko'p funksional ekanligida namoyon bo'lib kelgan. Oila – jamiatning birlamchi yacheykasi hamda kichik modeli sifatida uning joriy qiyofasini o'zida aks ettirsa, yosh oilalar jamiatning ertangi holatini, yaqin kelajakda qanday bo'lishligini belgilab beradi. Aynan yosh

¹⁶⁷ Aholining yosh tarkibi bo'yicha taqsimlanishi – Jami // <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/aholining-yosh-tarkibi-boyicha-taqsimlanishi?lang=uz&format=pdf>

oilalar, ulardagи ijtimoiy-ma'naviy muhit, mavjud oilaviy qadriyatlar tizimi jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi hamda milliy identiklikka o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli ham yosh oilalarga e'tibor qaratish, ularni turli zararli g'oyalar va salbiy holatlar ta'sirlaridan himoya qilish, mustahkamligini ta'minlash, oila va nikohning sakral (muqaddas) mazmundagi qadriyat sifatida o'rnini saqlab qolish, yosh oilalardagi qadriyatlar tizimining barqarorligini ta'minlash masalasi hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash davlatning ijtimoiy siyosatidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida mamlakatimizda qator normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilingan. 2016-yil 14-sentyabrdan qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagи PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-apreldagi 124-sonli "Yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 31-dekabrdagi 820-sonli "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 28-avgustdagи 521-sonli "Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari shular jumlasidan. Umuman olganda, yosh oilalarni mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida mavjud qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish;
 - yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlash;
-

- yosh oilalarga imtiyozli shartlar asosida uy-joylar taqdim etish;
- yosh oilalarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarning tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta'minlash choralarini ko'rish;
- yosh oilalarda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash;
- yosh oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar berish tizimini rivojlantirish va boshqalar.

Mazkur yo'nalishlar orasida yosh oilalarni bugungi qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida mustahkamligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishga "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiysi"da alohida e'tibor qaratilgan hamda konsepsiyaning IV yo'nalishi "Oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash" deb nomlangan¹⁶⁸. Mazkur yo'nalishdagi davlat siyosati, ayniqsa, yosh oilalarga yo'naltirilgan bo'lib, buning asosiy sababini aynan ushbu toifadagi oilalarning mustahkamligini ta'minlash globallashuv davrida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi bilan izohlash mumkin. Davlatimizda globallashuv tufayli qadriyatlar transformatsiyaga uchrayotgan sharoitda yosh oilalarning mustahkamligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni quyidagi yo'nalishlarga ajratib olishimiz mumkin:

- yosh oilalarda an'anaviy qadriyatlarning saqlanib qolinishini ta'minlash. Xususan, oiladagi an'anaviy ota-onalarga nisbatan shakllangan munosabat, hurmat-e'tiborni, asrlar davomida shakllangan oiladagi ma'naviy-axloqiy qiyofa va qadriyatlar tizimini asrab qolish choralarini ko'rish;

¹⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori // <https://www.lex.uz/uz/docs/-3797625>

- oilaning ijtimoiy institut sifatida yaxlitligini mustahkamlashga, unda avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro mustahkam aloqani saqlashga yo‘naltirilgan oilaviy an’analarni rivojlantirish;
- yosh oilalarda ibratli va mas’uliyatli ota-onalik ko‘nikmalarini shakllantirish, oila ilmini rivojlantirish bo‘yicha tegishli choralarini ko‘rish;
- murakkab vaziyatlarga tushib qolgan yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, yosh oiladagi shaxslararo munosabatlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi asosida rivojlanishiga sharoit yaratish.

Yosh oilalarda qadriyatlar tizimini mustahkamlash – oilaning ertangi kuni, shu bilan bir qatorda jamiyatning ham ma’naviy muhiti barqarorligida asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Qadriyatlar – inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berishi ko‘plab jamiyatshunos olimlar, faylasuflar tomonidan ta’kidlangan. Mashhur nemis jamiyatshunosi Maks Veber (1864-1920) insonlar xatti-harakatlarining asosiy ko‘rinishlardan biri sifatida qadriyatga asoslangan ratsional harakatga to‘xtalib, uni eng ko‘p tarqalgan harakatlantiruvchi motiv, insonni faoliyatining asosiy omillaridan biri ekanligini ta’kidlagan edi¹⁶⁹. Shuningdek amerikalik mashhur sotsiolog Tollkot Parsons (1902-1979) ham mazkur masalaga e’tibor qaratib, inson xulq-atvori haqidagi qarashlarini yoritganda, shaxsni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri sifatida aynan qadriyatga qarab harakatlanishini ko‘rsatib o‘tgan¹⁷⁰.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aholining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi – Jami //
<https://api.stat.uz/api/v1.0/data/aholining-yosh-tarkibi-boyicha-taqsimlanishi?lang=uz&format=pdf>

¹⁶⁹ Действие социальное // Современная западная социология: Словарь. – М.: Политиздат, 1990. – Ст. 79.

¹⁷⁰ Парсонс Т. Функциональная теория изменения. О структуре социального действия //Электронная библиотека РГИУ. – М.: Американская социологическая мысль, 2000.

http://www.iu.ru/biblio/archive/parsons_o_strukture/11

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // <https://www.lex.uz/uz/docs/-3797625>
3. Действие социальное // Современная западная социология: Словарь. – М.: Политиздат, 1990. – Ст. 79.
4. Парсонс Т. Функциональная теория изменения. О структуре социального действия //Электронная библиотека РГИУ. – М.: Американская социологическая мысль, 2000.
http://www.iu.ru/biblio/archive/parsons_o_strukture/11

**XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH SOHASIDA ICHKI ISHLAR
VA MILLIY GVARDIYA ORGAN XODIMLARILARINING
HAMKORLIGI**

Gulyamov Kaxramon Davronovich,

O'zbekiston Respublikasi IIV Samarqand viloyati IIB

Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimi.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasida Milliy gvardiya va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish masalalari tahlil qilinadi. Turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan choralar, davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari va huquqiy asoslari tadqiq qilinadi. Shuningdek, xavfsiz turizmni ta'minlashda samarali hamkorlikning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: xavfsiz turizm, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, davlat organlari, hamkorlik, huquqiy asoslar.

В статье анализируются вопросы сотрудничества органов внутренних дел Республики Узбекистан с Национальной гвардией и другими государственными органами в области обеспечения безопасного туризма. Исследуются меры, принимаемые для обеспечения безопасности в туристической сфере, механизмы взаимодействия между государственными органами и правовые основы такого сотрудничества. Также освещается важность эффективного взаимодействия для обеспечения безопасного туризма.

Ключевые слова: безопасный туризм, органы внутренних дел, Национальная гвардия, государственные органы, сотрудничество, правовые основы.

The article analyzes the cooperation between the law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan and the National Guard, along with other state bodies,

in ensuring safe tourism. The measures taken to ensure safety in the tourism sector, the mechanisms of cooperation between state institutions, and the legal frameworks are examined. The importance of effective collaboration in ensuring safe tourism is also highlighted.

Keywords: safe tourism, law enforcement agencies, National Guard, state bodies, cooperation, legal frameworks.

Turizm sanoati dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi uchun ham iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatda turizmni rivojlantirish va uni jahon darajasiga olib chiqishda xavfsizlik masalasi juda dolzarbdir. Xavfsiz turizm sayyoohlar oqimini ko'paytirishga, mamlakatning xalqaro imijini yaxshilashga va investitsiyalarni jalg qilishga yordam beradi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o'rtasidagi hamkorlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Turizm sektori O'zbekiston iqtisodiyotining muhim qismi bo'lib, u yangi ish o'rirlari yaratadi, madaniy almashinuvni rivojlantiradi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shamdi. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Xavfsizlik choralarini kuchaytirish sayyoohlar va mahalliy aholining turizmga bo'lgan ishonchini oshiradi va xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning ijobiyligi imijini yaratishga yordam beradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlashga, shuningdek, jamoat xavfsizligi va qonunga itoatkorlik madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning yangi mexanizm va tartiblari joriy etildi. Davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan maqsadli hamkorligi yo'lgan qo'yildi.

Bundan tashqari, jahondagi turli xavf-xatarlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini «Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun» g‘oyasi asosida takomillashtirish vazifasini yuklamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni¹⁷¹ asosida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi rivojlantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmoni¹⁷² ga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta’minlashda ilg‘or xorijiy va milliy tajribalardan foydalanish asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi” hamda 2022—2025 yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlash strategiyasi tasdiqlandi. 2022 yilda strategiyani amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» ham qabul qilindi.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm ob’ektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi milliy manfaatlar sifatida belgilangan.

Buning sababi, ijtimoiy infratuzilmalar va turizm ob’ektlari mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ular faoliyat yuritishda turli xavf-xatarlarga duch kelishi mumkin, shuning uchun ularning xavfsizligini ta’minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi milliy manfaatlar qatorida turibdi. Buning uchun hukumat va tegishli tashkilotlar maxsus strategiyalar va chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim. Xavfsizlikni ta’minlash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish, xavfsizlik standartlarini tatbiq etish muhimdir. Shu bilan

¹⁷¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 марта «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятиликка карши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жихатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6196-сон Farmoni // Lex.uz.

¹⁷² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон «Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Farmoni // https://lex.uz/acts/5749291.

birga, jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolarning xabardorligini oshirish va ularni xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish ham zarur.

Ichki ishlar organlari jamoat joylarida, shu jumladan yo'llarda, transport va turizm infratuzilmasi ob'ektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan barcha kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi¹⁷³.

Darhaqiqat, ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular jamoat joylarida, yo'llarda, transport va turizm infratuzilmasi ob'ektlarida xavfsizlikni saqlash uchun barcha kuch va vositalarni muvofiqlashtiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayonda ichki ishlar organlari qator vazifalarni bajaradi: xavf-xatarlarni aniqlash, profilaktika tadbirlarini o'tkazish, favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qonun va normalarni amalga oshirish.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari turli tashkilotlar, jamoatchilik va xususiy sektor bilan hamkorlik qiladi. Ular zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanib, xavfsizlik choralarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari fuqarolarni xavfsizlikka rioya qilishga o'rgatish, ularning huquqiy ongini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ham tashkil qiladi.

O'tgan davr mobaynida respublikaning turizm salohiyatini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O'zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi obro'sini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rilib, huquqiy asoslar ishlab chiqilib, takomillashtirilib borilmoqda.

Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan

¹⁷³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон «Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони // <https://lex.uz/acts/5749291>.

temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi ob'ektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o'zida birlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi¹⁷⁴ hamda 2019 yil 1 fevraldagagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi¹⁷⁵ farmonlariga muvofiq, shuningdek, transport va turizm ob'ektlarida jamoat xavfsizligini samarali ta'minlashning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti tashkil etilib, departamentning vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

birinchidan, metropoliten, temir yo'l, havo-transport va turizm namoyishi ob'ektlari va infratuzilmasi hududlarida (keyingi o'rnlarda — transport va turizm ob'ektlari) jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

ikkinchidan, transport va turizm ob'ektlari hududlarida kriminogen vaziyatni tizimli tahlil qilish, yo'lovchi va turistlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbazarliklar sabablari va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

uchinchidan, yo'lovchilarning harakatlanish xavfsizligini, temir yo'l va havo transportida tashiladigan tovar-moddiy boyliklarning butligi va qo'riqlanishini samarali ta'minlash;

¹⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга oid қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5611-сон фармони // Lex.uz.

¹⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралдаги «Транспорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини tubdan takomillashaishi чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5647-сон фармони // Lex.uz.

to 'rtinchidan, transport va turizm ob'ektlarida terroristik tahdidlarni, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari, o'qotar quroq, o'q-dorilar, portlovchi, radiaktiv, zaharli, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharlovchi moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq holatlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni tashkil qilish;

birinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda transport va turizm ob'ektlari va ularga tutash hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning markazlashgan muvofiqlashtirilgan boshqaruvini amalga oshirish.

Keltirilgan bandlarda transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlashga oid chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat va belgilangan asosiy vazifalar, ayniqsa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, muhim ahamiyatga ega. Biroq, ularni amalga oshirishda bir qancha qiyinchiliklar va muammolar paydo bo'lishi mumkin. Keltirilgan rejalarining har birini tanqidiy tahlil qilib chiqamiz. Xususan:

birinchi bandida jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda muvofiqlashtiruvchi tizimni tashkil qilish vazifasi belgilangan. Buni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan tashkilotlar o'rtafigi samarali hamkorlik va muvofiqlashtirish muhim. Biroq, amaldagi muvofiqlashtirish tizimlarining yetishmovchiligi yoki to'liq ishlamayotganligi tufayli ko'pincha byurokratik to'siqlar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, turli idoralar vakillari o'rtafigi ma'lumot almashinushi yoki favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish masalalarida hamkorlikdagi kamchiliklar xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

ikkinci bandida kriminogen vaziyatni tizimli tahlil qilish va huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash vazifasi belgilangan. Bu nazariy jihatdan to'g'ri va zamonaviy yondashuv, lekin uni amalga oshirish uchun to'liq axborot bazasi va xavfsizlik sohasidagi ma'lumotlarni yig'ishdagi samaradorlik muhim. Bugungi kunda ayrim hududlardagi ma'lumotlar to'planishi,

ularni tahlil qilish uchun texnologik imkoniyatlar cheklangan. Shu sababli, bu vazifani to‘liq va samarali amalga oshirish uchun axborotni yig‘ish, to‘plash va tizimli tahlil qilishning ishonchli mexanizmini yaratish lozim.

uchinchchi bandida yo‘lovchilar xavfsizligi va tovarlarning qo‘riqlanishini ta’minlash haqida so‘z boradi. Bunda xavfsizlikni ta’minlashning samarali vositalari, ayniqsa temir yo‘l va havo transportida, juda muhim. Lekin bunday yo‘nalishlarda samarali xavfsizlikni ta’minlash uchun mavjud texnik vositalarning yetarlicha rivojlanmaganligi muammo bo‘lishi mumkin. Bu ayniqsa, ayrim xavfsizlik tekshiruv punktlarida yoki transport tarmog‘ining barcha qismlarida ishlab chiqarilgan yechimlarning to‘liq tatbiq qilinmaganligi bilan bog‘liq. Shuningdek, transport kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik masalasi ham muhim rol o‘ynaydi.

to‘rtinchchi bandida terrorizm, giyohvandlik vositalari va boshqa xavfli moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish muhimligi ko‘rsatilgan. Bu sohada texnik vositalardan foydalanish va xavfsizlikni ta’minlash vositalari juda muhim. Biroq, ushbu sohada ham texnika yetishmovchiligi yoki xavfsizlik tizimlarining yangilanmaganligi samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Ya’ni, bu tizimlarning samarali ishlashi uchun muntazam modernizatsiya va xodimlarning tayyorgarligi muhim. Shu bilan birga, ma’lumotlarni tezkor almashinuv tizimining o‘zi xavfsizlik xizmatlari va boshqa tuzilmalar o‘rtasida yetarli darajada tashkil qilinmagan bo‘lishi mumkin.

beshinchchi bandida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifasi belgilangan. Bu ham juda muhim qadam, lekin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishidagi muammolar mavjud. Bu texnologiyalarni joriy qilish va ularni ishonchli foydalanish tajribasi ayrim hududlarda yetarli darajada emas. Bundan tashqari, bu texnologiyalarni joriy qilishga iqtisodiy va texnik resurslar taqchilligi ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha keltirilgan vazifalar nazariy jihatdan samarali, biroq amaliy jihatda bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha sohalarda hamkorlik va muvofiqlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ma'lumotlarni tezkor almashish hamda xodimlarning tayyorgarligi muhimdir. Tizimli ravishda samarali monitoring, tahlil va tezkor choralar ko'rish bu yo'nalishdagi faoliyatni yaxshilaydi.

"Turistlar to'g'risida"gi qonun bilan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash masalalari ham tartibga solingan, unda O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga zarur yordam ko'rsatish ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi, xususan "Qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar va boshqa qutqaruv xizmatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sog'liqni saqlash, aloqa, ichki ishlar organlari, davlat o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya, fuqaro aviatsiyasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi"¹⁷⁶.

Normani tahlil qilar ekanmiz, mazkur moddada ichki ishlar organlari turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlashga mas'ul sub'ekt sifatida belgilangan.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasiga muvofiq jamoat joylari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlari va Toshkent shahri markazi, bozor va hiyobonlar, istirohat bog'lari milliy gvardiya organlariga biriktirilgan. Shu bilan birga, Milliy gvardiya organlari tizimida Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi tarkibida turizm masalalari bo'yicha qo'shimcha shtat tashkil etilgan bo'lsada, biroq, "Turistlar to'g'risida"gi qonunda milliy gvardiya organlari turizm xavfsizligini ta'minlovchi sub'ektlar tizimida nazarda tutilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka karshi kurashish soxasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jixatidan yangi boskichga kutarish chora-tadbirlari tugrisida" 2021 yil 26 martdagি

¹⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси "Туристлар тўғрисида"ги конун // <https://lex.uz/uz/docs/4428097>.

PF-6196-son Farmoni, “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid kushimcha chora-tadbirlar tugrisida” 2019 yil 6 martdagi PQ-4229-son va 2022 yil 25 iyuldaggi PQ-333m-son karorlariga muvofik, turizm namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi xududlarida jamoat tartibini saklash, huquqbuzarliklarning barvakt oldini olish va jinoyatchilikka karshi kurashish, turistlarning huquq va erkinliklari, konuniy manfaatlari, ularning xayoti, sogligi va mol-mulki ximoya kilinishini ta’minlash soxalarida ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bulinmalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022 yil 7 dekabrdagi 535-son “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bulinmalari faoliyatini tashkil etish tug‘risida”gi buyrug‘i bilan “Toshkent shaxar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshkarmalari, Buxoro, Samarkand, Surxondaryo, Qashqdaryo va Xorazm viloyatlari ichki ishlar boshkarmalarining xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari tug‘risidagi namunaviy nizom”, “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departament Xavfsiz turizm boshkarmasining Sall-markazi tug‘risidagi nizom”, “Ichki ishlar organlari xavfsiz turizmni ta’minlash boshkarmalarining navbatchilik kismlari faoliyatini tashkil etish tugrisidagi nizom”, “Xavfsiz turizmni ta’minlash soxasiga fukarolarni shartnomaga asosida jalb kilish tartibi tugrisidagi nizom”, “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bulinmalari faoliyatini tashkil etish tartibi tugrisidagi yuriknoma”, “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bulinmalari xodimlarini Ichki ishlar vazirligi xuzuridagi Xavfsiz turizmni ta’minlash jamgarmasi mablaglari xisobidan ragbatlantirish tartibi tugrisidagi yuriknoma”, “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bulinmalari xodimlarini Ichki ishlar vazirligi xuzuridagi Xavfsiz turizmni ta’minlash jamgarmasi mablaglari xisobidan ragbatlantirish buyicha komissiya tarkibi”, “Ichki ishlar organlari xavfsiz turizmni ta’minlash bulinmalarining aloxida farklovchi belgilari namunalari” tasdiklangan.

Turizm va transport sohasida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlar bo'yicha munozara bugungi kunda dolzarb va zarur hisoblanadi. Asosiy savollar ushbu chora-tadbirlarning amalda qanchalik samarali ishlayotgani va jamoat xavfsizligini oshirish maqsadida huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlariga qaratilgan.

PF-6196 va PQ-4229 kabi farmon va qarorlar xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish uchun huquqiy asos yaratadi. Biroq, ushbu choralarning amaliy ijrosi, samaradorligini nazorat qilish va xususiy sektorni jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalg qilish masalalari bo'yicha hanuz savollar mavjud. Bunday tadbirlarning bajarilishini qanday nazorat qilish mumkin? Davlat va xususiy sektor o'rtaсидаги samarali hamkorlik qanday amalga oshiriladi?

Shu bilan birga, mazkur bo'linmalar xodimlarining tayyorgarlik darajasi va ularning o'quv jarayoni sifati qanchalik yuqori ekanligiga doir savollar ham muhokamada. Bunday islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli moliyaviy va tashkiliy resurslar mavjudmi? Turli tuzilmalar o'rtaсида tezkor va muvofiqlashtirilgan harakatni ta'minlash maqsadida hamkorlikni qanday yo'lga qo'yish mumkin?

Shunday qilib, ushbu chora-tadbirlar atrofidagi polemika jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy va tashkiliy bazani yanada takomillashtirish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan, ayniqsa, O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan turizm sektori sharoitida.

Ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish kabi vazifalarni bajaradi. Ular turistik zonalardagi xavfsizlikni ta'minlashda asosiy kuch hisoblanadi. Ichki ishlar organlari turizm politsiyasini tashkil etish orqali sayyohlik hududlarida xavfsizlikni oshirish, jinoyatchilikni kamaytirish va sayyohlar xavfsizligini ta'minlashda faol ishtiroy etadi.

Milliy gvardiya organlari xavfsizlikni ta'minlash, sayyoohlarni muhofaza qilish va turistik ob'ektlarni himoya qilish bo'yicha maxsus operatsiyalarda ishtirok etadi.

Turistik zonalardagi xavfsizlik choralari, xavfsizlik xodimlari tayyorgarligi va ularga beriladigan ko'nikmalarni oshirish hamkorlikning muhim yo'naliшlaridan biridir. Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya organlari birgalikda o'quv mashg'ulotlari, maxsus tadbirlar va xavfsizlik operatsiyalarini tashkil etib, xavfsizlikni ta'minlashda o'zaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kuzatuv tizimlari, xavfsizlik monitoringi va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi xavfsizlikni oshirishda muhim rol o'yndaydi. Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya zamonaviy texnologik yondashuvlarni joriy etish orqali xavfsizlik samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni keng amalga oshirish zarurati mavjud.

Xavfsizlik sohasida erishilgan yutuqlar, aniqlangan muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar hamkorlikning samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkichlardir. Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o'rtaсidagi hamkorlik asosida xavfsizlikka doir amalga oshiriladigan chora-tadbirlar natijasida sayyoohlarni mahalliy aholi fikrini o'rganish, ularning xavfsizlik choralari borasidagi qoniqishini baholash, hamkorlikning natijalari to'g'risida xulosa chiqarishga yordam beradi.

Yangi texnologiyalar va metodologiyalarni joriy etish, xavfsizlikni ta'minlashda ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish zarur. Shu bilan birga, xavfsizlikni ta'minlashda innovatsion yechimlarni tatbiq etish, xavfsizlikni oshirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Tadqiqot ishining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasidagi tadqiq etilgan xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va yangi loyihalarni amalga oshirish orqali ichki ishlar organlari va Milliy

gvardiya o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash mumkin. Bu turizm sohasida xavfsizlikni oshirishda samarali yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Tahlillardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, turizm sohasida xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi munosabatlar ichki ishlar va milliy gvardiya organlarida sohaviy xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik asoslari bilan tartibga solingan bo‘lib, bu o‘rinda, tashkilotlarning mazkur sohadagi xamkorligini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma normativ-huqkuqiy hujjatlar qabul qilish turizm xavfsizligini ta’minlash ahamiyati va imkoniyatlarini yanada orttiradi (*qo‘shma qaror loyihasi dissertatsiyaga ilova qilingan*).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi turizm xavfsizligini ta’minlash sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash masalalarida O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga zarur yordam ko‘rsatish ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi, xususan “Qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar va boshqa qutqaruv xizmatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sog‘liqni saqlash, aloqa, ichki ishlar organlari, davlat o‘rmon xo‘jaligi, gidrometeorologiya, fuqaro aviatsiyasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimiga Milliy gvardiya organlarini xam kiritish maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, mamlakatimizning turistik hududlarida, xususan, Samarcand viloyatidan tashqari Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent shahri, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Jizzax viloyatlarida Milliy gvardyaning turizm xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarini, shuningdek, Milliy gvardiya markaziy devoni tizimida xavfsiz turizm boshqarmasini tashkil etish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining turizm xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hamkorligini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qo‘shma qaror loyihasini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish

maqsadga muvofiq. Ushbu qo'shma qaror loyihasida quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq:

- *ichki ishlari va milliy gvardiya organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasidagi hamkorligining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash:*

turizm ob'ektlarida, tarixiy va madaniy yodgorliklar joylarida hamda sayyoohlar ko'p tashrif buyuradigan hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash choralarini kuchaytirish;

turistlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda o'tkazish;

ichki ishlari va milliy gvardiya organlari o'rtaida tezkor ma'lumot almashish mexanizmlarini joriy qilish, ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda jamoaviy harakatlarni muvofiqlashtirish;

turizm xavfsizligini ta'minlashdagi yangi axborot texnologiyalari, shu jumladan, videokuzatuv tizimlari, transport vositalarini kuzatish, favqulodda vaziyatlarni tezkor aniqlash va sayyoohlar xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlarni aniqlash uchun zamonaviy vositalarni keng joriy etish.

- *ichki ishlari va milliy gvardiya organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasidagi tashkiliy chora-tadbirlar:*

patrul faoliyatini takomillashtirish;

turizm hududlarida jamoat tartibini saqlash uchun maxsus patrul guruhlari tashkil qilish. Bu patrul guruhlari Ichki ishlari va Milliy gvardiya organlari xodimlari birgalikda jalgan etiladi;

patrul guruhlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, xususan, videokameralar, dronlar va turli elektron vositalardan foydalanish orqali xavfsizlikni kuchaytirish;

hamkorlikdagi treninglar va o'quv mashg'ulotlari;

ichki ishlari vazirligi va Milliy gvardiya xodimlari o'rtaida muntaza ravishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shma treninglar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

sayyoohlarning ehtimoliy xavf-xatarlarga nisbatan xabardorliklarini oshirish maqsadida turizm ob'ektlari va mahalliy aholi bilan profilaktik uchrashuvlar tashkil etish;

maxsus guruhlar va operativ xizmatlar tashkil etish;

turizm mavsumlarida sayyoohlarning xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus xizmatlarning navbatchilik qilishi yo'lga qo'yiladi. Bu xizmatlar sayyoohlar tashrif buyuradigan yirik maskanlar va ularning atrofida joylashtiriladi;

turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash uchun malakali kadrlarni tayyorlash va ularni doimiy ravishda qayta o'qitish.

- *ichki ishlar va milliy gvardiya organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasida axborot xavfsizligidagi hamkorlikdagi chora-tadbirlar:*

sayyoohlar uchun xavfsizlikka oid axborot tarqatish bo'yicha milliy va xalqaro turizm portallarida maxsus boblar tashkil etish;

turistlar xavfsizligiga oid mobil ilova va veb-saytlar orqali ma'lumot berish, ularni xavfsizlik qoidalariiga rioya qilishga o'rgatish;

jamoat joylarida xavfsizlik to'g'risidagi eslatmalar va axborotlarni joylashtirish, ayniqsa, transport vositalari va mehmonxonalarda hushyorlikni oshirish.

- *ichki ishlar va milliy gvardiya organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasidagi hamkorligini rivojlantirishning hisobot va monitoring chora-tadbirlari:*

ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining sayyoohlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirgan ishlari yuzasidan muntazam ravishda hisobot taqdim etish tizimini yo'lga qo'yish;

turizm ob'ektlaridagi xavfsizlik holatini muntazam monitoring qilish va tahlil qilish, xavf-xatarlar yuzasidan tahlillar tayyorlash hamda muvofiqlashtiruvchi komissiyaga tavsiyalar kiritish;

har yili turizm xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar va erga tutilayotgan tahdidlarning oldini olish choralar bo'yicha ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va ular asosida tegishli tadbirlarni ishlab chiqish.

- *ichki ishlar va milliy gvardiya organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash sohasidagi hamkorligini rivojlantirishning moliyalashtirish masalalari:*

turizm xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun davlat budgeti mablag'lari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va investorlar bilan hamkorlik qilish orqali qo'shimcha manbalar jalg qilish;

ichki ishlar va milliy gvardiya organlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, shu jumladan, mobil patrul vositalari, axborot tizimlari va xavfsizlikni nazorat qiluvchi elektron vositalar xarid qilish uchun mablag'lar ajratish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkingi, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi samarali hamkorligi mamlakatimiz xavfsizlik tizimini yanada mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ikki tuzilma o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro ma'lumot almashish va mustahkam tashkilotchilik vositasida xavfsizlik choralarini kuchaytirish kelajakda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

birinchidan, tezkor va samarali ma'lumot almashish tizimini joriy qilish orqali ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya kuchlari ommaviy tartibsizliklarni tezkorlik bilan bartaraf etishga qodir bo'ladi. Bu ikki tuzilma o'rtasida o'zaro hamkorlik platformasini ishlab chiqish va zamonaviy aloqa texnologiyalarini joriy qilish orqali favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni oshirish mumkin.

ikkinchidan, ikki organ o'rtasida muntazam o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish ularning birgalikda harakatlanish imkoniyatlarini yanada mustahkamlaydi. Harbiy mashg'ulotlar va qo'shma o'quv tadbirlari orqali o'zaro ishonch va tajriba almashish ta'minlanadi.

uchinchidan, huquqni muhofaza qilish faoliyatini rivojlantirish maqsadida qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy qilish va kuchlarning himoya vositalarini takomillashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatimizda jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlash, terrorizm, ekstremizm va boshqa jinoiy xatti-harakatlarga qarshi kurashda samarali chora-tadbirlarni qo‘llash imkoniyati oshadi. Bu hamkorlik kelajakda ichki xavfsizlik tizimini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

BANKLARDA AKTIVLAR SIFATINI TASNIFFLASH

Qodirova Nafisa Ilhomovna

O'zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasi magistranti

Hozirgi vaqtda likvidlikni saqlash bank sektorining ob'ektiv zarurati hisoblanadi. Aytish joizki, uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyoj ayniqsa katta. Muammo shundaki, depozitlar, banklararo kreditlar va boshqa klassik moliyalashtirish manbalari cheklangan, bu esa moliyaviy resurslarni jalg qilish sohasida yangi usullarni ishlab chiqish yoki xalqaro tajribadan foydalanishni taqozo etadi. Belgilangan qoidalarga ko'ra, bank likvidligini saqlab qolish imkonini beradigan va amaliyotda taqsimlash uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan usullardan biri bank aktivlarini sekyuritizatsiya qilishdir.

Banklarda aktivlar bilan ishlashning asosiy prinsiplari, banklar tomonidan har yilning boshida ishlab chiqiladigan kredit siyosatida atroficha belgilangan bo'ladi. Mazkur kredit siyosatining maqsadi, vazifalari, hamda amal qilish sohasi aniq ko'rsatiladi. Bunda kredit siyosatining maqsadi sifatida:

- bankning samarali, daromadli kredit faoliyatini ta'minlash, kredit risklarini nazorat qilish va ularni kamaytirish vositalaridan foydalanish, shu jumladan, taqdim etilayotgan kreditlarning turlari va ular bo'yicha qabul qilinayotgan ta'minotlar bo'yicha diversifikasiya qilish, bankning kredit portfeli sifatini yaxshilash va kredit berish jarayonini to'g'ri amalga oshirish;
- kreditlash jarayonida amaldagi qonunchilik va bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablari va normalariga muvofiqligini ta'minlash;
- bank aksiyadorlarining huquqlarini himoya qilish, bank aktivlarini samarali boshqarish maqsadida, kredit xizmatlarini ko'rsatirish jarayonida poraxo'rlik va firibgarlik xavfini kamaytirish, shuningdek, iste'molchilar huquqlariga rioya qilishda jarayonlarning shaffofligini ta'minlash kabi vazifalar belgilab olingan.

Banklar o‘z kapitali va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turishlari, aktivlarni tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zaxiralarni tashkil etishlari, shuningdek zarar ko‘rish xavfini kamaytirish maqsadida o‘z aktivlari diversifikasiyalanishini ta’minlashlari lozim” deb belgilangan. Shundan kelib chiqib agar banklar kredit portfelidagi aktivlarni noto‘g’ri va nosog’lom yo’nalishlarda joylashtirishgan bo’lsa, bu holat bankning bankrotlik holatiga tushib qolishiga sabab bo‘ladi va agar omonatchilar bu holatdan xabardor bo‘lishsa, ular bankda o‘z mablag’larini saqlashlari unchalik ham xavfsiz emas degan fikrga kelishlari mumkin va zudlik bilan barcha mablag’larini bankdagi hisobraqamlaridan yechib olishga xarakat qilishlari va bankka shu talabni qo’yishlari mumkin. Agar bu talabni bir necha omonatchi qo’ysaku balki bank bu muammoni hal qila olar, lekin aksariyat holda bankka deyarli barcha omonatchilar talab bilan chiqishadi, mazkur holatda bank zahiradagi barcha mablag’larini tezlik bilan ishlatib bo‘ladi, qolgan qarzlarni esa qaytarishga mablag’ topa olmaydi. Ushbu holatda bank tugatilishi mumkin va barcha mulklari auksion orqali sotuvga chiqarilib, sotuvdan tushgan pullar kreditorlardan yuzaga kelgan qarzlarni qoplashga sarflanishi aniq. Lekin bu yerda bir ishtirokchi ham mavjud.

Aktiv bir toifadan ortiq toifalarda tasniflanishi xam mumkin. Summasi asosiy qarzning to‘lanmagan qiymatidan kam bo‘lgan ta’minotga ega muammoli ssuda quyidagicha tasniflanishi mumkin (ta’minot sotilishi mumkin bo‘lgan bozor mavjudligi sharti bilan):

- qiymati taminotning bozor kiymatiga teng bulgan asosiy karz kismi odatda substandart sifatida tasniflanadi;
- asosiy karzning kolgan kismi ushbu bulimda kursatilgan tartibda shubxali yoki umidsiz kabi tasniflanadi.

Quyidagilar aktivlarning likvid taminoti vazifasini bajaradi:

- O‘zbekiston Respublikasi hukumatining so‘zsiz kafolati;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so‘zsiz kafolati;

- Banklarda ochilgan hisobvaraqlarda erkin ayirboshlanadigan valyuta shaklidagi garov;
- O'zbekiston Respublikasi hukumati qimmatli qogozlari shaklidagi garov;
- andozaviy qimmatbaxo metallar shaklidagi, yani oltin va kumush quymalari shaklidagi garov.

Quyidagi aktivlar nolikvid taminotga ega deb hisoblanadi:

1. kuchmas mulk, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan yerga bulgan huquqni hisobga olgan holda;
2. xususiy korxonalarining qimmatli qogozlari;
3. yuridik va jismoniy shaxslarning kafolatlari.

Aktivlar bo'yicha taminot hisoblanuvchi garov bank tomonidan kreditni qoplashni asosiy manbai deb hisoblanmasligi kerak. Garov kreditni to'lashning ikkilamchi manbai deb qaralishi kerak. Xavfsiz va ishonchli faoliyat andozalariga muvofiq tarzda banklar garovni kreditni qaytarishning asosiy vositasi deb hisoblangan holda, kredit bermasliklari kerak, shunga muvofiq ravishda bank asosiy qarz summalarining qaytarilishini va garovni sotishdan olinadigan foizlarni baholashi kerak. Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagи kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo'llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni xam ko'zda tutadi.

Mazkur tizim bank boshqa aktivlari, jumladan, investisiyalar, qimmatli qogozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

Tijorat banklari aktivlarining muddatlariga asosan tarkibi bankning aktiv operasiyalarining qaltislik darajasiga bevosita bog'liqdir. Lekin asosiy o'rnini muddatlari bo'yicha joylashtirilgan aktivlar tarkibi bankning passivlar tarkibida qisqa muddatli passivlar asosiy ulushini egallab turgan vaqtida tijorat banklari o'z aktivlarining uzoq muddatga joylashtirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Chunki, tijorat banklarining mijozlari muddasiz yoki talab qilib olingunga bo'lgan

depozitlarni o'zlari hohlagan vaqtida bankdan talab qilish huquqiga ega. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining muddatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash va transaksion depozitlarning faqat barqaror qoldig'idan resurs sifatida foydalanishni yo'lga qo'yish orqali transformasiya riskiga barham berish lozim. Tijorat banklari aktivlarining bir qismini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarda shakllantirish yo'li bilan ularning joriy likvidlilik darajasini oshirish lozim. Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining joriy likvidlik, asosan, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar hisobidan ta'minlanadi.

**GEOGRAFIK JOYLASHUV VA IQLIM OMILIGA HAMOHANG KIYIM
XUSUSIYATLARI VA SHARTLARI**

Sirojova Muxabbat Sodiq qizi

Iqlim – yer yuzasining quyosh nurlariga nisbatan og‘ishiga bog‘liq ravishda ob-havoning muayyan joyga xos bo‘lgan ya‘ni biron joyda bo‘ladigan ob-havo sharoitlarining majmui va mavsumiy geografik o‘zgarishidir. Respublikamiz keskin-kontinental iqlimi geografik joylashuvimizga mosdir.

Inson turli ob-havo sharoitlarida tana haroratini normal ushlab turish uchun fiziologik mexanizmlardan foydalanadi:

- Atrofda havo va devorlar, derazalar, osmon va boshqa kabilari
- Odamning sirt harorati yoki kiyim

Odam atrof-muhit bilan hamohang kirishishi uchun kiyimni o‘zgartirishi mumkin. Kiyim nafaqat o‘z uslubingizni va shaxsiyattingizni ifodalash, balki o‘zingizni sovuq, issiqlik va yomg‘ir kabi tashqi omillardan himoya qilish usulidir. Kiyimlar qanday tanlangan va kiyinilganiga qarab, sog‘lig‘imiz va qulayligimizga ta‘sir qilishi mumkin. Mato va materiallar tashqi omillardan qulay himoyani ta‘minlaydi shuning uchun yuqori sifatli mato va materiallardan kiyimlarni tanlash muhimdir. Misol uchun, yozda biz paxta va zig‘ir kabi yengil va ergonomik qulay tabiiy matolarni afzal ko‘rishimiz mumkin, ular terining nafas olishiga imkon beradi shu bois terlashga olib kelmaydi. Qishda biz sovuqdan himoya qiladigan jun hamda jun kabi issiq va izolyatsiyalovchi materiallarni tanlaymiz. Polyester, neylon kabi sintetik materiallardan tayyorlangan kiyimlar ba‘zi odamlarda tirmash xususiyati va allergik reaksiyaga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, terining nafas olishiga yo‘l qo‘ymaydi, terlash, yoqimsiz hidga sabab bo‘ladi. Tegishli o‘lcham kiyimlarga yaxshi mos keladigan va juda tor yoki keng bo‘lmagan kiyimlarni tanlash muhimdir. Juda qattiq kiyim noqulaylik tug‘dirib, harakatni cheklaydi va teriga bosim o‘tkazadi. Juda keng kiyimlar ham harakat paytida noqulaylik va muammolarni

orttiradi. Kostyuming kiyilish o'rni, vazifasiga ko'ra bir qancha turlari: kundalik kiyimlar, rasmiy kiyimlar, kasb kiyimlari, oqshom liboslari, sport kiyimlari kabilarni ko'rib chiqamiz.

Kundalik kiyimlar - o'z nomi bilan har doim zarurat bo'lgan uyda, dam olishda kiyiladigan milliylikka xos kiyimlar sanaladi.

Rasmiy kiyimlar – ofis, kompaniya, televideniya uslubidagi kostyumlar bo'lib ortiqcha hashamat talab etmasligi bilan ajralib turadi. Bu kostyumlarning yana bir o'ziga xosligi asosan oq, qora va siyoh ranglaridan uyg'unlashadi.

Oqshom liboslari – to'y va tantanalar uchun inson go'zalligiga hissa qo'shadigan aksesuarlar, tosh va mujafarlar bilan boyitilgan kostyumlardir. Bir qarashda san'at asarlariga o'xshaydi.

Sport kiyimlari – qulaylikni sevuvchi insonlar uchun dam olish va sport bilan shug'illanuvchilar kostyumi. Asosan elastikligi yuqori matolaridan foydalaniladi.

Kasb kiyimlari - ma'lum bir kasb xususiyatlaridan kelib chiqib yaratilgan bo'lib insonlarni shu kasb xatarlaridan himoya qiladi va boshqa kasb egalaridan bir qarashda ajratib turadi. Bu kostyumlar harbiy, o't o'chiruvchi, shifokor kiyimlaridir. Aytishimiz joizki bu kiyimlar hammasi doim iqlim xususiyatlaridan mutavallik yaratiladi. Mavsum va mehnat sharoitlariga muvofiq kiyimlar tayyorlash uchun turli xil matolar: tabiiy, sintetik, polietilen, charm, mo'yna kabilardan foydalaniladi. Kelingki, shifokorlar kiyimini olaylik: bu kasb egalari asosan oq, moviy, och yashil ranglardan foydalanadi. Umumiy holatda doimiy och rangli, tabiiy tolalardan tayyorlangan formalar bu kasb egalari uchun zarur. Gigiyenik va estetik ko'rinish nafaqat shifokorlar balki bemorlar uchun ham muhim masaladir.

Zamonaviy jamiyat texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Har kuni oddiy odamning hayotiga kundalik hayotda, iste'mol tamoyillariga va shaxsiy psixologiyaga ta'sir qiluvchi juda ko'p miqdordagi ma'lumotlar va yangi mahsulotlar keng ommaga tadbiq etilmoqda. Kunimizga uyg'un kiyinish davr talabi ekan yangi joriy etilayotgan yangi drecc kodlarning yaqqol guvohlarimiz.

DRECC KOD- drecc code so‘zidan olingan bo‘lib, “kiyininch kodeksi“ degan ma‘noni anglatadi. Drecc kod qoidalari odatda kasb bilan aloqador bo‘lib, bir faoliyatga qaratilgan kompaniya madaniyati va brendining muhim qismi sifatida qaraladi. Ish beruvchi organ har doim yuqoridagi geografik omil bilan bir qatorda kasbiy, estetik talab va takliflarni ham ko‘rib chiqadi.

Xulosa qilib aytish kerakki, iqlim o‘zgarishi kunimizda nafaqat sanoatlashish va urbanizatsiya darajamizga balki moda dunyosi – tikuvchilik sohasi uchun ham o‘zgarishlarga sabab bo‘lyapti.

**GEOMETRIYA O'QITISHDA KUZATISH VA TAJRIBA, ANALIZ VA
SINTEZ ILMIY METODLAR**

**O'zbekistan Respublikasi II
Qoraqalpoq akademik litsey matematika fani o'qituvchisi
Abdiniyazova Sawlexan Joldasbaevna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada geometriya o'qitishda kuzatish va tajriba, analiz va sintez ilmiy metodlar haqida so`z yuritilgan.

Kalit so'zlar: sxematik tarz, ta'lif samaradorligi, kompetentsiyaviy yondashuv, kasbiy, umummadaniy, ijtimoiy,

Kirish

“Yangi fikr va g‘oya bo‘lmasa, taraqqiyot ham, innovatsiya ham yo‘q”

Sh.M.Mirziyoyev

Hozirgi vaqtida yurtimizda keng ko‘lamda qurilish, ishlab-chiqarish va innovatsion texnologiyalarni yanada takomillashtirish uchun katta investetsiyalar kiritilmoqda. Ushbu sohada tajribaga ega, o‘z ishiga usta mutaxassislarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu kabi mutaxassislarning tafakkuri va tasavvuri keng, kreativlik darajasi yuqori va shu bilan birga ajoyib ijodkor bo‘lish ham lozim. Oliy ta’lim muassasalaridagi bu kabi talabalarni ya’ni bo‘lajak mutaxassislarni aniqlash va talabalarni sohalarga yo‘naltirish asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Bunda chizma geometriya va chizmachilik, muhandislik kompyuter grafikasi fanlarining ham ahamiyati katta

Zamonaviy texnikaga bilimlarni mukammal egallashning shartlaridan biri grafik savodxonlikni oshirish, ya’ni chizmalarni o‘qish va bajarishni bilishdir. Bunda chizmalar chizishning asosi bo‘lgan – chizma geometriya fanini mukammal o‘rganish nazarda tutilmoqda. Chizma geometriya fani talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishda boshqa fanlarga nisbatan qaysidir ma’noda ustunlikka ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi bu fanda geometrik shakllarning turli

tasvirlarini yasash tatbiq qilinadi. Bundan tashqari qoidalar yoki berilgan matn orqali ma'lum bir detal yoki jismning tasvirini tiklash mumkin. Shundan ko'rinish turibdiki, bu fanning cheki ya'ni oxiri bo'lmaganidek, bu fanni tushunish uchun ham tasavvur va tafakkurning ham chek-chegarasi yo'q. Chizma geometriyada bajariladigan masalalarni tushunish, anglash uchun talabada kuchli tasavvur rivojlangan bo'lishi lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimida geometriya kursini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarini shakillantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. O'quvchining matematika sohasidagi kompetentligi unga istalgan matematik masalaga yanada umumlashtirilgan va ijodiy yondashish imkonini beradi.

Kompetentlikka oid masalalar tanish malakalarni o'quvchilar uchun notanish vaziyatlarda qo'llashni nazarda tutadi. Geometriya o'qitishga kompetent yondashuvda e'tibor masalani yechish mantiqi, bilimlarning nazariy sohalarini ajratish va tahlil, u yoki bu masalani yechishning ma'lum bo'lgan metodlari, usullari asosida yechish jarayonini prognozlash (uni xayolda dastlabki sxematik tarzda tasavvur qilish) ga ko'chiriladi.

Asosiy qism

Geometriya darsi boshqa darslardan shunisi bilan farq qiladiki, istalgan mavzuni o'rganish chog'ida katta miqdordagi matematik masalalar yechiladi. Shu sababli kompetentikni ko'p jihatdan masalalar yordamida rivojlantirishga to'g'ri keladi. Geometriya darslarida faol rivojlantiriladigan asosiy kompetentliklardan biri o'quvbilish kompetentligi hisoblanadi, chunki u o'quvchilar faoliyatining asosi turi - o'quvbilish faoliyati bilan bog'liq.

O'quvchilarning kompetentliklarini shakllantirish va tekshirishga qaratilgan masalalarning turli nomlari va ta'riflari mavjud. Ularni kompetent-yo'naltirilgan, vaziyatli, kontekstli va h.k. nomlar bilan atashadi. Bu masalalarni biz kompetentlikka oid masalalar deb yuritamiz. Kompetentlikka oid masalalarni

metodik ishlash deganda: masalani yechishdan olinadigan bilishga oid natijalarini ajrata olish; masala shartida (berilganlarda) ortiqchilik, qarama-qarshilikni aniqlash; turli shakllarda taqdim qilingan axborotni “o'qish”; yechish uchun zarur (ham matematik, ham nomatematik) bilimlarni tanlash, shuningdek, an'anaviy matematik masalalarni kompetentlikka oidlariga o'gartirish malakalari tushuniladi

Kompetentlikka oid masalalarning standart (fanga oid, fanlararo, amaliy) matematik masalalardan farqi:

- olinadigan natijaning (bilishga oid, kasbiy, umummadaniy, ijtimoiy) ahamiyatliligi, bu o'quvchining bilishga oid motivatsiyasini ta'minlaydi;
- masala shartining uni hal qilish uchun (asosiy fan – matematikaning turli bo'lmlariga oid, boshqa fanlar yoki hayotdan olingan) bilimlarni qo'llash zarur bo'lgan, masala matnida ular aniq ko'rsatilmagan, syujet, vaziyat yoki muammo tarzida shakllantirilgani;
- masalada axborot va ma'lumotlar turli (rasm, jadval, sxema, diagramma, grafik va sh.k.) shaklida berilishi mumkinligi, bu ob'ektlarni tanib olishni talab qiladi;
- masala yechishdan olingan natijaning qo'llanish sohasi (aniq yoki yashirin) ko'rsatib berilganidan iborat.

Sanab o'tilgan to'rtta majburiy o'ziga xoslikdan tashqari kompetentlikka oid masalalar quyidagi talablarni qanoatlantira oladi:

- strukturasiga ko'ra bu masalalar – nostandard, ya'ni masala strukturasida uning ayrim komponentlari labatta noaniq bo'ladi;
- masala shartida ortiqcha, yetishmaydigan yoki qarama-qarshi (ziddiyathi) ma'lumotlarning bo'lishi, bu shartning hajmli shakllantirilishiga olib keladi;
- yechimning bir necha usuli mavjudligi (ratsionallikning turli darajasi), bundaa mazkur usullar o'quvchilar uchun noma'lum bo'lishi mumkin va ularni konstruktsiyalash talab qilinadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, geometriya fanini kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchi va talabalarining ijtimoiy hayotga maktabgacha ta'lif muassasalaridan tortib toki oliy ta'lif muassasalarigacha bo'lgan moslashishiga yordam berishdan iborat.

Chizma geometriyadagi masalalarni qanday yechishni hamda uni qanday o'qitish masalalari to'g'ri yo'lga qo'yilsa talabalarining fazoviy tasavvurini rivojlantirishga erishish ta'minlanadi. Shundan keyingina biz o'z mustaqil fikriga ega, muammolarga kreativ yondashadigan va uning yechimini topa oladigan yosh mutaxassislarga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.J.Abdiniyazova.A.Omarov.Matematika.Nokis.Bilim baspasi.2015-j.
- 2.D.Ytebaev.S.Babakaev.M.Eshanov.S.J.Abdiniyazova.Algebra ham marematikaliq analiz tiykarlari. Nokis. Bilim baspasi.2015-j.
- 3.S.J.Abdiniyazova.X.S.Allambergenov.Bir belgisizli racional tenleme ham tensizliklerdi sheshiw usillari.Nokis.Bilim baspasi.2019-j.
- 4.Utebaev D. Babakaev S. Eshanov M. Abdiniyazova S. Algebra ham analiz tiykarlari.Nokis.2013.

Mundarija:		
1	HAR TIKAN BU G'UNCHADEK KO'NGLUMDA PAYKON BOG'LADI... Barotova Sevinch	5
2	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUDJET HISOBI VA NAZORATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLAR N. Rahmonov Najmidinov Abbosbek Anasbek o'g'li	11
3	MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI Raximova X.U Turdimatova Munira Tulkinovna	16
4	LOYIHA TUZISH VA UNI BOSHQARISH N. Tursunova Bozorova Maftuna Xayot qizi	20
5	ЛИДЕРЛИК ФАОЛИЯТИДА ИНСОН ОМИЛИНИНИНГ АҲАМИЯТИ Ф.Зулхайдарова	24
6	AXLOQIY MUNOSABATLARDA TARBIYANING AHAMIYATI Kurbanova Go'zal Saydaxmatovna	29
7	TURIZMNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI Karshiyev A.A.	40
8	SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINI YARATISH VA MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH Karshiyev A.A.	44
9	QON VA NON LEKSEMALARINING RAMZIY MA'NOLARI Shaxzoda Muxammadaliyeva	47
10	MONETAR SIYOSATNING SAVDO BALANSIGA TA'SIRINI TAHLILI Davletov Sirojiddin Narimanovich	53
11	РЕБЕНОК ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ЕГО ПСИХОЛОГИЯ. Абдукадирова Махлиё	58

12	ОЦЕНКА ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ МУЛЬТИПАРАМЕТРИЧЕСКОГО МРТ ПРЕДСТАТЕЛЬНОЙ ЖЕЛЕЗЫ М.Ф. Максудов У.О. Хайдаров	62
13	THE ROLE OF PARENTS IN SUPPORTING YOUNG CHILDREN'S BILINGUALISM Kosimov Anvar	64
14	БУХОРО АМИРИ САЙИД АБДУЛАҲАДХОН АДАБИЙ КЕЧАЛАРИНИНГ НАДИМЛАРИ Шерхон ҚОРАЕВ	68
15	МУҲАММАД РАҲИМХОН ФЕРУЗ АДАБИЙ МАЖЛИСЛАРИНИНГ НАДИМЛАРИ (ХИВА АДАБИЙ МУҲИТИ НАМОЁНДАЛАРИ) Шерхон ҚОРАЕВ	76
16	АМИР ҲАЙДАРНИНГ ДАРВИШЛАР ЙИГИНЛАРИ Шерхон ҚОРАЕВ	82
17	SOHIBQIRON TEMUR SAROYI ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Qorayev Sherxon Po'latxonovich	88
18	ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МАНБАЛАРИДА АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТ КЕЧАЛАРИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИЛИШИ (Бўрибой Аҳмедовнинг “Давлатшоҳ Самарқандий” асари маълумотлари асосида) Шерхон ҚОРАЕВ	115
19	O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING O'ZGARIB BORISH SHAROITIDA YOSH OİLALARNING MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASH KELAJAGI Inagamova Feruza Xurshitovna	132
20	XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH SOHASIDA ICHKI ISHLAR VA MILLIY GVARDIYA ORGAN XODIMLARILARINING HAMKORLIGI Gulyamov Kaxramon Davronovich	137
21	BANKLARDA AKTIVLAR SIFATINI TASNIFLASH Qodirova Nafisa Ilhomovna	153

22	GEOGRAFIK JOYLASHUV VA IQLIM OMILIGA HAMOHANG KIYIM XUSUSIYATLARI VA SHARTLARI Sirojova Muxabbat Sodiq qizi	157
23	GEOMETRIYA O'QITISHDA KUZATISH VA TAJRIBA, ANALIZ VA SINTEZ ILMIY METODLAR Abdiniyazova Sawlexan Joldasbaevna	160